ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

$6^{/1}$-son
(Noyabr-Dekabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT		
	4	Ta'lim oluvchilarda muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani his qilish) – asosiy to'rtta kompetensiyalar "4k"ni shakllantirish dolzarb masala
TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
A. Ismailov	6	O'zbekiston tarixi davlat muzeyining ilmiy va tashkiliy faoliyatidan o'quvchi-yoshlaga ta'lim-tarbiya berish jarayonida foydalanish
K.R. Mamadaliev	11	"Informatika o'qitish jarayonini loyihalash" o'quv fanining o'quv-metodik majmuasini loyihalashtirish asosida takomillashtirish
K. Abrorxonova, D. Abdullayeva	18	Boshlang'ich ta'limda iqtidorli o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish
K. Abrorxonova, Sh. Bo'riyeva	22	Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida axborot madaniyatini shakllantirish uchun to'garaklar tashkil etish
Sh.N. Taylakova	25	Maktab yoshidagi bolalarda xulq-atvorning og'ishi va ularni tarbiyalashda ijtimoiy institutlar faoliyati integratsiyasi
A. Samadov	30	Harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy mahoratini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari
A. Umarov	34	Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari
M. Mo'minova	38	Pedagogik faoliyatda ta'limiy maqsadlarni shakllantirish muammosi
TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI		
D. Asqarova	42	Bo'lajak tarbiyachilarni badiiy asarlarni saxnalashtirishga o'rgatishning zamonaviy texnologiyalari
J. Begijonov	46	Badiiy kulolchilik mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari va usullari
TA'LIM SFATI MAZMUN VA MOHIYAT		
I. Hasanova	51	Bola shaxsini rivojlanishida pedagogik diognostikaning o'rni
J. Abduraxmonov	55	O'quv jarayoni samaradorliginining nazariy va metodologik asoslari
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI		
F. Mavlonov	59	Harbiy xizmatchilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish
G.R. Tojiboyeva	63	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi omil
TA'LIMDA MENEJMENT		
R. Djo'raboyeva	68	Rahbar xodimni kasbiy rivojlantirishda boshqaruv madaniyatining o'rni
HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA		
M. Baratov, D. Yusupova	73	Maktab direktorlarining samarali boshqaruvini tashkil etishda mehnat huquqini amalda qo'llash zarurati
MADANIYAT, SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI		

G. Siddiqova	78	O‘quvchilarning musiqiy kompetentligini shakllantirshda didaktik omillar
		MAKTABGACHA TA’LIM
G. Nazirova	81	Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini tayyorlash konsepsiyasi va uni amalga oshirish mazmuni
S. Qozaqova	86	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni hikoya tuzishga o‘rgatish orqali bog’lanishli nutqini rivojlantirish
R. Tuxtasinova	90	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqaruv jarayonini takomillashtirishning rivojlantirish
N. Jamoliddinova	93	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarishda zamonaviy menejmentdan foydalanish
F. Kenjayeva	96	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik kreativlik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish
		TA’LIMDA MUTOLAA MADANIYATI
J. Xudaykulov	99	O‘quvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik shart-sharoitlari (Boshlang‘ich sinflar misolida)
		PSIXOLOGIYA
O. Xujaniyozova	103	O‘quvchilar bilan samarali ishlashda maktab psixologi faoliyatini takomillashtirish
N. Muratova	107	Noto‘liq oilalarning ijtimoiylashuvi muammolari (Tahlil, talqin, echim)
B. Xakimova	111	O‘smirlarning ijodiy rivojlananishlarini ta’minlash dasturlarini ishlab chiqish yo‘llari
A. Xakimov	114	Maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik hususiyatlari
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
Ю. Землина	118	Цифровой аспект формирования компетенции активной гражданственности
		МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
З. Абылова	123	Связь эволюции цифровых технологий и обучения английскому языку в школе
И.Ж. Турсынбекова	127	Модель студента как основной аспект интелектуальной обучающей системы
		НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА
Р. Бойкузиева	131	Особенности формирования познавательной активности студентов на материале национального культурного наследия Узбекистана
		КУЛЬТУРА, ИСКУССТВО И МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ
Т. Усманходжаев, С. Усманходжаев, Т. Зуфаров	135	Роль подвижных игр в повышении двигательной активности детей разных возрастных групп
		ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ
И. Чориев	141	Педагогические стратегии совершенствования физического воспитания студентов

TA'LIM OLUVCHILARDA MULOQOT VA MUOMALA MADANIYATI, TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATI, KREATIVLIK FAZILATI, GURUHDA ISHLASH (JAMOANI HIS QILISH) – ASOSIY TO'RTTA KOMPETENSIYALAR "4K"NI SHAKLLANTIRISH DOLZARB MASALA

Mamlakatimizda so'nggi yillarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda, ushbu islohotlarni hayotga to'liq joriy etish ijtimoiy taraqqiyot mas'uliyatini o'z zimmasiga oladigan vatanparvar, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan iqtidorli va istiqbolli, malakali va raqobatbardosh professional kadrlarga juda katta ehtiyojni vujudga keltirdi. Bu ehtiyoj, birinchi navbatda, davlat va jamiyatning ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirilishiga turtki bo'lmoqda.

Ta'limning ustuvor vazifalaridan biri, bu ta'lim oluvchi ongu shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, unda kelajakda jamiyatda o'z munosib o'rnini topishi uchun amaliy hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan o'quvchi yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga faol kirishishiga zamin hozirlashdir. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim-tarbiya jarayonini nafaqat ta'lim oluvchilarga fanlar bo'yicha bilim berish, balki egallagan bilim va malakalarini amalga tatbiq etish, ulardan hayotda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish ham asosiy vazifalardan biridir.

Pedagogika fani nazariyasi va amaliyotida "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari bir vaqtda qo'llanilmoqda. Kompetensiya ta'lim oluvchilarning tayyorgarligiga avvaldan qo'yilgan talablarni anglatsa, kompetentlik shaxsning mavjud sifatlari va qo'yilgan doiraga, sohaga munosabati bo'yicha shaxs faoliyatining minimal tajribasi bilan belgilanadi.

Respublikamiz ta'lim sohasi mutaxassislari XXI asrning eng asosiy to'rtta kompetensiyalarini "4k"ni (muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani his qilish), shakllantirish dolzarb masala ekanligini ta'kidlashmoqda.

Ushbu kompetensiyalar barcha kasblarni mukammal egallash, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun jiddiy ahamiyatga ega. Ish beruvchilar bilan muloqot jarayonida shunisi ma'lumki, soft skills, ya'ni barcha kasblarni egallashning asosi bo'lgan – hayot davomida paydo bo'ladigan muammolarni hal qilish, boshqa insonlar, hamkasblar bilan til topishib, ishlab ketish malakalarini shakllanganligi ularning eng asosiy talabiga aylangan. Ushbu malakalarni qandaydir o'quv kurslarda yoki treninglarda shakllantirib bo'lmaydi, bu malakalar bolalikdan, butun hayot davomida shakllanib boradi. Ayniqsa, ushbu malakalarni shakllantirishga boshlang'ich sinfdan jiddiy ahamiyat berish zarur.

Yana shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, zamonaviy ish beruvchilar yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan malakalarning, kompetensiyalarning shakllanganligi ular uchun asosiy ish faolyatlaridagi malakalaridan muhimroq ekanligini ta’kidlashmoqda. Muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani his qilish) kompetensiyalarining shakllanganligi nafaqat o‘qish, ishlash jarayonida, balki hayot davomida ham muhimdir. Ushbu kompetensiyalarning shakllanganligi farzandlarimiz o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishning strategiyalarini belgilab olish, hayot davomida paydo bo‘ladigan muammolarga, vazifalarga to‘g‘ri yechim topishga yordam beradi.

Umumta’lim maktablaridagi ta’lim jarayonida har bir o‘quvchi muhim (muloqot va muomala madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati, kreativlik fazilati, guruhda ishlash (jamoani xis qilish) hamda fanga oid kompetentliklarga ega bo‘lishiga yordam berish asosiy vazifamizdir. Har bir sinfdagi o‘quvchilar har xil, o‘ziga xos ta’limiy ehtiyojlar va xususiyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, umumiy dastur asosida ta’lim oladilar, eng asosiy to‘rtta kospetensiyalarini “4k”ni shakllantirish va baholash uchun ta’limda differensial yondashuvni joriy qilish zarurati paydo bo‘ldi. Differensial yondashuv “4k” va predmetga oid kompetentliliklarni shakllantirishga, qobiliyatlarni, qiziqishlarni rivojlantirishga va o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishga yordam beradigan qulay va optimal shart-sharoitlar yaratadi, tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlariga, fikrlash jarayonlarining tezligiga, bilishga qiziqish darajasi va har bir bolaning rivojlanganligi darajasiga asoslangan. Har bir o‘quvchining kuchli tomonlarini va qiyinchiliklarini bilish va ulardan ta’lim jarayonida foydalanish o‘qituvchiga nimani va qay tarzda o‘rgatishni, bolani o‘qishga qanday qiziqtirishni belgilab beradi. Ushbu yondashuv har bir o‘quvchiga teng imkoniyatlar taqdim qilgan holda, o‘qituvchiga ta’lim jarayonini individuallashtirishga yordam beradi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni alohida shakllantirishni emas, balki ularni kompleks ravishda egallashni taqozo etadi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish jarayonida barcha yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha davlat ta’lim standartlari, o‘quv dastur va rejalarni yangilash, o‘qitishni sifat va mazmun jihatdan yanada takomillashtirish zarurdir.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan yondashuvlarga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqil tafakkur, faol fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlik, mediaresurslardan o‘z faoliyatida oqilona foydalanish, sog‘lom raqobat hamda tolerantlikni shakllantiradi, shuningdek, ma’naviy-ahloqiy, jismoniy, aqliy hislatlarni kamol toptirishga, jumladan, ezgulikni himoya qilish, tez o‘zgaruvchan, murakkab dunyoda o‘z o‘rnini topish, altruizm, dunyoviy muammolarni anglash, to‘g‘ri qarorlar qabul qila olish, zaruriy hayotiy ko‘nikmalarni egallash, o‘z xatti-harakatlari, qarorlari uchun javobgarlik hissi, shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, axborotlarni qabul qilish va ajrata olish, abstrakt, ijodiy, mantiqiy tasavvurni kengaytirishga xizmat qiladi.

Alisher ISMAILOV,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi
davlat muzeyi ilmiy kotibi, tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim

O'QUVCHI-YOSHLAGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA O'ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYINING ILMIY VA TASHKILIY FAOLIYATIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston tarixi davlat muzeyining tashkil topishi, shakllanishi va rivoji keng yoritilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston tarixi davlat muzeyining asosiy ilmiy-tadqiqot ishlari va uning ilm-fanga qo'shgan hissasiga keng e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar. Olimlar jamiyati, Toshkent muzeyi, muzey fondlari, Parij ko'rgazmasi, Milan ko'rgazmasi, Fanlar akademiyasi, ilmiy-tadqiqot muassasasi, Davlat muzeyi maqomi, Ilmiy kengash.

В статье рассказывается о создании, становлении и развитии Государственного музея истории Узбекистана. Кроме того, в основной научно-исследовательской работе Государственного музея истории Узбекистана болшое внимание уделяется его вкладу в науку.

Ключевые слова. Общество учёных, Ташкентский музей, музейные фонды, Парижская выставка, Миланская выставка, Академия наук, научно-исследовательское учреждение, Статус государственного музея, Учёный совет.

This article covers the establishment, formation and development of the State Museum of History of Uzbekistan. In addition, the main research work of the State Museum of History of Uzbekistan pays great attention to his contribution to science.

Key words. Society of Scientists, Tashkent Museum, Museum Funds, Paris Exhibition, Milan Exhibition, Academy of Sciences, Research Institution, Status of State Museum, Scientific Council.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'zbekistonda fan yangicha sur'atda rivojlandi. Matematika, astronomiya, botanika, irrigatsiya, meteorologiya, geologiya, mintaqaviy tibbiyot, tarix, arxeologiya, muzeyshunoslik va boshqa sohalarda turli xil ilmiy yo'nalishlar shakllana boshladi. 1869-yildan "O'rta Osiyo olimlari jamiyati" faoliyat ko'rsata boshladi. Uning a'zolari Turkiston o'lkasini o'rganib, bu borada ko'plab asarlar yaratgan shaxslar edi. Jamiyat majlislarida tarix, etnografiya, arxeologiya, jo'g'rofiya, iqtisodyot, geologiya va h.k.lar bo'yicha ma'ruzalar va axborotlar tinglangan. Jamiyat o'lkada muzey tashkil etish, ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha lug'atlar, o'zbek va fors tillarini o'rganish uchun darsliklarni tayyorlash bo'yicha faoliyat ko'rsatgan. 1872-yilda mazkur jamiyat tugatildi.

O'rta Osiyoda birinchi muzeyning rasmiy ochilishi 1876-yil 12-iyulda bo'lib o'tdi. 1877-yil yanvar oyida etnografiya, texnik ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, tarix va arxeologiyaga oid 1500 dan ortiq turli xil buyumlar, 800 ta qadimiy tangalar va medallar mavjud edi.

1880-yilda muzeyning nizomi ishlab chiqildi va tasdiqlandi, unda uning maqsadi, vazifalari va ishning mohiyati aniqlandi.

Muzeyda to‘rtta bo‘lim mavjud edi: texnika, etnografiya, tarix, arxeologiya va numizmatika hamda qishloq xo‘jaligi.

Muzeyni boshqarish besh kishidan iborat kuzatuv qo‘mitasiga topshirildi. Muzey rahbari unga bo‘ysungan. Muzey ekspozitsiyasi “jamoatchilikni Markaziy Osiyo asarlari bilan tanishtirish va olimlar o‘z sohasida to‘plangan materiallarni o‘rganishlari uchun” ochilgan.

Nizomning ushbu bandi juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, muzeyning ilmiy va ta’lim muassasasi sifatida qo‘shinini ta’kidladi, ammo muzey hali bu talabga javob bermadi, chunki unda asosan tarqoq kolleksiyalar namoyish etildi. Umuman olganda, Turkiston muzeyi faoliyatining birinchi davri (1876-1880) ancha samarali bo‘lgan. Muzey fondlari numizmatika, etnografiya, geologiya va boshqalarga oid turli xil to‘plamlar bilan boyitildi.

1900-yilda muzey ekspozitsiyasiga 5400 kishi, 1913-yilda 35 ming, 1916-yilda 370 ming kishi tashrif buyurgan, bu vaqtda muzey har kuni ishlamagan.

Toshkent muzeyining muvaffaqiyati viloyatning boshqa shaharlarida ham muzeylar tashkil etishga hissa qo‘shdi. Ularning eksponatlari turli xil ko‘rgazmalarda namoyish etilgan. Shunday qilib, 1890-yilda Toshkent muzeyi eksponatlari Turkiston qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasida namoyish etildi. 1900-yilda o‘tkazilgan xalqaro Parij ko‘rgazmasi uchun muzey mahalliy aholining kiyim-kechaklari va kundalik hayoti buyumlari, milliy asboblar, charm buyumlar, shisha, metall, arxeologik va tabiiy tarix bo‘limlarini yubordi. Katta etnografik to‘plam 1906-yilda Milan ko‘rgazmasiga va boshqa joylarga yuborilgan.

Turkiston xalqlari tarixini o‘rganish sohasida ham katta ilmiy ishlar olib borildi. Turkiston Markaziy Komiteta huzuridagi partiya tarixi instituti mahalliy inqilobiy harakatlar tarixi materiallarni to‘plashga kirishdi. O‘zbekistonning o‘tmishdagi eng boy yodgorliklarini saqlash va o‘rganish to‘g‘risida 1918-yilda qadimiy me’moriy yodgorliklarni muhofaza qilish va ta’mirlash bo‘yicha komissiya tuzilgan. 1920-yilda Muzeylar va yodgorliklarni muhofaza qilish komiteti (Turkkomstaris) o‘z ishini boshladi.

1918-yildagi Oktyabr inqilobidan keyin muzey Turkiston xalq universiteti tasarrufiga o‘tkazilib, mustaqil muassasa sifatida ajralib chiqdi.

Muzey fondlarini muntazam ravishda to‘ldirish uning ekspozitsiyasini 12 dan 18 xonaga qadar kengaytirishga imkon berdi; 1923-yilda bu yerda 30 mingdan ortiq buyumlar namoyish etilgan.1924-yilga kelib Markaziy O‘rta Osiyo muzeyi Turkiston o‘lkasini va unga qo‘shni mamlakatlarni o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib boradigan va ish olib boradigan nufuzli ilmiy muassasa, ittifoq ahamiyatiga ega bo‘lgan yirik muzeyga aylandi. Muzeyda maxsus ilmiy kutubxona ishlay boshlaydi, ilmiy arxiv va musiqa kutubxonasi yaratildi. Ittifoq davridagi Fanlar akademiyasi va xorijiy o‘lkashunoslik markazlari bilan aloqalar o‘rnatildi.1930-yilda muzeylar tarmog‘ini soddalashtirish, ularning faoliyatidagi parallellikni yo‘q qilish, yodgorliklarni bir joyga to‘plash, ilmiy kuchlarni birlashtirish va ularning ish samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston ittifoq davridagi hukumati Toshkent muzeylarini qayta tashkil etdi. Ular Markaziy Osiyo ahamiyatiga ega ikkita yirik muzeyga birlashtirildi.

Muzey 1933-yilda Fanlar qo‘mitasiga o‘tkazildi. Muzeylarning belgilanishini ular amalda bajargan vazifalariga muvofiqlashtirish uchun 1933-yil 3-aprelda Markaziy (b) O‘z Markaziy Qo‘mitasi Kotibiyati barcha muzeylarga qat’iy respublika xarakterini berishni nazarda tutuvchi qaror chiqardi. Xalq ta’limi komissariati budjetidan moliyalashtiriladi.

1940-yil boshida O‘zbekiston tarixi va inqilob tarixi muzeyi O‘zbekiston ittifoq davridagi Markaziy muzeyiga aylantirildi va shu-yilning noyabrida uning ekspozitsiyasi yangilandi.

Ikkinchi jahon urushi respublika muzey tarmog‘i vaqtincha qisqartirilib, ularning binolari evakuatsiya qilingan muassasalarga berildi. 1941-yil noyabrda oyida Sana’t muzeyi, Alisher Navoiy muzeyi, Tarix muzeyiga, Politexnika muzeyi esa Tabiat muzeyiga birlashtirildi. O‘zbekistonda mavjud 17ta muzeydan 6 tasi yopildi. Tarix, madaniyat va sana’t muzeyida doimiy ko‘rgazma sifatida “Ulug‘ Vatan urushi” stendi yaratildi. Undagi eksponatlar frontdagi hayot-mamot janglari, o‘zbekistonlik jangchilar jasorati, front orqasidagi fidokorona mehnat, shimoliy Toshkent kanali qurilishidagi matonat haqida hikoya qiluvchi eksponatlar, suratlar, hujjatlar, front gazetalari, mukofotlar, qahramonlarning shaxsiy buyumlari stenddan keng o‘rin oldi.

1942-yilning birinchi yarmida allaqachon O‘zbekiston xalqlari tarixi, Ulug‘ Vatan urushi, sovet askarlari va front orti ishchilari qahramonligiga bag‘ishlangan zallar ochildi.

1943-yilda ittifoq davridagi O‘zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil etilishi bilan muzey ilmiy muassasa sifatida uning tarkibiga kirdi.

Ulug‘ Vatan urushi g‘alaba qozonganidan so‘ng, mamlakatimizda muzey ishlari yanada rivojlandi. ittifoq davridagi O‘zbekiston tarixi muzeyi faoliyati ham tobora faollashdi. Muzey xodimlari maxsus va murakkab ekspeditsiyalarda faol ishtirok etib, muzey fondlari va ekspozitsiyalarini to‘ldirgan yangi qimmatbaho materiallarni ochib berishdi. 1953-yildan boshlab, Sovet Ittifoqida, birinchi navbatda, sanoat korxonalari va kolxozlar mahsulotlarini o‘rganish asosida mablag‘larni rejali sotib olish yo‘lga qo‘yildi. 1967-yilda O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi “Mamlakatning eng yaxshi muzeyi” unvoniga sazovor bo‘ldi. 1969-yilda O‘zbekiston tarixi muzeyiga o‘zbek yozuvchisi, akademik M.T. Oybek nomi berilgan.

Muzeyning yuz-yilligi, ya’ni 1976-yilga kelganda uning saviyasi ancha o‘sgan edi, agar u XIX asrning 80-yillarida 3 ming eksponatni va 100 m² maydonni egallagan bo‘lsa, endi muzey 6000 m³ hududda joylashgan va 200 mingdan ortiq O‘zbekiston xalqlarining moddiy va ma’naviy madaniyati yodgorliklariga ega. 1901-yilda unga 5400 kishi, 1975-yilda esa 400 mingdan ziyod odam tashrif buyurgan. Muzey va uning filiallarida 33 nafar ilmiy xodim ishlaydi, shulardan 10 dan ortig‘i fan nomzodlari bo‘lgan.

1976-yilda muzey mehnatkashlarni kommunistik tarbiyalashdagi xizmatlari uchun va uning tashkil etilganligining 100-yilligi munosabati bilan “Faxriy yorliq” ordeni bilan taqdirlandi.

1980-yilda Abu Ali Ibn Sino tavalludini nishonlash borasida O‘zbekiston ittifoq davridagi Fanlar akademiyasining M.T. Oybek nomidagi O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyi xodimlari Respublika olimlari qatorida qizg‘in faoliyat ko‘rsatdi. Birinchi navbatda IX-XI asrlarga oid ekspozitsiyalari qayta ko‘rib chiqildi. Ekskurtsiyaga kelgan tomoshabinlar Ibn Sino yashagan davr va olimlar ijodiga oid keng tasavvur olishlari mumkin edi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining V.I. Lenin markaziy muzeyining Toshkent filialini va Oybek nomidagi O‘zbekiston xalqlar tarixi muzeyini tugatib, ularning negizida 1992-yildan boshlab O‘zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi O‘zbekiston tarixi muzeyini tashkil etildi. Qarorga ko‘ra O‘zbekiston tarixi muzeyi ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 5-avgustdagi “O‘zbekiston tarixi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi 402-son Qaroriga binoan Fanlar akademiyasining O‘zbekiston tarixi muzeyiga Davlat muzeyi maqomi berildi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining ilmiy va ilmiy-tashkiliy faoliyati quyidagilardan iborat:

– tarixiy, madaniy, ma’rifiy fanlarning ustivor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-amaliy

tadqiqotlar olib borish;

– kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi to‘g‘risidagi ilmiy bilimlarning dastlabki (birlamchi) manbalari bo‘lgan moddiy madaniyat, tarixiy yodgorliklarni to‘plash, butlash (qayta ta’mirlash), ularni ilmiy asosda o‘rganishda jahon fani yutuqlaridan foydalanish, umumlashtirish, amaliyotga tadbiq etishga ko‘maklashish, kollektsiyalar hisobini olib borish, saqlanishini ta’minlash, ilmiy sharh berish, ularni amaldagi mavjud yo‘riqnomalar va uslubiy qo‘llanmalar talabiga muvofiq hujjatlashtirishni ta’minlash;

– qadimiy tarixiy yodgorliklarni qidirish, to‘plash va ularni o‘rganish maqsadida boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda ekspeditsiyalar tashkil etish va ularda qatnashish;

– o‘zbek davlatchiligi tarixini, taraqqiyot yo‘lini, jahon fani va madaniyatiga qo‘shgan ulkan hissasini ko‘rsatib beradigan asl hujjatlar, qo‘lyozmalar, moddiy-ma’naviy yodgorliklar va topilmalar asosida doimiy, vaqtinchalik va ko‘rgazmalar tashkil etish;

– muzey zahira va ekspozitsiya zallarini arxeologik, etnografik ekspeditsiyalarda to‘plangan ashyolar, keng xalq ommasi qo‘lidagi va muassasalardagi xalqimiz tarixiga oid yodgorliklar, osori atiqa buyumlar hisobiga boyitish;

– muzeyning istiqbolli mavzu – ekspozitsion rejalari, bezatish loyihalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish;

– viloyat, tuman va boshqa muzeylarga muzeyshunoslik masalalarida amaliy yordam ko‘rsatish;

– xorijiy mamlakatlar ilmiy muassasa va muzeylari bilan hamkorlik qilishning turli shakllarini yo‘lga qo‘yish, ish tajribasini o‘rganish uchun xodimlarni xorijiy mamlakatlarga yuborish va ularning xodimlarini qabul qilish.

O‘zbekiston Prezidenti 2017-yil 7-fevral kungi farmoni bilan 2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqladi. Strategiya loyihasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o‘rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo‘yicha ishlab chiqildi.

2017-yil 11-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2017-2027-yillarda Davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha komleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori tasdiqlandi. Mazkur Qarorda O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi binosi yangi qurilish lozim bo‘lgan binolar ro‘yxatiga kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 8-noyabrdagi “Adiblar xiyobonida atoqli so‘z san’atkorlari va jamoat arboblari xotiralariga bag‘ishlab yodgorlik majmualarini o‘rnatish hamda “Toshkent muzeyi” faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 905-sonli Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi filiali “Toshkent muzeyi” tashkil etilgan.

Quyidagilar “Toshkent muzeyi”ning asosiy vazifalaridir:

– Toshkent tarixi, arxeologiyasi va etnografiyasi hamda muzeyshunoslik yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish;

– Toshkent vohasidagi qadimiy tarixiy yodgorliklarni izlab topish, to‘plash va ularni o‘rganish maqsadida boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda ekspeditsiyalar tashkil etish;

– muzey ko‘rgazma zallaridagi eksponatlar orqali xalqni tarix bunyodkori va moddiy-ma’naviy boyliklarni yaratuvchi sifatida ko‘rsatish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixni yoritish;

– respublika ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda muzeyda ochiq darslar, ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari, talabalarning malakaviy amaliyot o‘tashini ta’minlash;

– kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xodimlar tarkibini iste’dodli olimlar, yosh ilmiy kuchlar bilan doimo to‘ldirib borish.

2020-yil 26-mayda yuqoridagi vazifalarni samarali amalga oshirish, madaniyat va sana’t sohasidagi islohotlarni jadal davom ettirish, madaniyat organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish, shuningdek, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e’lon qilindi.

Farmonga muvofiq O‘zbekiston tarixi davlat muzeyiga – madaniyat va tarix sohasidagi barcha muzeylar faoliyatini ilmiy-tadqiqot va metodik jihatdan muvofiqlashtirish, ularning ushbu yo‘nalishlardagi o‘zaro hamkorligini ta’minlash, kadrlarning ilmiy salohiyatini oshirish vazifasi yuklandi. Bundan tashqari 2021-yil 1-yanvarga qadar O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida muzeyshunoslik, sana’tshunoslik, madaniyatshunoslik yo‘nalishlarida qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ixtisoslashtirilgan ilmiy kengashlar va ilmiy-metodik kengashlar tashkil etish belgilab qo‘yilgan edi.

Shunga binoan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi huzurida tarix fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash tuzildi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi Ilmiy Kengashi tarkibi tasdiqlandi. Hozirgi kunga qadar muzey huzuridagi Ilmiy kengashda 10 ga yaqin tadqiqotchi tarix fanlari doktori (DSc) va tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Muzey Fanlar akademiyasi tarkibidagi ilmiy-tadqiqot muassasi bo‘lib, muzeyshunoslik sohasida O‘zbekiston muzeylari uchun tayanch muassasadir. Muzey xodimlari respublika miqyosidagi ilmiy loyihalarni bajaradi, shuningdek, ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy va targ‘ibot ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: ‘‘G‘afur G‘ulom’’ nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 71 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va sana’t sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 21-apreldagi “O‘zbekiston tarixi muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi 203-son Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 5-avgustdagi “O‘zbekiston tarixi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi 402-son Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi “2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha komleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 975-son Qarori.

K.R. MAMADALIEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b.

O‘QUV FANINING O‘QUV-METODIK MAJMUASINI LOYIHALASHTIRISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH
(INFORMATIKA O‘QITISH JARAYONINI LOYIHALASH)

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagogika ta’lim yo‘nalishlari yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratishda o‘quv jarayoni loyilarini tuzish, loyiha tuzishda qo‘yiladigan talab va vazifalar, ularni ta’lim sifat-samaradorligini oshirishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, “O‘quv jarayonini loyihalash” turkumidagi fanlar fan dasturi va o‘quv adabiyotlarini yaratishda metodologik asos sifatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Yangi avlod o‘quv adabiyotlari, fan dasturi, loyihalash, modul, pedagogik texnologiya, ierarxiya pog‘ona.

В данной статье рассматриваются образовательные направления педагогики составление проектов учебного процесса при создании учебной литературы нового поколения, требования и задачи, предъявляемые при составлении проекта, их роль в повышении качества и эффективности образования. Также раскрываются качества методической основы при создании предметной программы и учебной литературы по дисциплинам серии “проектирование учебного процесса”.

Ключевые слова. Учебная литература нового поколения, предметная программа, дизайн, модуль, педагогическая технология, иерархия шаг.

This article examines the educational directions of pedagogy, drafting the educational process when creating a new generation of educational literature, the requirements and tasks imposed when drafting, their role in improving the quality and effectiveness of education. The qualities of the methodological basis for the creation of the subject program and educational literature on the disciplines of the series “designing the educational process” are also revealed.

Key words. New generation educational literature, subject program, design, module, pedagogical technology, step hierarchy.

O‘zbekistonda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da Davlat ta’lim standarti talablarini har bir o‘quv faniga alohida-alohida belgilab berilganligi tufayli, o‘quv mashg‘ulotini loyihalash jarayonida bu metodologik asosga dasturilamal sifatida tayanildi.

“Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv fani nazariy va amaliy mashg‘ulotlari loyihalari muayyan yoki boshqa istalgan o‘quv predmetining nazariy va amaliy mashg‘ulotlar loyihalarini tuzish uchun, mazkur uslubiy tavsiyanomada ko‘rsatilgan algoritm bo‘yicha uch turdagi vazifalar bajarilishi shart bo‘lib, bu vazifalarni quyidagicha amalga oshirdik:

Birinchi vazifa. “Informatika **o‘qitish jarayonini loyihalash”** o‘quv fanining **umumiy jadvallarini** tuzish. Buning uchun:

Birinchi navbatda, “Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv fanini o‘zaro uzviy bog‘liq qismlardan tashkil topgan yahlitlik sifatida tasavvur etib, uni “Eng katta” modul (eng yuqori ierarxiya pog‘ona) deb qabul qilindi va shu o‘quv predmetining umumiy maqsadi belgilandi.

“Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv fani – eng katta modulning umumiy maqsadidir.

Informatika o‘qitish metodikasi bo‘yicha pedagogik faoliyatni o‘ziga kasb qilganlarni uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘quv predmetlarining nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini olib borish usulining zamonaviysi bo‘lgan pedagogik texnologiyaning hududimizga mos milliy modeli bilimlari bilan qurollantirib, uning mazmun va mohiyatini “Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv predmetini o‘qitish jarayoniga tatbiq qilishni, shu asosda o‘quv mashg‘ulotlari loyihalarini tuzish va uni informatika turkumiga kiruvchi fanlar o‘quv mashg‘ulotlari loyihalarini tuzishga qo‘llash bo‘yicha bilimlarni ularning ko‘nikmasiga aylantirish va shular asosida talabalarda informatika turkumiga kiruvchi fanlar o‘quv mashg‘ulotlari loyihalarini tuzish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Ikkinchi navbatda, o‘quv fani ichidagi bilimlarning mantiqiy bog‘liqligi va fikrning tugallanganligini inobatga olib, uning ichidagi o‘quv materialini bir necha “Katta” modullar (yuqori ierarxiya pog‘ona)ga ajratildi va ularning ham maqsadlari aniqlandi

1-jadval

“Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv fani ichidagi katta modullar va ularning yakunida erishiladigan maqsadlar

Katta modullar nomi	Katta modullar yakunida erishiladigan maqsadlar
Informatika turkumiga kiruvchi fanlar o‘quv jarayonini loyihalashda pedagogik texnologiyaning o‘rni, pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslangan ta’rifi	“Informatika o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishining yangilangan klassifikatorga kiritilishining zarurligini, informatika turkumiga kiruvchi fanlar o‘quv jarayonini loyihalashda pedagogik texnologiyaning o‘rni va ahamiyatini, informatika o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishning ijtimoiy zaruriyati va informatika o‘quv jarayonini loyihalash asosi bo‘lgan pedagogik texnologiyani ta’lim amaliyotiga joriy etishning dolzarbligi hamda unga yuklatilgan vazifalarni talabalarga tushuntirish. Shuningdek, yer yuzida mavjud yetakchi didaktik tizimlar tahlili asosida pedagogik texnologiya usulining yaratilishi ijtimoiy zaruriyat ekanligi ularning ongiga yetkazish va ular tafakkurida pedagogik texnologiyaning shakllanish tarixi hamda ilmiy asoslangan ta’rifi to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirish va “Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv faniga tadbiqini ularning ko‘nikmalariga aylantirish
Pedagogik texnologiya, uning tarkibiy qismi bo‘lgan informatika o‘qitish jarayonini loyihalashning metodologik asoslari	Talabalarda, informatika ta’limini modernizatsiya qilish masalasining dolzarbligini, atrof olamdagi har qanday narsa va hodisalarni bir butunlik − sistema(majmua)lar sifatida ko‘rib, ularni tashkil qiluvchi va o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan unsurlarini ham, o‘zidan bir pog‘ona pastda bo‘lgan «Sistema»lar deb, idrok qilish ko‘nikmasini hosil qildirish va ta’lim-tarbiya sohasida «Sistemali yondashuv» tamoyilini qo‘llashga o‘rgatish va informatika ta’lim-tarbiya sohasida sistemali yondashuv tamoyili asosida o‘qitish jarayonini loyihalashni ularning ko‘nikmasiga aylantirish
Pedagogik texnologiya va uning tamoyillari asosida informatika o‘quv jarayonini loyihalashning nazariy asoslari	Talabalarda pedagogika ilmining tadqiqod obyekti, predmeti, maqsadi va yechilishi shart bo‘lgan masalalari, informatika sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagogikaning faoliyat turlari, “Informatika o‘quv jarayonini loyihalash” fani obyekti, predmeti, maqsad va vazifalarini, informatika turkumiga kiruvchi fanlar o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalarini tuzishda pedagog-o‘qituvchilarning vazifalarni tushuntirish, ularda, informatika turkumiga kiruvchi fanlarning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarining loyihasini tuzishga, o‘quv mashg‘ulotini ssenariysini yozish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

“Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyaning o‘rni va ahamiyati	Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida “Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” fanini o‘qitish mazmun va mohiyatini bo‘yicha bilimlarni talabalarning ko‘nikma va malakasiga aylantirish, shu asosda informatika turkumiga kiruvchi fanlar o‘quv mashg‘ulotlari loyihalarini tuzishdagi o‘rnini ko‘rsatib berish.
Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida “Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” fanini o‘quv mashg‘ulotlar loyihasini tuzish	Talabalarga, o‘quv predmetining materialini ierarxiya pog‘onali modullarga ajratib, maqsadlarini belgilashga va har bir kichik modul ichidagi tayanch tushunchalarni aniqlashga hamda nazorat savollarini tuzishga, shuningdek, har bir kichik modulda qo‘llaniladigan dars turi, tipi, pedagogik usullar, axborot texnologiya va didaktik materiallarning qo‘llanishini o‘rgatish hamda pedagogik texnologiya tamoyillari asosida “Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” fanini o‘quv mashg‘ulotlar loyihasini tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish.
Informatika turkumiga kiruvchi fanlar o‘quv mashg‘ulotlari loyihalarini tuzish modelini ishlab chiqish	“Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” fanini o‘quv mashg‘ulotlar loyihalarini andoza sifatida ko‘rib, pedagogik texnologiya tamoyillari asosida informatika turkumiga kiruvchi fanlar o‘quv mashg‘ulotlari loyihalarini tuzish modelini ishlab chiqishni o‘rgatish va uni ta’lim jarayoniga qo‘llash bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Uchinchi navbatda, har bir “Katta” modul ichidan mantiqan bog‘langan, shu bilan birgalikda bir juft soatda talabalarga yetkazilishi lozim bo‘lgan bilimlar majmularini «O‘rta» (o‘rta ierarxiya pog‘ona) modullarini ajratib, ularning ham maqsadlari belgilandi **(2-jadval).**

2-jadval

“Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv fani birinchi katta modullari va ularning tarkibidagi o‘rta modullar hamda ularning yakunida erishiladigan maqsadlar

Birinchi katta modulning nomi	**O‘rta modullar, ularning tartib raqamlari bilan mashg‘ulot turi va mavzuning nomi**	**O‘rta modullar yakunida erishiladigan maqsadlar**
Informatika turkumiga kiruvchi fanlar o‘quv jarayonini loyihalashda pedagogik texnologiyaning o‘rni, pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslangan ta’rifi	**1.1. Nazariy mashg‘ulot** Informatika o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishning zarurligi va pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslangan ta’rifi	Informatika turkumiga kiruvchi fanlar o‘quv jarayonini loyihalashda pedagogik texnologiyaning o‘rni va ahamiyatini, informatika o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishning ijtimoiy zaruriyati va informatika o‘quv jarayonini loyihalash asosi bo‘lgan pedagogik texnologiyani ta’lim amaliyotiga joriy etishning dolzarbligi hamda unga yuklatilgan vazifalarni, yer yuzidagi asosiy didaktik tizimlarni tahlil qilib berib, pedagogik texnologiya usulini paydo bo‘lish shart-sharoitlari va uni yaratilishining qonuniy tarzda zarur ekanligini, talabalar tafakkurlariga yetkazish va uning o‘qitish jarayonini loyihalashdagi o‘rnini ularga tushuntirib berish.
	1.2. Amaliy mashg‘ulot Yer yuzidagi asosiy didaktik tizimlar va pedagogik texnologiyaning yaratilish shart-sharoitlari	Talabalarning avvalgi nazariy mashg‘ulot davomida olgan bilimlarini, o‘zlariga ayttirish yo‘li bilan, bu bilimlarga nisbatan ularda ko‘nikma hosil qildirish.

	1.3. Nazariy mashg‘ulot Pedagogik texnologiyaning yuzaga kelish tarixi va ularning ilmiy asoslangan ta’rifi, ularning “Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv faniga tadbiqi	Pedagogik texnologiya paydo bo‘lishidan avvalgi an’anaviy usullar va yangi usullarni yaratish yo‘lidagi urinishlar hamda ularning natijasida pedagogik texnologiya paydo bo‘lganligi to‘g‘risidagi bilimlarni va pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslangan ta’rifini, talim oluvchilar ongiga yetkazish va “Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv faniga tadbiqini ularga o‘rgatish.
	1.4. Amaliy mashg‘ulot Pedagogik texnologiyaning yaratilish tarixi va ilmiy asoslangan ta’rifi va ularning “Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv predmetiga tadbiqi	Avvalgi nazariy mashg‘ulot davomida egallangan bilimlarni talim oluvchilardan takroran so‘rab, bu bilimlarni ularning ko‘nikmalariga aylantirish va “Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv faniga tadbiqi bo‘yicha bilimlarni ularga o‘rgatish va malakalarini shakllantirish.

Izoh. *Hisobot sahifalarini ixchamlashtirish maqsadida, faqat birinchi katta modul va uning tarkibiga kiruvchi o‘rta modullar va uning kichik modullarini keltirdik.*

Shuningdek, O‘zbekistonda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda Respublika Prezidentining yosh avlod fazilatlariga qo‘yayotgan talablarini inobatga olib, buyuk mutafakkirlarni inson ijtimoiy sifatlariga qo‘ygan mezonlar tizimidan “O‘quv jarayonini loyihalash” turkumidagi fanlar fan dasturi va o‘quv adabiyotlarini yaratishda metodologik asos sifatida foydalaniladi.

Ular quyidagilar:

Aqlli va bilimli. Mustaqil fikr yurituvchi insonni aqlli deyiladi. Aqlliliyning lug‘aviy ma’nosi – mustaqil fikr yuritmoq, bilmoq degani. Shunday ekan, kishi qanchalik ko‘p mustaqil fikr yuritib, ko‘p bilimga ega bo‘lsa, shuncha aqlli hisoblanadi.

Biroq, inson mustaqil fikr yuritmay, boshqalardan eshitganlarini, kitoblardan o‘qiganlarini hamda ustoz muallimlar aytganlarini esda saqlab qolib, olingan bilimlarga amal qilib, talay yutuqlarga erishishi mumkin. Bu holda aql yordamchi vazifani bajarib, inson ko‘p ham intellektual kuchini sarflamaydi. Bunday kishilarni aqlli deb bo‘lmaydi.

Mustaqil fikr yuritib bilim egallab, bu bilimlarni ma’lum bir tartibda o‘zida jamlab yurganlar ko‘pgina bilimga ega bo‘ladi. Ularni bilimli inson deyiladi. Chin bilimli deb, narsa va hodisalarning tom ma’no va mazmuniga tushunib yetib, ularni tashkil qiluvchi qonuniyatlarini (bilimlarini) bilib olib, o‘z tafakkuridan o‘tkazib, bu bilimlarni hayotida bir necha bor sinab ko‘rib, so‘ng ma’lum bir tartibda xotirasida saqlab, ulardan amalda foydalana oladigan kishiga nisbatan aytiladi.

Jamiyatda munosib o‘rin egallash uchun, har bir inson mustaqil fikr yuritib, bu bilimlarni tartibi bilan o‘zida jamlab, ko‘p bilimga ega bo‘lishi va bu bilimlarni amalda qo‘llay olishi lozim.

Imon va e’tiqodli. Imon – bu kishining biron-bir narsaga astoydil ishonishi. Bu ishonch Tangri taologa nisbatan bo‘ladimi yoki biron-bir shaxsgami yoxud qandaydir voqelikkami, baribir, inson shu narsa yoki hodisaga astoydil ishonsa, u o‘zida shunga nisbatan imon hosil qilgan bo‘ladi.

“E’tiqod” tushunchasi lug‘atlardagi “Ishonch”, ya’ni “Imon” tushunchasi bilan ma’nodosh sifatida ko‘rsatilgani bilan, bu sinonim so‘zlarning orasida farq bor. Imon, ishonish bo‘lsa, e’tiqod shu narsaga ishongan holda unga to‘liq amal qilishlikni bildiradi. Imonsiz e’tiqod bo‘lmaydi, imondan maqsad, ishongan narsasiga doimo amal qilishlikdir. Bunda, kishi ishonayotgan narsasiga rostdan ishonishini amaliy harakatlar bilan tasdiqlaydi, natijada unda shu narsaga imon barobarida e’tiqod ham hosil bo‘ladi.

Barcha muqaddas kitoblarda ishongan narsasiga doimo amal (e'tiqod) qilishlikka e'tibor berilgan. Demak, imon va e'tiqod degani, biron narsaga chin dildan ishonish va unga doimo amal qilib yurishlikdir.

O'z yurtining munosib farzandi, zamon talabiga to'liq javob beruvchi inson bo'lish uchun, albatta, mustaqil fikr yuritib bilimli, imonli va e'tiqodli bo'lishni talab etiladi.

Mehr va muhabbat – insonni tabitda mavjud bo'lib, uni zavqlantirgan narsasiga mayl qo'yishidir. Insonning mehri dunyodagi har qanday narsa yoki hodisaga tushishi mumkin. Kishining nazari tushib uni zavqlantirgan biron-bir narsa yoki hodisani beixtiyor yana ko'rgisi, uni his qilgisi kelib, unga intilsa, demak uning shu narsa yoki hodisaga mehri tushgan hisoblanadi. Mehrning yuqori darajasi muhabbatdir.

Sinov uchun, bu o'tkinchi dunyoga kelgan har qanday kishi, o'z ruhini pok tutib, mustaqil fikr yuritish orqali bilim hazinasiga, imon va e'tiqodga hamda muhabbat egasi bo'lishi lozim. Aks holda, bu dunyodan savoblar to'plab ketish o'rniga gunohlar orttirib ketadi.

Ahloq va odobli. "Ahloq" va "Odob" tushunchalari mazmunan biri-biriga yaqin bo'lib, jamiyatda e'tirof etilgan xulq normasiga imon keltirib, ularga e'tiqod qilishlikni bildiradi. Ahloq va odob – kishining jamiyat orasida o'zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yo'sinda muomala qilishi, o'z turmushi, bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, tashqi qiyofasi qanday bo'lishi lozimligiga tegishli qoidalarni o'z ichiga oladi. Ahloq va odob qoidalariga – to'g'ri so'zlik, sharm-hayo, dilbarlik, kamtarlik, xushmuomalalik, ozoda va saromjonlik hamda boshqa ko'pgina ijobiy ijtimoiy sifatlar kiradi. Axloq va odob ta'lim-tarbiya va amaliy tajriba jarayonida shakllanadi hamda rivoj topadi.

Axloq va odob muayyan jamiyat va davr talabidan kelib chiqib o'zgarishlarga uchrashi, taraqqiy etishi yoki so'nishi mumkin. Har bir xalqning yoki millatning o'ziga xos axloqi bilan birga, umumbashariy odob me'yorlari ham bor. Bunday odob me'yorlari jamiyatning umumiy rivojiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo xalqlari odobshunoslik sohasida boy merosga ega. Axloq va odobga oid fikrlar Quroni karim va Hadisi sharif, "Avesto" kitobi, qadimgi turk bitiklari va boshqa yozma manbalarda o'z ifodasini topgan. Bulardan tashqari o'rta asr va zamonaviy yozuvchi va shoirlar asarlarida hamda pandnoma va o'gitlar, odobnomalarda, xalq pedagogikasida, diniy-falsafiy risolalarda axloq va odob masalasiga keng o'rin berilgan.

So'zsiz, mustaqil fikr yurituvchi imon va e'tiqodli, dili muhabbatga to'la, ibratli ahloq va odobga ega inson baxt degan ne'matga erishgan bo'ladi.

Mulkiy munosabatga ega. Yosh avlodda mulkka bo'lgan to'g'ri munosabatni shakllantirish uchun, bu ishni amalga oshirmoqchi bo'lgan kishilar, avvalo, "Mulk", "Mulk shakllari" va ulardan kelib chiqadigan "Mulkiy munosabatlar", "Mulkni xususiylashtirish", "Mulkdor", "Mulkiy jinoyatlar", "Mulkiy zarar", "Mulkni xatlash" kabi tushunchalar to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lib, bu bilimlarni yosh avlodga yetkazishlari lozim.

Mulk **–** moddiy va ma'naviy ne'matlarning alohida olingan kishilar yoki yuridik shaxslar egaligida bo'lishidir. Mulk obyekti yer, suv, yer osti boyliklari, korxona, bino, inshoatlar, mashina va uskunalar, tayyor mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar, san'at va adabiyot asarlari, ilmiy va texnikaviy ishlanmalar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Moddiy va ma'naviy ne'matlarni amalda o'zlashtiruvchilar, ya'ni egalari, mulk subyektlari hisoblanadi. Bularga ayrim kishilar, oilalar, jamoalar va nihoyat davlat kiradi.

Mulkdan amalda foydalanib, bundan naf ko'rish mulkni tasarruf qilish hisoblanadi. Bunday tushunchalarni bilib olib, ulardan hayotda to'g'ri foydalanadigan insonni mulkiy

munosabatga ega kishi deyiladi.

Yosh avlodda mulkiy munosabatni to‘g‘ri shakllantirish, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlashlikka, kishilar orasidagi iqtisodiy munosabatlarni to‘g‘ri olib borishlikka, jamiyatda obod va farovon hayotni barpo bo‘lishiga hizmat qiladi.

Mehnatsevar va shijoatli. Insonning o‘ziga va jamiyatga foyda keltiruvchi maqsadga muvofiq harakati, mehnat deyilishini hamma biladi. Mehnat, kishilik hayotining asosiy sharti, chunki u tufayli insoniyatning yashashi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratiladi. Mehnat orqali inson tabiatdagi narsalarni o‘ziga moslashtirib o‘zgartiribgina qolmay, balki o‘zi ham barkamollashib boradi, uning aqliy va jismoniy qobiliyatlari o‘sadi. Shuning uchun ham yoshlarda mehnatsevarlik fazilatini shakllantirish zarur.

Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, intizom, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, shijoatlilik singari ijtimoiy sifatlarni shakllantirishga hizmat qiladi.

Mehnat tarbiyasi falsafiy-pedagogik tushuncha bo‘lib, “Mehnat ta’limi”, “Kasbga yo‘naltirish”, “Politexnik ta’lim” singari tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Bolalarga mehnat tarbiyasini berishda bog‘cha, maktab, kollej, akademik litsey hamda oliy o‘quv yurti kabi ijtimoiy pedagogik muassasalar katta o‘rin tutadi.

Huquqiy va ekologik madaniyat. Hozirgi davrda o‘sib kelayotgan avlodning huquqiy va ekologik madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotida muhim. Shuning uchun ham O‘zbekistonda “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” qabul qilingan.

Ushbu dasturda ta’kidlanganidek, yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda davlat huquqiy tizimini yetukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli hayotiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatuvchi fuqarolar, barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko‘maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda botartibligini ta’minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish, huquqiy demokratik jamiyatning siyosiy va huquqiy tizimlarining samarali faoliyat ko‘rsatishining asosiy talablaridlan biri hisoblanadi.

Ekomajmular hayotiga insonning haddan ziyod aralashuvi, bu sistemadagi muvozanatning buzulishiga va ekologik muammolarni kelib chiqishiga olib keladi. Tabiiy ekomajmular buzilish jarayonida shu majmuning unsuri va biosferaning tarkibiy qismi bo‘lgan inson ham jabr ko‘radi.

Yoshlarimiz tarbiyasida, biz uchun birinchi bo‘lgan masala, bu yosh avlodni ekologik madaniyatini shakllantirish va ekologik faol kishilarga aylantirish. Ekologik faol kishilar deganda, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha qabul qilingan qonunlarni bilib olib, ularga doimo amal qilib yurishlik hamda bu qonunlar buzulgan joyda, bu hodisaga murosasiz bo‘lishlik tushuniladi.

Sog‘lom va ezgu niyatli. Sog‘liq, inson ijtimoiy mohiyatining ajralmas qismi bo‘lib, uning ijobiy ijtimoiy sifatlaridan, ya’ni fazilatlaridan biridir. Mutlaqo sog‘ kishi deb, ham jismonan, ham ruhiy, ham aqliy jihatdan salomat bo‘lgan kishiga nisbatan aytiladi. Demakki, chin salomat odamning ruhi baqquvat, aqli raso, tanasi esa yaxshi rivojlangan bo‘lishi shart.

Aql tarbiyasi bilim egallash bilan amalga oshirilishi munosabati bilan, inson doimo bilim olish jarayonida bo‘lmog‘i lozim. Bu ishda hal qiluvchi rolni inson o‘ynaydi. Hech qanday ota-ona, yoru birodar hamda o‘qituvchi va murabbiylar, kishi miyasini “Yorib”, aqlini charhlab, ichiga bilim solib qo‘ymaydi. Bu ishni faqat inson o‘zi bajaradi, qolgan barcha odamlar unga yo‘l ko‘rsatishi va bilim egallashi uchun yordam berishi mumkin xolos. Aqlini rivojlantirib borish, yuksak bilim va malakalarga ega bo‘lish faqat kishining

o‘ziga, sa’i-harakatiga bog‘liq.

Ruhiy salomatlik, kishining hayot-momotida yetakchi o‘rin egallaydi. Ruhiy salomat deganda, kishining qilgan niyatlari va oldiga qo‘ygan maqsadlari tushuniladi. Ruhiy salomat bo‘lishlik uchun, har bir ishni boshlashdan oldin, to‘g‘ri niyat qilish talab etiladi. To‘g‘ri niyat qilish deganda, faqat ezgu niyat tushuniladi. Ezgu niyatning zaminida ta’ma yotmaydi. Falon ishni qilsam boyib ketardim yoki shu ishni qilsam menga ancha foyda bo‘lardi kabi niyatlar ta’magarlik hisoblanadi. Muayyan ishni qilsam xalqqa yordamim tegar edi yoki bu ishimdan falonchiga katta naf tegar edi deyishlik ezgu niyat hisoblanadi. Afsuski, ko‘p kishilar faqat o‘zini foydasini ko‘zlab niyat qiladi. Bunday niyatlar ilohiy kuchlar tomonidan ijobat qilinmaydi. Qilingan taqdirda ham, kishiga boylik va farovonlik olib kelsada, uning tinch va baxtli hayotini kafolatlamaydi. “Undaylarga, u dunyoda ham hech qanday nasiba yo‘qdir” deyilgan Qur’oni karimda.

Milliy g‘ururga ega va vatanparvar. Yosh avlodda milliy g‘ururni shakllantirish uchun, avvalom bor, ularda insoniy g‘ururni rivojlantirish zarur. Chunki, milliy g‘urur faqat insoniy g‘urur zaminida shakllanadi va rivojlanadi.

Insoniy g‘urur kishida yoshligidan o‘z-o‘zidan shakllana boshlaydi, faqat uni so‘ndirmaslik kerak. Bolani mustaqil fikr yuritib, mustaqil ravishda biron bir ishni bajarishga o‘rgatish, undagi insoniy g‘ururni rivojlantiradi. Bolalardagi insoniy g‘ururni susaytirmasdan, ularga ko‘proq mustaqil fikr yuritishga va mustaqil ravishda ishlarni bajarishga imkon yaratish orqali, bu g‘ururni ozuqlantirib turish lozim. Ma’lum bir vaqt o‘tganidan keyin, bu insoniy g‘urur kishining ma’naviyati (hayot tarzi)ga aylanib, unda milliy g‘ururni paydo bo‘lishiga zamin tayyorlaydi.

Tolerant va insonparvar. Tolerantlikning lug‘aviy ma’nosi, sabr-toqat degan tushunchani bildiradi. Mazmunan uni bag‘rikenglik, desa ham bo‘ladi. Tolerantlik – bag‘rikenglik: o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-muloazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga toqatli bo‘lish. Hozirgi dunyoda tolerantlik o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyotning globallashuvi va yanada integrallashuvi, mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, keng miqyosli aholini ko‘chib yurishi, millatlararo nikohlar jamiyatda tolerantlik tamoyilini ahamiyatini kuchaytiradi.

Insonparovarlik – insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqligi to‘g‘risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g‘amho‘rlik qilishni ifodaydi. Insonparvarlik, odamlarga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo‘lish, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishga g‘amho‘rlik qilish demakdir. Unga ko‘ra, dunyoda qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari va jahondagi barcha insonlar haqida g‘amxo‘rlik insonparvarlikning asosiy g‘oyasidir.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. Tojiyev M., Mamadaliev K. Informatika o‘qitish jarayonini loyihalash. O‘quv qo‘llanma/ T.: “Fan va texnologiya markazining bosmaxonasi”, 2013. – 160 b.

2. Ziyomuhammadov B. Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari. T.: “Lider Press”, 2009.

3. Ziyomuhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o‘zbek milliy modeli. T.: “Lider Press”, 2009.

Kamolaxon ABRORXONOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent
Durdona ABDULLAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Boshlang‘ich ta’lim” fakulteti talabasi

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA IQTIDORLI O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim darsliklarida iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash va yo‘naltirishga oid topshiriqlar va vazifalar tahlili ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, boshlang‘ich sinflardagi sinfdan tashqari darslarning ham alohida o‘rni aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Iqtidorli o‘quvchi, tarbiiy fanlar, texnologiya, sinfdan tashqari ishlar, ijodiy yondashish, tafakkur, salohiyat, iqtidorli bola.

В данной статье будет рассмотрен анализ заданий и задач по воспитанию и ориентации одаренных учащихся в учебниках начального образования. Также упоминается особая роль внеклассных занятий в начальных классах.

Ключевые слова. Одаренный ученик, учебные дисциплины, технология, внеклассная работа, творческий подход, мышление, потенциал, одаренный ребенок.

This article will review the analysis of tasks and tasks for the education and orientation of gifted students in primary education textbooks. The special role of extracurricular activities in primary schools is also mentioned.

Key words. Gifted student, academic disciplines, technology, extracurricular activities, creativity, thinking, potential, gifted child.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, ”Jamiyatni ma’naviy jihatdan yangilamay, respublika fuqorolarining yangi avlodini tarbiyalamay, erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirmay turib, farovon, qudratli demokratik davlat, erkin fuqorolik jamiyatini barpo etib bo‘lmaydi”. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida O‘zbekistonni dunyodagi eng raqobatbardosh mamlakat qatoriga qo‘shish uchun yuqori sifatli ma’lumotga ega, sog‘lig‘i yaxshi va shu bilan bir qatorda mamlakatimiz farovonligi uchun mehnat qilayotgan yoshlarga katta ishonch bildirdi. Barchamizga ma’lumki, ta’lim va tarbiya masalasi doimo kun tartibida bo‘lgan. Hozir zamon o‘zgardi, talablar o‘zgardi. Bugungi bola ertangi mamlakat kelajagidir. Muxtasar qilib aytganda, biz bo‘lajak pedagoglarning asosiy vazifasi yuqori darajadagi bilimli va ijodkor o‘quvchilar hamda talabalarni tarbiyalash ekanligini unutmasligimiz kerak. Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi yuksak tafakkurli, dunyoqarashi keng, yetuk va raqobatdosh shaxsni shakllantirishdir.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning iqtidorini aniqlashda maktab darsliklaridan ham keng foydalansa bo‘ladi. Jumladan, tabiiy fanlar, tarbiya, texnologiya, tasviriy san’at darsliklarida bolalarni keng fikrlashga, ularning iqtidorini yo‘naltirishga, ijodiy salohiyatini aniqlashga qaratilgan topshiriq va vazifalar yetarlicha. Shuningdek, sinfdan

tashqari ishlar, ma’naviy-ma’rifiy, turli xil tadbirlar ham bolaning iqtidorini aniqlash va rivojlantirishga juda katta yordam beradi.

“Iqtidorlilikning ishchi konsepsiyasi” va “Fanlar chuqurlashtirib o‘qitiladigan sinflarda ta’limni tashkil etish texnologiyasi” ishlanmalarini tahlil etish asosida iqtidorlilikning ikkita komponentini alohida ajratib o‘rganish lozim, degan xulosaga kelindi: instrumental (ya’ni bola nimani bajara oladi?) va motivatsion (bola nimani bajarishni xohlaydi?) .

Maktab darsliklarida bolaning iqtidorini aniqlashga oid berilgan topshiriq va vazifalar barcha sinflarda bolaning yoshiga mos qilib berilgan. Ularda bolaning mustaqil fikrlashiga oid berilgan topshiriqlar boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining iqtidorini yanada rivojlantiradi.

Misol uchun 1-sinf tabiiy fanlar darsligini oladigan bo‘lsak, pomidordan nimalar tayyorlash mumkin? degan savolga duch kelamiz. Bunday topshiriqlarda bola o‘ylaydi, fikrlaydi va ijodiy yondashadi. Bu savolga bolalar turli xil javob berishadi; uyida onasi pomidordan nima tayyorlashda foydalansa, bola ko‘z oldiga o‘sha narsalarni keltiradi. Bu kabi topshiriqlar ham bolaning qaysidir ma’noda qobilyatini aniqlashga, uni rivojlantirishga katta yordam beradi. Iqtidorli o‘quvchi pomidordan ko‘proq narsalarda foydalanishni, iqtidori sustroq bolalarda esa kamroq narsalarda foylanish mumkin ekanligini aytadi. Iqtidorli o‘quvchi esa o‘zidan yangiliklar yaratib, ijodiy yondashib, fikrlab vazifani bajaradi.

1-sinf tabiiy fanlar darsligida “O‘simliklarni ekish va parvarishlash” mavzusiga keladigan bo‘lsak, bu mavzuda o‘quvchilarning dehqonchilik va bog‘bonchilikka oid iqtidori shakllanadi. ‘‘Hayvonlarning yashashi uchun nimalar zarur’’, deb nomlangan mavzuda esa, o‘quvchilarning chorvachilik qobiliyati shakllanadi.

2-sinf tabiiy fanlar darsligida “Mohira archa daraxti rasmini chizmoqchi. Lekin uning yashil bo‘yog‘i tugab qoldi. Mohiraga qanday yordam beramiz?” degan topshiriq bor. Bu topshiriqni bajarishda bola nima qilishini o‘ylaydi, fikrlaydi; qaysi rangga qaysi rangni qo‘shsam, yashil rang paydo bo‘ladi.

‘‘Hayvonlarning oziqlanishi’’ mavzusida, oziq zanjirini tuzish topshirig‘i. Bu topshiriqni o‘quvchilar amaliy tarzda bajarishadi: birinchi navbatda, ranglarni ajratib olishadi, qaysi ranga nimaning rasmi mos tushishini aniqlab olishadi, rangli qog‘ozga rasm chizishadi, qog‘ozlarni qirqib olishadi va so‘ngida qog‘oz tasmalarini yelim yordamida bir-biriga ulab, oziq zanjirini yasashadi.

Bu kabi topshiriqlarda bolalarning yasashga, ijodiy yondashishga oid bo‘lgan iqtidori shakllanadi.

Tabiiy fanlar darsligida o‘quvchilar tabiatni o‘rganadilar. Ularda tabiatga bo‘lgan qiziqish uyg‘onadi. Bu fanni o‘rganish jarayonida qaysidir o‘quvchining tabiatga bo‘lgan iqtidori ortadi.

Texnologiya fanini oladigan bo‘lsak, unda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini, ularning iqtidorini rivojlantirish uchun topshiriq va vazifalar talaygina. Turli shakllar orqali borliqni kashf etishadi.

1-sinf texnologiya darsligida berilgan “Quvnoq raqamlardan turli shakllar hosil qiling” topshirig‘ida bolalar tashqi ko‘rinishi raqamlarga o‘xshagan narsalar yasashi yoki chizishi kerak bo‘ladi. Darslikda o‘quvchilarga namuna sifatida bir raqami uchun timsoh, ikki raqami uchun to‘tiqush, uch raqami uchun esa jo‘ja rasmlari keltirilgan. O‘quvchilar bu kabi topshiriqlarda o‘z iqtidori va ijodiy salohiyatiga qarab ushbu topshiriqni bajarishadi.

Texnologiya darslari asosan o‘quvchilarni qo‘l mehnatining shakllanishiga juda katta yordam beradi. Texnologiya faniga oid nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va mala-

kalarni egallashlari, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo‘lida shaxsiy sifatlarni va tafakkurlarni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv fanidir.

Texnologiya o‘quv predmeti o‘quvchilarda texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish, dars jarayonida tabiiy, metal va metallmas materiallarga texnologiya asosoida ishlov berish usullarini o‘rgatish orqali kasb-hunarga yo‘naltirishni yanada kuchaytirish, hunarmandchilik asoslari, ishlab chiqarish va ro‘zg‘orshunoslik asoslari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi, kasb hunarga yo‘llash bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirishni ko‘zda tutgan. O‘quv predmetini o‘qitish orqali o‘quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyatini, kreativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Sinfdan tashqari ishlar ham boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining iqtidorini aniqlashga, uni yo‘naltirishga katta yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlarda o‘qituvchi o‘quvchilarga qo‘shimcha topshiriq beradi, o‘quvchi berilgan topshiriqni qay darajada bajarishi, uni qaysi usullar yordamida bajarashi orqali iqtidori aniqlanadi. Iqtidor bilan bilimni chalkashtirmasligimiz kerak. O‘quvchi berilgan topshiriqni tez va to‘g‘ri bajarsa, bu iqtidor emas bilimdir. O‘quvchi berilgan topshiriqni boshqa usullarda, yangi yo‘nalishlarda bajarsa, bu iqtidordir. Misol uchun o‘quvchilarga matematika darsidan topshiriq berildi; bitta o‘quvchi bu topshiriqni ustozi o‘rgatgandek bajarib keldi , ikkinchi o‘quvchi esa boshqa usulda tez va oson bajardi, bu ikkala o‘quvchining birinchisida bilim, ikkinchisida esa iqtidor rivojlangan.

Darsdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida innovatsion texnologiyalarni qo‘llab shaxs ma’naviyatini shakllantirish, ongini o‘stirish va tafakkurini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bular orqaligina erkin va mustaqil fikrlaydigan, o‘zligini anglay oladigan, ya’ni har xil zararli oqimlarga qo‘shilib ketmaydigan iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalashimiz kerak.

Boshlang‘ich talim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o‘zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi. Bunda boshlang‘ich sinflardagi sinfdan tashqari darslarning ham alohida o‘rni bor. Boshlang‘ich ta’limda sinfdan tashqari o‘qish ham sinfda o‘qish kabi o‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish va mustaqil mutolaaga rag‘bat uyg‘otishiga ko‘ra, alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash. Maktablarda bo‘lib o‘tadigan turli xil tadbirlar ham bolalarning iqtidorini yo‘naltiradi.

Barcha o‘quvchilar birdek bilimli bo‘lib qolmaydilar. Qaysidir o‘quvchi bilim olishga, qaysidir o‘quvchi hunarmandchilikka, yana qaysi biridir san’atga, yana boshqasi bo‘lsa dehqonchilik yoki chorvachilikka qiziqadi. Bizning asosiy vazifamiz ana shunday qiziqishlarni aniqlab ularni to‘g‘ri yo‘naltirishimiz kerakdir. Har bir o‘quvchida o‘ziga yarasha qiziqish va iqtidor bo‘ladi.Har bir o‘quvchiga, uning shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, uning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida ta’lim-tarbiya jarayoniga biror psixologik yoki pedagogik uslubni qo‘llash mutrakkab jarayondir.Lekin bu davr talabidir.

Agar bola barcha vazifalarni osonlik bilan bajarsa, unda mantiqiy tafakkur, kuzatuvchanlik, mustahkam xotira, barcha narsalarga qiziquvchanlik, o‘z fikrini tushuntira olish, matematik amallarni bajara olishi, dunyoqarashining kengligi bularning barchasi unda bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanganligi va kattalar tomonidan yetarli darajada e’tibor berish kerakligini talab etadi.

Iqtidorli bola quyidagi xususiyatlarni ham o‘zida mujassam etadi: ijodiy, original fikrga ega; yumor, hazilni tushunadigan; biror narsani bilishga nisbatan cheksiz intilish va qiziquvchanlik; boy tasavvurga ega (ijodiy, tasviriy, musiqiy faoliyatda namoyon bo‘ladi); ko‘p hollarda o‘z tengdoshlaridan mustaqilligi bilan ajralib turadi, kattalar bilan muloqotga intiladi.

Agar bola iqtidorli bo‘lsa, u holda:

– uning qiziqishi, ijodkorlikni, fikrlar originalligini qo‘llab-quvvatlash kerak;

– bolaning o‘z sevimli mashg‘ulot yoki o‘yin turini tanlashiga va o‘z fikrini bayon etishiga imkon berish lozim;

– bola sizga emas siz unga moslashishingiz kerakligini unutmaslik kerak;

– tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlardagi muammolarni bartaraf etishda yordam berish kerak;

– o‘zi kabi har tomonlama rivojlangan do‘stlari bo‘lishiga ahamiyat berish kerak;

– bolani har doim ham g‘olib bo‘lishiga ortiqcha intilmaslik lozim, aks holda boshqa bolalar, tengdoshlari uni yomon ko‘rib qolishlari mumkin;

– boladan har doim va hamma sohada birinchi bo‘lishini, maktabda esa a’lochi bo‘lishi kerakligini talab qilish noto‘g‘ri, chunki maktabda a’lo baholarga o‘qish har doim ham iqtidorli bo‘lishga bog‘liq emasligi isbotlangan.

O‘quvchilarning fan asoslarini organishga bolgan qiziqishlarini oshirish va ularning mustaqil bilim olishlari uchun zarur boladigan konikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Oquvchilarning qiziqishini vujudga keltirishda va ijobiy tashabbuskorligini rivojlantirishda qiziqarli tajribalar, eksperimental masalalar ishlash, yangi mavzuni hayotga bog‘lab otish, multimediyalar, elektron darsliklardan foydalanish, kinofilmlarni namoyish qilish, qiziqarli kechalar uyushtirish, mustaqil oqish uchun ilmiy va fantastik adabiyotlar tavsiya etish, tabiatga, ilmiy tadqiqot institutlariga va imkoni bolsa GES-larga sayohat tashkil etish hamda o‘zbek fizik olimlari bilan uchrashuvlar tashkil etish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yormatov R.B., “Iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish” 2007-yil

2. Rahmatova F.G‘., “Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash texnologiyasini takomillashtirish” 2020-yil.

3. “Ta’lim jarayonida iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashning psixologik jihatlari” https://cyberleninka.uz

4. Abrorkhonovna, A.K. (2022). Formation of a sense of patriotism through tourism in the current textbook” upbringing” of primary education. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 5, 70-74.

5. Abdullayeva M.M., “O‘quvchilar iqtidorini ro‘yobga chiqarishda maktab “kichik akademiya”si milliy ta’lim tashabbusi sifatida” https://cyberleninka.ru

6. Qurbonova M.F., “Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘quv-bilish konsepsiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlar”. Xalq ta’limi, 2020-yil.

Kamolaxon ABRORXONOVA,
Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi mudiri,
pedagogika bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Shaxnoza BO‘RIYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH UCHUN TO‘GARAKLAR TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fanga qiziqtirish, o‘quv materiallarini yaxshi o‘zlashtirishlari hamda iqtidorlarini rivojlantirish maqsadida darsdan tashqari qo‘shimcha mashg‘ulotlarni tashkil etishning ahamiyati shu orqali axborot madaniyatini shakllantirish to‘g‘risida fikr yuritilib, tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Boshlang’ich sinf, darsdan tashqari mashg‘ulotlar, amaliy ko‘nikmalari, mantiqiy tafakkur, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, ijtimoiy tarmoqlar, axborot, media, axborotlashtirish, axborot madaniyati.

В данной статье рассмотрена важность организации дополнительных внеклассных занятий с целью заинтересовать учащихся начальных классов наукой, улучшить усвоение учебного материала и развитие их талантов, а также даны рекомендации по формированию информационной культуры.

Ключевые слова. Начальный класс, внеклассные занятия, практические навыки, логическое мышление, информационная безопасность, кибербезопасность, социальные сети, информация, СМИ, информатизация, Информационная культура.

In this article, the importance of organizing extra-curricular activities in order to interest elementary students in science, to better Master educational materials and to develop their talents was reflected and recommendations were made on the formation of an Information Culture.

Key words. Primary class, extracurricular activities, practical skills, logical thinking, Information Security, cyber security, social networks, Information, media, informatization, Information Culture.

Yosh avlodni ma’naviy barkamol etib tarbiyalash, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishini ta’minlash, bunda ularning robototexnika, mexatronika, injenerlik, mental arifmetika, san’at, artdizayn, axborot texnologiyalari bo‘yicha dizayn yo‘nalishlariga bo‘lgan qiziqishini oshirish muhim hisoblanadi. Maktabdan tashqari ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogik usullar va metodlardan, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning yangi shakllarini keng joriy etilmoqda. Bolalarni individual rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va uslubiy materiallarni doimiy takomillashtirib borish uning imkoniyatlarini ochib beradi.

Bugungi kunda umum ta’lim maktablarida to‘garaklarni tashkil qilishda “STEAM - ta’lim” dasturi ham joriy etildi. Bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlariga muvofiq ularning ijodiy va badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasida yurtimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning beshta muhim tashabbus doirasida umum ta’lim maktablarida o‘quvchi-yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san’at, sport, axborot-texnologiyalariga qiziqishni oshirish, o‘quvchi-qizlarni ijtimoiy faol hayotga jalb etish bo‘yicha umumta’lim tashkilotlariga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatilmoqda. Maktabda tashkil

etilgan to‘garak mashg‘ulotlari shaxsning barkamol kamol topishga, o‘sib kelayotgan avlodning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, o‘quvchilarga mehnatsevarlikni singdirishga, shuningdek, ularning bo‘sh vaqtidan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan, uning asosiy vazifasi o‘quvchi yoshlarga qo‘shimcha ta’lim va tarbiya berish bilan birga ularning vaqtini semazmun o‘tkazish, o‘quvchilar ongiga milliy g‘oya va vatanparvarlik tuyg‘ularini singdiradi.

To‘garaklar bir qator xususiyatlariga ega. Bu darsda ko‘ra ko‘proq erkin shaklida amalga oshiriladi. Darsdan tashqari bolalar ko‘proq ijodiy mashqlar va fikrlashni rivojlantirish, jamoa va guruh ishida ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Sinfdan tashqari ishlar darslarga nisbatan ba’zi farq qiluvchi xususiyatlarga ega. O‘z mazmuni bo‘yicha dasturga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o‘quvchilarning kuchiga mos bolishi kerak:

1. Sinfdan tashqari ishlar imkoni boricha barcha o‘quvchilarni jalb qilishi, ya’ni qiziqarli bo‘lishi zarur. Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar ham qiziqish yordamida faol o‘quvchilarga aylanishi mumkin.

2. Sinfdan tashqari ishlar ixtiyoriylik tamoyiliga asosan tashkil qilinadi, lekin qiziqishni ta’minlash lozim. Bu mashg‘ulotlarga baho qo‘yilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

3. Mashg‘ulot mazmuni va shakllariga qarab, 10-12 minutdan 1 soatgacha mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin.

4. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va shakllarining turli-tumanligi.

Boshlang‘ich sinflarda axborot madaniyatini oshirish ularning ijtimoiy tarmoqlardan axborot komunikatsiya texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish kerakligini tushuntirish zarur hisoblanadi. O‘quvchilarning bilimli va zukko bo‘lishlari bilan bir qatorda ularda mediamadaniyatni rivojlantirish kerak. Bugungi kunda boshlang‘ich sinfda axborot texnologiyalari asosida o‘quv jarayonlarini tashkil etish o‘quvchilarning kognitiv psixologiya sohasini faollashtirishga, ta’lim materiallarini muvaffaqiyatli o‘rganish va aqliy rivojlanishiga xissa qo‘shishi kerakligini yodda tutush kerak. Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosini rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam, deb atash mumkin. Bola axborot komunikatsiya texnologiyalarining ma’lum bir o‘quv fuksiyasini bajarishini eslab qolishiga yordam berishi kerak.

Axborot texnologiyalari o‘quv jarayonining yordamchi elementi bo‘lishi kerak deb o‘ylayman. Mamkakatimiz yoshlariga zamon talabiga mos ta’lim tarbiya berish jarayoniga yangi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari tizimi va internet tarmog‘i imkoniyatlarining tadbiq etilishi o‘zining ta’lim samarasini oshirish omili ekanligini allaqachon namoyon etgan.

Boshlang‘ich sinflarda to‘garak mashg‘ulotlari bolalarni kasbga ham yo‘naltiradi. Bolalar maktabga kelmasidanoq kelajakda kim bo‘lishini orzusi qiladi. Maktabga ilk qadam qo‘yganda esa bu tuyg‘ular yanada kurtak ota boshlaydi. O‘sha kasb egasi sifatida o‘zini tasavvur qiladi, mehr qo‘yadi. Mazkur realligini ta’minlashda o‘qituvchining katta o‘rni bor. Chunki o‘qituvchi hali mukammal shakllanmagan bola tasavvurida go‘yoki bir tengsiz murabbiydir. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish bo‘yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o‘quvchilarning maqsadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat qilishi lozimdir. Maktabda kasb hunarga yo‘naltirish ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda amaliy mashg‘ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o‘yin, mustaqil fikrlar kabi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish ko‘pincha samara beradi.

Bugungi kunda ta’limda ‘‘Aqliy hujum’’, ‘‘Fikrlar hujumi’’, ‘‘Tarmoqlar’’ metodi, ‘‘Sinkveyn’’, ‘‘BBB’’, ‘‘Beshinchisi ortiqcha’’, ‘‘6x6x6’’, ‘‘Bahs-munozara’’, ‘‘Rolli o‘yin’’, FSMU, ‘‘Kichik guruhlarda ishlash’’, ‘‘Yumaloqlangan qor’’, ‘‘Zigzag’’, ‘‘Oxirgi so‘zni men aytay’’ kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda. To‘garak mashg‘ulotlarida o‘yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O‘yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash to‘garakning turiga, sinf o‘quvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lishi kerak.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar bir tomondan, dars jarayonining uzviy davomi bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘quvchilarni estetik madaniyatini rivojlantirish va kasb tanlashga yo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi, keng yo‘l ochib beradi. An’anaviy metodikaga ko‘ra sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga o‘quvchilar ixtiyoriylik asosida jalb qilinishi lozim. Lekin mashg‘ulotlarni tashkil etishning ushbu shakli bir qator ijobiy tomonlari bilan birga jiddiy kamchiliklarga ham ega. Jumladan, tajribalardan ma’lum bo‘ladiki, o‘quvchilarning sinfdan tashqari mashg’ulotlarga nisbatan mas’uliyatsiz munosabatda bo‘lishi, berilgan topshiriq va vazifalarni bajarishda intizomsizlik, jamoga aloqador umumiy maqsadlarni hurmat qilmaslik kabi salbiy holatlar mashg‘ulotlarning samarasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur salbiy omil ta’sirini kamaytirish va o‘quvchilar extiyojlarini to‘laroqli qondira oladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun dastlab o‘quvchialarning qiziqish doirasini belgilab olish hamda ularni estetik madaniyatini rivojlantiruvchi va kasbga yo‘naltirish uchun xizmat qiluvchi mashg‘ulotlar shaklini to‘g’ri tanlash kerak. Buning uchun maxsus so‘rovnoma va suhbatlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir deb o‘ylaymiz. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning o‘z iqtidorini, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlarini yorqinroq namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Xulosa qilib aytishimiz mimkinki umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to‘ldiradi. Ularning dunyoqarashi to‘g‘ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyotda ishlab chiqarishi bilan bog‘lanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatika o‘qitishning zamonaviy shakl va metodlari. O‘quv qo‘llanma. Guliston, GulDU, 2014 y., 151 b.

2. Медведева Е.А. Основы информационной культуры // Социс. – 1994. – №11. – С. 59.

3. Семенюк Э.Л. Информационная культура общества и прогресс информатики // НТИ. Сер.1. – 1994. - №7. – С. 3.

4. Хангельдиева И.Г. О понятии ‘‘Информационная культура’’ // Информационная культура личности: прошлое, ноятоящее, будущее: междунар. науч.конф. Краснодар – Новороссийск, 23-25 сент. 1993 г.: тез.докл. Краснодар, 1993. – С. 2.

5. Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: ‘‘Sharq’’, 1997.

6. Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

Sh.N.TAYLAKOVA,
O‘z JOKU fakultet dekani,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA XULQ-ATVORNING OG‘ISHI VA ULARNI TARBIYALASHDA IJTIMOIY INSTITUTLAR FAOLIYATI INTEGRATSIYASI

Annotatsiya

Maktab yoshidagi bolalar orasida xulq-atvorning og‘ishini kelib chiqishining biologik, fiziologik, psixologik, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy omillarini o‘rganish, shu asosda yoshlar bilan ishlash va xulqidagi illatlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish uchun muayyan tizimni yaratish maqsadga mosdir. Maqolada mazkur tizimni yo‘lga qo‘yishda ijtimoiy institutlar faoliyati integratsiyasi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Maktab yoshidagi bolalar, ta’lim-tarbiya, media savodxonlik, huquqbuzarlik va jinoyatchilik, ijtimoiy institutlar, xulq-atvorning og‘ishi.

Целесообразно изучить биологические, физиологические, психологические, социально-педагогические, социально-экономические факторы возникновения преступности и правонарушений среди детей школьного возраста и на этой основе создать конкретную систему работы с молодежью и совершенствования механизмы устранения поведенческих расстройств. В статье говорится об интеграции деятельности социальных институтов в создании этой системы.

Ключевые слова. Дети школьного возраста, образование, медиа грамотность, правонарушения и преступность, социальные институты, поведение.

It is advisable to study the biological, physiological, psychological, socio-pedagogical, socio-economic factors in the occurrence of crime and delinquency among school-age children and, on this basis, create a specific system for working with young people and improving the mechanisms for eliminating behavioral disorders. The article talks about the integration of the activities of social institutions in the creation of this system.

Key words. School-age children, education, media literacy, delinquency and crime, social institutions, behavior.

Insonning xulq-atvori, uning psixologik holati bilan bog‘liq masala ijtimoiy pedagogikada dolzarb muammolardan sanaladi. Bu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan ko‘plab olimlar insoning tug‘ilishidan boshlab shakllanishi, rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni, hodisalarni tadqiq etish asosida inson xarakateridagi murakkab jihatlarni kashf etgan. Inson xulq-atvorining og‘ishi, buzilishi bilan bog‘liq muammolar psixologiya fani bilan bir qatorda ijtimoiy pedagogika oldiga ham qator vazifalarni qo‘yadi. Og‘uvchi xulq (deviant, lot. deviatio-og‘ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umume’tirof etilgan me’yorlardan farq qiladigan yoki u o‘zi a’zosi bo‘lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me’yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me’yorlaridan og‘ishida namoyon bo‘ladigan axloqqa aytiladi. Deviant axloqning turlariga jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o‘z-o‘zini o‘ldirish, daydilik, ruhiyatning buzilishi kabi salbiy xarakter xususiyatlari kiradi. Bizningcha, maktab yoshidagi bolalar va o‘smirlarning xulq-atvoridagi buzilishlarni korreksiyalash, ularni jamiyatda belgilangan hayotiy normalarga moslashtirish muammosi pedagoglar, psixo-

loglar, ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, ta’lim muassasasi), ichki ishlar idoralari vakillari hamkorligida amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir[1].

Xulq og‘ishiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar o‘rtasida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligi ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida o‘zaro yaqinlik va sog‘lom munosabatni o‘rnatishga bog‘liqdir. Shuning uchun o‘qituvchining berayotgan e’tiborini, ularni o‘zlariga yaqin olayotganligini va yordam bermoqchi bo‘layotganligini o‘smir har doim his qilib turishi muhim hisoblanadi. Bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining oldini olishning muhim shartlaridan yana biri tarbiyaviy jarayonda maktab va oila hamkorligini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdir. Ko‘pincha oila va maktab hamkorligi, ota-ona va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning uzilishi tufayli bolalar va o‘smirlar tarbiyasini, ayniqsa, ular xulqidagi o‘zgarishlarni tuzatish ancha qiyin kechadi. Bu yo‘lda, bolalar va o‘smirlarda deviant xulq atvorning vujudga kelishiga ta’sir o‘tkazgan omillarni ham e’tiborga olish lozim. Tashqi va ichki omillar, biologik va ijtimoiy omillarning inson shakllanishidagi ahamiyatini inkor etib bo‘lmaydi. Shu bois, xulq og‘ishining sabablarini aniqlash va bartaraf etish, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarning kelib chiqishini kamaytiradi. Yoshlar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati – ularning yosh va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog‘liqdir. Bu holat burilish davri hisoblangan o‘smirlik davrining alohida xususiyati bo‘lib, u ko‘proq shu davrga taalluqlidir. O‘smirlik davrini o‘tish davri, deb yuritadilar, chunki ana shu davrda bolalikdan kattalik holatiga o‘ziga xos o‘tish davri yuzaga keladi.

O‘rganish va ilmiy monitoring natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bu boradagi ishlar samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarishda, avvalo, ommaviy axborot vositalarida ‘‘Oila-mahalla-ta’lim muassasasi’’ hamkorligini aniq ochib beruvchi ko‘rsatuv va eshittirishlarni ko‘paytirish lozim.

Mahalla faollarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– mahalla hududida yoshlar va voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish yo‘nalishida tegishli muassasalar bilan hamkorlikda har chorakka mo‘ljallangan ish rejasini ishlab chiqadi va shu asosda tadbirlarni amalga oshiradi;

– mahallada voyaga yetmaganlar orasida xulq-atvorning og‘ishi, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurashda profilaktika inspektori bilan hamkorlikda tarbiyaviy-profilaktik ishni amalga oshiradi;

– huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyilligi bor yoshlarni aniqlaydi, ular bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlar olib boradi;

– mahallada voyaga yetmaganlar orasida jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida huquq tartibot idoralari, huquqshunoslar, taniqli sportchilar, san’atkorlar, psixologlar, tibbiyot xodimlari ishtirokida tarbiyaviy aksiyalar, uchrashuvlar, davra suhbatlarini tashkillashtiradi;

– yoshlarda vatanparvarlik, milliy g‘urur, milliy ong, milliy istiqlol g‘oyasi, milliy odob, fidoiylik fazilatlarini shakllantirishda ta’lim muassasalari, ijodiy tashkilotlar va boshqalar bilan hamkorlik qiladi;

– yoshlar orasida har qanday ko‘rinishdagi separatizm va eksterimizmga qarshi qaratilgan bilim beruvchi qiziqarli uchrashuvlar tashkil etadi;

– ota-onalarga farzandlarning tarbiyasi bo‘yicha amaliy-uslubiy yordam ko‘rsatadi. Farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ota-onalarni mahallada faollar o‘rtasida

[1] Djuraev R.X., Kuchukbaev F.M., E.M.Azimova , O.F.Sotiboldiev. Ta'lim-tarbiya jarayonida darsga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv ta'sir etish. Maktab pedagog va psixologlari uchun ilmiy metodik qo‘llanma. – T.: – 2012 .

muhokama qiladi;

– mahalla hududida istiqomat qiluvchi yoshlarning qanchasi umumta'lim maktablarining 9-11-sinflarni bitirganini, shundan nechtasi o'quv yurtlariga o'qishga kirgani, nechtasi ishga joylashgani, qanchasi o'qimay-ishlamay yurganligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim.

Voyaga yetmaganlar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in bu oila, ya'ni ota-ona. Shu bois ham, ota-onalar tomonidan jamoatchilik nazorati asosida ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya sifatini o'rganish va ularni yanada takomillashtirishga doir tadbirlarni amalga oshirishdagi faolligini oshirish, o'quvchilar davomatini yaxshilash bilan bog'liq masalalarda mahallaning o'rnini kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali tanqidiy tahlil etish, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik, jinoyatchilik, huquqbuzarlik yoki boshqa noijtimoiy harakatlar sodir etilishining oldini olish bo'yicha keng tushuntirish ishlarini amalga oshirish, ''Ota-onalar universiteti'' faoliyatini yanada kuchaytirish, suhbatlar va savol-javob kechalarini tashkil etish orqali keng jamoatchilikka yetib borish kabi masalalarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Maktab yoshidagi bolalarning ma'naviy barkamolligini, g'oyaviy dunyoqarashini takomillashtirishda ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish bugun davr talabiga aylanib ulgurgan. Bu jarayonni amalga oshirish mexanizmlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

– maktab yoshidagi bolalarda ommaviy axborot vositalari asosida hayotni teran anglashi, muammolarni chuqur tahlil etishi orqali ularni mazkur muammolarni hal etishga qiziqtirish, muhokamalarda erkin qatnashishga o'rgatish va fikrlar xilma-xilligini ta'minlash;

– maktab yoshidagi bolalarni jamiyatda ro'y berayotgan yangilanishlarni to'g'ri qabul qilishga, uning faol ishtirokchisiga aylanishiga, istiqboldagi rejalarni amalga oshirish uchun tayyor turishga o'rgatish, tarbiyaviy ishlarning negizini tashkil etish;

– maktab yoshidagi bolalarni turli ma'naviy tahdidlardan asrash uchun u shakllanayotgan ijtimoiy muhitning ta'sirini kuchaytirish lozim, xususan, oila muhitida ota-onalarning mas'uliyatini yanada oshirish;

– maktab yoshidagi bolalar ma'naviyatini shakllantirishda barcha ta'lim muassasalarining o'qituvchilari, sinf rahbarlari hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosarlarining rolini oshirish;

– ta'lim dargohlarida maktab yoshidagi bolalar va talabalarning yoshiga qarab g'oyaviy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik dasturlarini ishlab chiqish, maktab yoshidagi bolalarda ezgu fikr, yetuk g'oyalarni shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish, o'qituvchi-pedagoglarning ham bu boradagi bilimlarini muntazam chuqurlashtirib borish zarur;

– ma'naviyat, adabiyot darslari, darsdan tashqari mashg'ulotlar, guruh axborot soatlarida vatanparvarlik ruhidagi videoroliklar, giyohvandilikka, kashandalikka qarshi sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan videolavhalar bilan doimo o'quvchilarni tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir;

– jismoniy tarbiya va sport sohasiga katta e'tibor qaratish, uni har bir yoshning kundalik ehtiyojiga aylantirish, maktab yoshidagi bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va jismonan baquvvat qilib tarbiyalash maqsadida jismoniy tarbiya va sport to'garaklari faoliyatini keng yo'lga qo'yish lozim, shuningdek, maktab yoshidagi bolalar orasida ''Sport'' kanali dasturlarini kuzatib borishni targ'ib qilish, sport musobaqalarini o'zaro tahlil qilishga, mulohaza yuritishga ularni o'rgatish, sport turlariga

bo‘lgan motivatsiyani rivojlantirish, jismoniy tarbiya darslarida uyushtirilgan futbol, voleybol, basketbol o‘yinlarini o‘tkazilishida “Yosh sport sharhlovchi”larini tarbiyalash maqsadga muvofiqdir;

– jamoatchilik fikrini shakllantirish, qonunlarni xalqimiz, avvalo, yosh avlod ongiga singdirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rnini hisobga olib aytish mumkinki, matbuot sahifalarida maktab yoshidagi bolalarni ezgu g‘oyalarga da’vat eta oladigan hayotiy mavzulardagi materiallarni chop etib borish, turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo‘l ochib berish zarur;

– ommaviy axborot vositalari hayotimizda yuz berayotgan yangilanish va o‘zgarishlarga maktab yoshidagi bolalarning ongli munosabatini uyg‘otishlari, xolislik va haqqoniyat tamoyillariga tayanib faoliyat olib borishlari lozim;

– uyali aloqa vositalari orqali axloqsizlikni namoyish va targ‘ib qiluvchi materiallarning tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik, maktab yoshidagi bolalarimizni bunday illatlar domiga tushib qolishining oldini olish, oq va qorani, yaxshi va yomonni, ahloq va tubanlikni farqlash ko‘nikmasini ularda shakllantirish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalaridandir.

Xulq og‘ishi kuzatilgan o‘smirlarda hayotiy axloq normalarini shakllantirish, ularni hayotga to‘g‘ri yo‘naltirish hamda o‘zlariga nisbatan ishonch hissini kamol toptirish lozim. Buning uchun ularga yoshi, kuchi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib, topshiriqlar berish ayni muddaodir. Bu borada, ularni o‘zlari qiziqqan to‘garaklarga jalb qilish yaxshi natijalar beradi. Eng muhimi shundaki, tarbiyalanuvchilarga ishonish kerak. Ularning qo‘lidan keladigan ishlarga e’tiborli bo‘lib, uni bajarganidan keyin rag‘batlantirish muhimdir. Yoshlarni be’mani hordiq chiqarish va ko‘cha-ko‘yda maqsadsiz yurishlariga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Buning uchun maktab, mahalla, jamoatchilik va oila hamkorligini mustahkamlash, bolalarni iloji boricha maktabdan tashqari muassasalarga jalb etish chora-tadbirlarini qo‘llash kerak.

Deviant xulq-atvorli bolalar tarbiyasi individuallikni talab qiladi. Xulq og‘ishi kuzatilgan har bir bola uchun tarbiya berishning optimal strategiyasini belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Individual yondashuv, ya’ni har bir bolaga maxsus pedagogik ta’sir o‘tkazish mazkur muammoni hal etishda ijobiy samara beradi[2]. Bundan tashqari, tarbiyaviy ta’sirning bolani har tomonlama rivojlantirishga yo‘nalganligi, darsdan tashqari faoliyatlarda bolalarga mustaqil faoliyat (o‘qish, o‘yin, mehnat, xobbi va qiziqishlari)ni tanlash uchun imkoniyat berish, har bir bola uchun ularni aqlan hamda axloqan rivojlanishiga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda “Oila – mahalla − ta’lim muassasasi” hamkorligi konsepsiyasi bugun navqiron avlodni turli xil huquqbuzarliklar, ekstremizm, giyohvandlik, ommaviy madaniyat kabi illatlardan asrab-avaylash, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, yoshlarni kasbga yo‘naltirishning muhim omili bo‘lmoqda. “Oila – mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorligida tarbiyasi og‘ir o‘quvchi-yoshlarning darslarga to‘liq qatnashishi, ularning ta’lim-tarbiyasini alohida nazoratga olish, ularning bo‘sh vaqtlarini to‘garaklar, ma’naviy-ma’rifiy va sport musobaqalariga jalb etish zarurdir.

Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari orasida huquqbuzarlikning oldini olish uchun profilaktik xizmat tizimi qo‘yidagi tartibda amalga oshiriladi:

– profilaktika obyektini tanlash;

– profilaktik metodikani belgilash (ishlab chiqish);

[2] Taylakov va boshqalar. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o‘quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik vositalari va texnologiyalari. Monografiya. III tom. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, – 2019 yil. – 320 b.

– diagnostika o‘tkazish;

– natijalarni tahlil qilish (interpretatsiya);

– diagnostika tahlili asosida korreksion tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish;

– profilaktik xizmat qilish mazmunini belgilash va amalga oshirish (korreksiya va sog‘lomlashtirish ishlari);

– qayta diagnostika o‘tkazish, sifat o‘zgarishlarini aniqlash[3]. Jamiyatimizdagi yoshlarni tarbiyalashda optimal uslub va vositalardan foydalanish, korreksiyalashga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida samarali profilaktik ta’minotlarni tuzish va amalga tadbiq qilishni davr taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda o‘quv muassasalarining o‘zida (imkoniyatlardan kelib chiqqan holda) pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya markazlarini tashkil qilish va amaliy faoliyat yuritishlariga erishish; pedagogik diagnostika va korreksiya jarayoni uchun zarur bo‘lgan didaktik ta’minotlarning bashoratini rivojlantirish zarur.

O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqoti huquqiy, axloqiy tarbiyaning muhim omili hisoblanadi. O‘quvchilar sinf rahbari bilan muloqotga kirishar ekanlar, o‘z onglarida kishilarning xulqlaridagi muayyan namunalarni tasavvur qiladilar va mustahkamlaydilar, o‘z xatti-harakatlari va munosabatlari, axloqiy me’yor va qoidalarini shakllantiradilar. Maktab yoshidagi bolalar muloqot jarayonida ongida mustahkamlanib qoluvchi ma’naviy qarashlar, hislar, me’yorlarni qabul qiladilar, o‘zlashtiradilar, bu esa xulq-atvordagi ijobiy holatlarni shakllantirishga ko‘maklashadi. Sinf rahbari tomonidan turli ma’naviy nazorat shakli, vositalari o‘rnatiladi. Sinf rahbari muloqotning axborot va emotsional jihatlaridan mohirlik bilan foydalangan holda tarbiya jarayonida uning sifat ko‘rsatkichini yaxshilashga erishishi mumkin.

Maktab yoshidagi bolalar ma’naviyatini shakllantirish ular o‘rtasida turli mavzuda tadbirlar o‘tkazish va tushuntirish ishlarini olib borish, suhbat va bahslar, seminar, konferensiyalar uyushtirish ishlarini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyevning “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni. Xalq so‘zi gazetasi, 2017 – yil 6 – iyul.

2. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz (Ota-onalar uchun tavsiya). – T.: “Ma’naviyat”, – 2013. – 320 b.

3. Qosimova N., Toshpo‘latova N. O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarida bolalar mavzusini yoritishning nazariy va amaliy asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T., – 2014, – 211 b.

4. Paxrutdinov Sh. Global axborot jamiyati va media-ta’lim. O‘quv-uslubiy ko‘rsatma. –T.: 2014.

5. Taylakov va boshqalar. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o‘quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik vositalari va texnologiyalari. Monografiya. III tom. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2019-yil. – 320 b.

6. Djurayev R.X., Kuchukbayev F.M., E.M.Azimova , O.F.Sotiboldiyev. Ta’lim-tarbiya jarayonida darsga salbiy munosabatdagi bolalarga nisbatan konstruktiv ta’sir etish. Maktab pedagog va psixologlari uchun ilmiy-metodik qo‘llanma. – T., 2012 y.

[3] Taylakov va boshqalar. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil o‘quvchilarni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik vositalari va texnologiyalari. Monografiya. III tom. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2019-yil. 320 b.

Abdulaziz SAMADOV,
Buxoro davlat pedagogika instituti, ‘‘Harbiy ta’lim’’ fakulteti o‘qituvchisi

HARBIY TA’LIM O‘QITUVCHISINING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ta’limning o‘zgaruvchan paradigmasida harbiy ta’lim o‘qituvchisining kasbiy mahorati texnologiyaning tez o‘zgarishi, global xavfsizlik muammolari va o‘quvchi ehtiyojlarining oshishi sababli sezilarli darajada o‘zgardi. Harbiy ta’limning an’anaviy paradigmalari o‘zgarib bormoqda, bu esa harbiy ta’lim o‘qituvchilaridan kasbiy ko‘nikma va mahoratni o‘zgartirishni talab qiladi. Ushbu maqolada biz o‘zgaruvchan ta’lim paradigmasi kontekstida harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik va psixologik asoslarni o‘rganamiz.

Kalit so‘zlar. Ta’limning o‘zgaruvchan paradigmasi, an’anaviy paradigma, harbiy ta’lim, kasbiy mahorat, global xavfsizlik muammolari, pedagogik va psixologik asos.

В меняющейся парадигме образования профессиональные навыки преподавателя военного образования значительно изменились из-за быстрых изменений в технологиях, глобальных проблем безопасности и растущих потребностей учащихся. Традиционные парадигмы военного образования меняются, что требует от преподавателей военного образования изменения профессиональных навыков и навыков. В этой статье мы рассмотрим педагогические и психологические основы, необходимые для развития профессионального мастерства педагогов военного образования в контексте меняющейся парадигмы образования.

Ключевые слова. Меняющаяся парадигма образования, традиционная парадигма, военное образование, профессионализм, проблемы глобальной безопасности, педагогическая и психологическая основа.

In the changing paradigm of education, the professionalism of a military education teacher has changed significantly due to the rapid change in technology, global security problems and increased student needs. The traditional paradigms of military education are changing, requiring military education teachers to change professional skills and skills. In this article, we will study the pedagogical and psychological foundations necessary for the development of professional skills of teachers of military education in the context of a changing educational paradigm.

Key words. Changing paradigm of Education, traditional paradigm, military education, professional skills, global security problems, pedagogical and psychological foundation.

O‘zlashtirish inson faoliyatining har qanday soha sifatining ko‘rsatkichi asnosida ushbu faoliyatning yakuniy mahsuloti qiymatini belgilaydi.

Pedagogik faoliyat – bu ikki majburiy ishtirokchi: o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida muloqot sodir bo‘ladigan maxsus jarayon.

Yuqori kasbiy mahoratga ega o‘qituvchi o‘quv jarayonining qulay kechishiga hissa qo‘shadigan xodim. Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi pedagog, eng avvalo, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni yuqori darajada takrorlay oladigan, psixologik-pedagogik va o‘z fani sohasining yuqori malakali mutaxassisidir.

Harbiy ta’lim o‘qituvchisining kasbiy mahoratini baholashning an’anaviy komponentlari sifatida quyidagilar tan olingan:

• o‘qitiladigan fan nazariyasini chuqur bilish;

• o‘qitiladigan fan nazariyasini amalga oshirish uchun amaliyotni bilish;

• o‘qitishning pedagogik va psixologik asoslarini bilish;

• fanning muayyan yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot olib borish malakalariga ega bo‘lish, ijodkor va ijodiy fikrlash, o‘qitiladigan fan bo‘yicha ilmiy-uslubiy ishlarni olib borish ko‘nikmalarga ega;

• o‘qitish metod, shakl va metodikasini egallash;

• (baholashning integrativ komponenti sifatida) ko‘rsatilgan bilim va ko‘nikmalarni o‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilar bilan faol o‘zaro munosabatda bo‘lish va o‘quv materialini o‘zlashtirishda ularning mustaqil ishlarini samarali rag‘batlantirish, mustaqil amaliy qarorlar qabul qilishda tadqiqotchilik ko‘nikmalari va malakalarini egallash qobiliyati.

Pedagogikadagi ancha yangi tushunchalarni – shaxsning kasbiy kompetensiyasi, shaxsning kommunikativ kompetensiyasini nazariy o‘rganish va amaliy sinovdan o‘tkazish orqali so‘nggi pedagogik tadqiqotlar ularni rivojlantirish va takomillashtirish yo‘llarini izlash zarurligini tushunishga olib keladi. Kasbiy va kommunikativ kompetensiya o‘qituvchilik faoliyati samaradorligining zarur shartidir.

Kasbiy bilimlar fan, uni o‘qitish metodikasi, pedagogika va psixologiya asoslari bo‘yicha bilimlardan iborat. Bu murakkablik va shaxsiy rang berish xususiyatlariga ega bo‘lgan pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismidir.

O‘qituvchi nafaqat bugungi kun uchun nima muhimligini aniqlashi, balki amaliyotni rivojlantirishning eng muhim tendentsiyalarini ham ta’kidlashi va tushunishi lozim.

Harbiy ta’lim o‘qituvchilari zamonaviy o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun o‘zlarining ta’lim usullarini moslashtirishlari muhim. Moslashuvchan va moslashuvchan ko‘rsatmalarni loyihalash va amalga oshirish qobiliyati juda muhimdir. O‘qituvchilar turli o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida an’anaviy sinf ma’ruzalaridan tortib, interfaol simulyatsiyalar va onlayn resurslargacha bo‘lgan turli xil ta’lim tajribalarini yaratishda malakali bo‘lishi talab qilinadi.

Harbiy ta’lim o‘qituvchisining roli zamonaviy o‘quvchilarning turli ehtiyojlari, texnologik yutuqlar va rivojlanayotgan global xavfsizlik muammolari bilan tavsiflangan ta’limning o‘zgaruvchan landshaftiga javoban sezilarli darajada o‘zgardi. Shu nuqtai nazardan, moslashuvchan o‘qitish harbiy o‘qituvchilar uchun muhim pedagogik asosga aylandi. Ma’lumki, har qanday faoliyat ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi asosida amalga oshiriladi. Odatda u yaxshi tashkil etilgan tuzilishga va bir qator o‘zaro bog‘liq elementlarga ega, ularning ba’zilari asosiy, boshqalari esa ikkilamchi hisoblanadi. Bularning barchasi harbiy o‘qituvchining ishiga tegishli.

Harbiy ta’lim o‘qituvchisi faoliyati strukturasining ko‘plab elementlari orasida to‘rtta asosiy yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish mumkin: konstruktiv (dizayn), tashkiliy, kommunikativ va tadqiqot. Ularning har birining tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlari va mazmunini tushunish bizga baholash mezonlarini aniqlash va o‘qituvchining pedagogik mahorat darajasini to‘g‘ri baholash, uni takomillashtirish yo‘llarini belgilash imkonini beradi. Har bir o‘qituvchining pedagogik mahoratining darajasi va ko‘rinishlari o‘qituvchilik faoliyatining asosiy yo‘nalishlarida turli darajadagi mahoratning uyg‘unligi bilan aniq izohlanadi. Xo‘sh, bu sohalarning har birida harbiy ta’lim o‘qituvchisi faoliyatining mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari nimada?

Konstruktiv faoliyat o‘quv materiallarini ijodiy qayta ishlashga qaratilgan. Bunda o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini, ularning rivojlanish darajasini, o‘qitishning maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda o‘quv materialni loyihalash. Bu muhim ahamiyatga ega, chunki o‘qituvchilarning barcha tashkiliy va kommunikativ fao-

liyati uning asosida quriladi. Harbiy ta’lim o‘qituvchisi o‘z faoliyatida sohaga oid qonunlar, qarorlari, Mudofaa vazirligi va boshqa boshqaruv organlarining buyruqlari talablariga amal qiladi. Bundan tashqari, o‘qituvchi o‘z faoliyatini o‘rganilayotgan fanning o‘quv rejasi va dasturiga, maktab ta’lim muassasasi rahbar xodimlarining ko‘rsatmalariga muvofiq tuzadi, ilmiy adabiyotlar, darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va nihoyat, o‘rganilayotgan fanining tajribasidan foydalanadi.

O‘qituvchining konstruktiv faoliyati – bu o‘qituvchilik mahoratining o‘sishi bilan o‘zgaradi. Faoliyatning faolligi ham ta’lim jarayonining turli davrlarida notekis kechadi. Istiqbolli va alohida muammolar o‘rtasidagi oqilona munosabatni rivojlantirish, ularni hal qilishda tegishli yondashuvni topish va yakuniy natijani bashorat qilish qobiliyati o‘qituvchining pedagogik mahoratini baholashning muhim mezoni hisoblanadi.

O‘qituvchi faoliyatining ko‘rib chiqiladigan sohasi pedagogik ishning eng murakkab turidir. Konstruktiv faoliyat umuman o‘qituvchi ishining muvaffaqiyatiga, uning malakasini shakllantirish va takomillashtirishga katta ta’sir ko‘rsatadi, ayniqsa, u tashkiliy faoliyat bilan uyg‘unlashganda. Yaxshi tanlangan va ishlab chiqilgan o‘quv materialiga qaramay, o‘qituvchi darsda o‘quvchilarning diqqatini jamlay olmasa va butun o‘quv jarayoni davomida o‘z ishini samarali tashkil etmasa, muvaffaqiyatga erisha olmaydi.

O‘qituvchining har bir maqsadga muvofiq pedagogik harakati pirovardida qandaydir tashkiliy harakatni ifodalaydi. Shuning uchun tashkiliy faoliyat bir vaqtning o‘zida loyihalarni amaliyotga qo‘llash, o‘qituvchining uslubiy rejalari, o‘quv jarayonini yanada samarali loyihalash uchun shartdir.

Shu bilan birga, o‘qituvchining konstruktiv va tashkiliy faoliyatdagi mahorat darajasi juda farq qiladi. O‘qituvchining tashkiliy sohadagi harakatlari asosan quyidagilarga qaratilgan:

– o‘quv materialini aniq, tushunarli taqdim etish;

– har bir aniq ta’lim sharoitida o‘z xatti-harakatlarini muayyan tartibga solish;

– maktab va darsdan tashqari vaqtlarda talabalarning faoliyatini tashkil etish.

Bu holatda muvaffaqiyat o‘qituvchining ushbu jihatlarni birlashtira olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Harbiy ta’lim o‘qituvchisi ishining psixologik tuzilishida kommunikativ faoliyat alohida o‘rin tutadi.

Bu kabi munosabatlar o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini va pedagogik ta’sirlarning samaradorligi haqidagi ma’lumotlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Munosabatlar ko‘p jihatdan o‘qituvchining shaxsiy fazilatlariga bog‘liq: tayyorgarlik, his-tuyg‘ular, iroda, xushmuomalalik, o‘zini shaxs sifatida ko‘rsatish va ochib berish qobiliyati.

O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi to‘g‘ri munosabat, o‘quv-tarbiya ishlarida o‘zaro tushunish va izchillikka erishishda, o‘qituvchi o‘quvchilarning xatti-harakatlarini to‘g‘ri tushunish va baholash qobiliyati, shuningdek, o‘quvchilarning o‘qituvchi talablarini to‘g‘ri talqin qilish qobiliyati ortishiga olib keladi.

Harbiy ta’lim o‘qituvchisining barcha faoliyat turlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, turli xil o‘quv va tarbiyaviy vazifalarni hal qilish jarayonida yuzaga keladi. Ularni samarali amalga oshirish o‘qituvchining yuqori pedagogik mahoratisiz amalga oshirilmaydi. Kasbiy mahorat murakkab, ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, uning tarkibiy qismlari psixologik-pedagogik eruditsiya, pedagogik qobiliyat va pedagogik texnikadir.

Psixologik-pedagogik eruditsiya o‘qituvchining pedagogik mahoratining nazariy asosi bo‘lib, u psixologiya va pedagogikaning ilmiy asoslarini bilish tizimidir. U ta’limning maqsad va vazifalarini tushunish, shaxsni rivojlantirish va shakllantirish qonuniyatlarini, pedagogik jarayonning mohiyati va xususiyatlarini, uning samaradorligiga

ta’sir qiluvchi omillarni, o‘qitish va tarbiyalashning tamoyillari, usullari va shakllarini, boshqaruv usullarini o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchining psixologik-pedagogik eruditsiyasi uning pedagogik faoliyatiga ongli ravishda, ilmiy nuqtayi nazardan yondashishga, uning oldida turgan turli va murakkab tarbiyaviy vazifalarni hal etishda ijodiy yondashishga imkon beradi.

O‘qituvchining pedagogik qobiliyatining asosini pedagogik tafakkur tashkil etadi, u pedagogik jarayonning intellektual mohiyatini aks ettiradi va pedagogik mahoratning markaziy tarkibiy qismi hisoblanadi. Pedagogik tafakkur mustaqil va ijodiy bo‘lishi kerak. Bu o‘qituvchiga tarbiyaviy ta’sirning eng samarali yo‘llari va usullarini tanlashda tashabbuskorlik, qat’iyat va zukkolik ko‘rsatishga, shablonlardan, monotonlikdan, mexanik nusxa ko‘chirishdan qochish imkonini beradi. O‘qituvchi tafakkurining ijodiy tabiati unga ta’lim jarayonini optimallashtirish uchun ilmiy-pedagogik ish bilan shug‘ullanish, pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish va pedagogik tajribalar o‘tkazish zarurligini ta’minlashi kerak.

Pedagogik tafakkur pedagogik kuzatish va pedagogikaga asoslanadi.

O‘qituvchining ijodiy tasavvuri. Pedagogik kuzatish o‘qituvchiga o‘quvchilar bilan uzluksiz fikr-mulohazalarni taqdim etadi:

– o‘quvchilarning kayfiyatini;

– taqdim etilayotgan materialga munosabatini;

– tushunish va o‘zlashtirish darajasini;

– turli belgilar bilan o‘zining tarbiyaviy ta’sirlari samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Bu ma’lumotlardan foydalanib, o‘qituvchi o‘z ishida kerakli tuzatishlar kiritadi (materialni boshqa tomondan qayta tushuntirish, tarbiyaviy ta’sir shakllarini o‘zgartirish va boshqalar). Pedagogik kuzatish o‘qituvchiga o‘zaro mashg‘ulotlarda hamda ochiq va ko‘rgazmali mashg‘ulotlarda qatnashishda boshqa o‘qituvchilar tajribasini o‘rganish, tahlil qilish va ulardan foydalanishga yordam beradi.

Xulosa shuki, tez o‘zgarishlar davrida harbiy ta’lim o‘qituvchilari ta’lim paradigmasining o‘zgaruvchan talablariga javob berish uchun doimiy ravishda moslashishi va kasbiy mahoratini oshirishi kerak. Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan pedagogik va psixologik asoslar harbiy o‘qituvchilarni o‘z vazifalarini mukammal bajarishda zarur vositalar bilan jihozlash uchun juda muhimdir. Moslashuvchan ta’lim, muammoli ta’lim, fanlararo integratsiya va inklyuziv ta’limni o‘zlashtirib, motivatsiyani tushunish, chidamlilikni oshirish, madaniy kompetensiyani rivojlantirish va hissiy intellektni rivojlantirish bilan birga, harbiy ta’lim o‘qituvchilari o‘zgaruvchan ta’lim landshaftini muvaffaqiyatli boshqarishi va o‘z talabalarini tayyorlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Podlasy I.P. Pedagogika: 100 ta savol – 100 ta javob. – M., 2004-yil.

2. Kopytova N.E., Makarova L.N. Oliy maktab o‘qituvchisining kasbiy faoliyatidagi konstruktiv va dizayn funktsiyasi//Tambov universiteti axborotnomasi. Gumanitar fanlar seriyasi. 2014-yil. No-5(133). – 30-35 b.

3. Sharshov I.A., Makarova L.N. Universitet tadqiqot infratuzilmasini modernizatsiya qilish kontekstida ilmiy faoliyat: baholash muammolari // Ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlar. 2012. No-7-8 (41-42). – 225-230 b.

4. Pirogov N.I. Tanlangan pedagogik ishlar. – M., 1985-yil.

Azizbek UMAROV,
Andijon davlat universiteti doktoranti

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI PEDAGOGIK MAS’ULIYATNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada pedagogik mas’uliyat, o‘qituvchilarda odob-axloq, huquq va majburiyat, burch, qadriyat, ijtimoiy xatti-harakatlar uchun javobgarlik hissi, ko‘zlangan maqsadga intilish, o‘zini o‘zi rivojlantirish, doimiy o‘z ustida ilmiy yoki pedagogik izlanishlar olib borish va natijasini amaliyotda qo‘llay olishi yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalarni oshirish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar. Pedagog, kompetensiya, kasbiy faoliyat, model, ta’lim-tarbiya, uzluksiz ta’lim, tamoyillar, mas’uliyat, individual rivojlanish, kasbiy etika.

В статье речь идет о педагогической ответственности, этике, правах и обязанностях, долге, ценностях, чувстве ответственности за социальное поведение учителей, стремящихся к намеченной цели, саморазвитии, постоянно проводящих научные или педагогические исследования и применяющих результаты на практике, внесены предложения по повышению знаний, навыков и квалификации.

Ключевые слова. Педагог, компетентность, профессиональная деятельность, модель, образование, непрерывное образование, принципы, ответственность, индивидуальное развитие, профессиональная этика.

The article is about pedagogical responsibility, ethics, rights and obligations, duty, value, sense of responsibility for social behavior in teachers, striving for the intended goal, self-development, constantly conducting scientific or pedagogical research and applying the results in practice, proposals were made regarding the improvement of knowledge, skills and qualifications.

Key words. Pedagogue, competence, professional activity, model, education, continuous education, principles, responsibility, individual development, professional ethics.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot darajasini belgilovchi ustuvor yo‘nalishlardan biri ta’lim sohasini rivojlantirish deb e’tirof etildi. O‘z taqdirini mamlakat taqdiri bilan bog‘lagan har bir inson yuragida mas’uliyat hissi bilan yashashi jamiyat va millatni yuksaklarga ko‘tarish omili bo‘lib xizmat qiladi. Aksincha, mas’uliyat hissining yetarli darajada rivojlanmaganligi ortida inson hayoti, balki jamiyat va davlat taqdirida ayanchli yakun topgan misollar ko‘plab topiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning asosiy mezoni tarbiya va mas’uliyatdir. Tarbiya – insonni ma’lum bir yo‘nalishda shakllanishi, kamol topishiga ta’sir etuvchi oila, jamiyat va turli odamlarning bir-biriga ko‘rsatadigan ijtimoiy munosabatdir. Inson tarbiyasiga oid qonun-qoidalar dastlab turli afsonalar, rivoyatlar va pandnomalarda o‘z ifodasini topgan. Sharqning mashhur faylasufi Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asari orqali tarbiyaning insonga beriladigan o‘n ikki fazilatini mohirona ta’riflagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Abdulla Av-

loniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan hikmatli iborasi har bir bilim dargohining peshtoqida bo‘lishi kerak”[1] kabi fikrlarida bir qancha ma’no mujassam.

G‘arbda Yan Amos Komenskiyning asarlarida[2] tarbiya masalalariga alohida e’tibor bilan yondashadi. “Buyuk didaktika”[3] asarida o‘qitishning tabiiylikka bo‘ysunishi haqida qimmatli ma’lumotlar yozilgan. “Bolaning jismoniy va aqliy rivojlanish jarayoni tabiatdagi o‘sish jarayoni bilan bir xil bo‘lib, pedagog bola tarbiyasida xuddiki, Rumiy xazratlari ta’kidlaganidek, daraxtning biologik rivojlanish qoidalarini inobatga olgani kabi, boladagi tabiiy xususiyatlarni ham bilishi shart”[4].

I.G. Pestalotsii, Gerbart, K.D. Ushinskiylar faoliyati davomida pedagogikaning bosh masalasi ta’lim-tarbiya muammosiga munosabatini bildirib, pedagogika tarbiya to‘g‘risidagi fan ekanligini ilmiy asoslab berganlar. Pedagoglik kasbi muhim ijtimoiy ahamiyat va mas’uliyat talab etadi. Chunki, pedagoglar kelajakni bunyod etuvchi yoshlarning hayot me’moridir.

“Bugun bo‘lajak o‘qituvchilarga va umuman yoshlarga g‘oyaviy-siyosiy jihatdan dunyo manzaralarini, jamiyat, fikr va tafakkur taraqqiyoti va tabiyatning rivojlanish qonuniyatlarini idrok etishiga mas’ul ekanmiz, avvalo, ularni kasbiy mehnat faoliyatiga tayyorlab borish, kasb-hunar egallashi uchun ko‘mak berish va vatanimiz taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan vazifalarni hal etish mas’uliyatini shakllantirmog‘imiz darkor”[5]. Aynan shu ma’suliyat pedagoglardan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, o‘quvchilarga g‘oyaviy-tarbiyaviy ta’sir etib, rivojlanishning optimal xolatini nazarda tutuvchi pedagogik mas’uliyatni taqazo etadi.

“Mas’uliyat” tushunchasi arab tilida “javobgarlik”, “hisob bermoq” ma’nolarini ifodalaydi. “Biror ishning yoki xatti-harakatning oqibati, natijasi uchun javobgarlikni bildiradi”[6]. O‘zbek tilida esa “mas’uliyat” tushunchasining muqobili ko‘rinishida “javobgarlik” tushunchasi qo‘llaniladi. Misol uchun, huquqiy javobgarlik, ma’muriy javobgarlik va davlat javobgarligi…

“Tarbiya” ensiklopediyasida mazkur tushunchaning ijtimoiy-falsafiy mohiyati yoritilgan, ya’ni “mas’uliyat – xatti-harakatlar hamda ularning oqibatlari natijasi uchun bo‘lgan javobgarlikdir”[7].

Mustaqillik yillarida ilmiy izlanishlar olib borgan bir qator olimlarimiz “mas’uliyat” tushunchasini falsafiy adabiyotlarda XIX asrlarda qo‘llanilgan deb hisoblaydi[8]. Bizning nazarimizda “mas’uliyat” tushuncha sifatida ijtimoiy ma’noda, antik davrda Platon tomonidan jamiyat va davlatning o‘zaro munosabatini falsafiy-axloqiy ifodasini nazarda

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘qituvchi” kanaliga bergan intervyusidan 2022 yil 25 avgust.

[2] Ян Амос Коменский написал первое в истории руководство для семейного воспитания – “Материнская школа” (1632).

[3] Ян Амос Коменский закончил свою “Дидактику” на чешском языке (1632), а затем переработал её и перевёл на латинский язык, назвав “Великой дидактикой” (Didactica Magna) (1633-38).

[4] Fayzullayeva N. Pedagogik bilimlar – o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi //Uzluksiz ta’lim j. – T.: 2006. 6-son

[5] Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.

[6] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikkinchi jild. ye -M. – T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi “Davlat ilmiy nashriyoti”, 2006 yil – 55 b.

[7] Tarbiya. Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya / M.N. Aminov. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2010-yil, – 264 b.

[8] Sagindikova N.G. Talabalar o‘quv faoliyatida mas'uliyatning gender xususiyatlari: Psixologiya fanlari doktor. ...diss. – T., 2017.

tutuvchi adolat tushunchasi bilan uyg‘un holda tahlil qilingan: “...adolatsizlik, agar u aniqlansa, jazolanadi va sharmandai sharmisorlik pardasi bilan qoplanadi”[9], hamda “...qonunlarning buzilishi shunday bir zarar yetkazadiki, u asta-sekin odamlar fe’l-atvoridan o‘rin oladi va u yerdan yirikroq hajmlarda fuqarolarning ish yuzasidan o‘zaro munosabatlariga tarqalib, hatto qonunlarning o‘ziga va davlat tizimiga tajovuz qiladi, ...oxir-oqibatda shaxsiy hayotni ham, jamiyat hayotini ham ag‘dar-to‘ntar qilib tashlaydi”[10], degan falsafiy qarashlari hozir ham zamonaviy jaranglaydi. “Mas’uliyat” tushunchasi XVII asrda tarixda birinchi marta Tomas Gobbs tomonidan fanda qo‘llanilgan. T. Gobbs mazkur tushunchani ijtimoiy munosabatga muvofiq o‘zaro birlashgan fuqarolarning davlat harakatlari oldida mavhum javobgarligi ma’nosida qo‘llagan[11].

Insonning yuksak natijalarga erishishi, buyuk jasoratlar ko‘rsatishga qodir ekanligi mas’uliyatning yuqori darajada rivojlangan holatlariga bevosita bog‘liq. Shuningdek, tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari, hayotiy kuzatishlari natijasiga asoslanib, mas’uliyatni insonning psixologik yetukligining muhim mezoni sifatida tushunish mumkin. Jumladan, V.P. Pryadeinning ilmiy tahlillariga ko‘ra, insonning ilk o‘spirin va yetuklik davrida mas’uliyat o‘z tarkibida sotsiotsentrizm (o‘z xatti-harakatlariga jamiyat nuqtayi nazaridan baho bera olish), internallik (o‘z hayotida ro‘y berayotgan voqea-hodisalar sabablarini o‘zidan qidirishga moyillik) natijaga yo‘nalganlik, anglaganlik (har bir ishda ongli motivlarga asoslanib, natijani aniq tasavvur qilish), stenizm (faoliyatga rag‘bat beruvchi hissiyotlarning ustunligi), ergetizm kabi sifatlarni jamlab boradi[12].

Qadim zamonlarda yashab o‘tgan bir podshohning boshqalarga qo‘shilmaydigan odamovi o‘g‘li bor ekan. Bu valiahdning tengdoshlari, aka-ukalari ovga chiqishar, o‘ynab davru-davron surishar edi. U xonasiga qamalib olib tunu-kun qamalib o‘tirishni xush ko‘rardi. O‘g‘lining mahzunligidan podshohning yurak bag‘ri ezilardi. Kunlarning birida u huzuriga bir donishmandni chaqirtiradi. Unga o‘g‘lining bu ahvolini ma’lum qiladi, bu kulfatga bir chora topishini buyuradi. Bir hafta ichida bu muammoning yechimini topib uddalay olmasa, boshidan judo bo‘lishini aytadi.

Donishmand chuqur o‘yga toladi. Shahzodaning bu holatdan qutqarishga ojizligini bilib, o‘z jonini qutqarish uchun bosh olib uzoqlarga ketishga majbur bo‘ladi. Uysiz, vatansiz noiloj qolgan donishmand yo‘ldagi yaylovda cho‘pon yigitni uchratib qoladi. Qo‘y boqayotgan yigitni oldiga kelib u bilan suhbat quradi. Suhbat davomida cho‘pon bola donishmanddan iltimos qildi:

– Amakijon, ozgina qo‘ylarimga qarab tursangiz. Ertalab shoshganimdan tushlikka yegulik olishni unutibman, qishloqqa borib kelay!

Donishmand rozi bo‘libdi.

O‘zi bilan ovora bo‘lib, bir qo‘zichoqni jarga tushib ketganini ko‘rmay qolibdi. Qo‘zichoq onasini nola qilishidan xushyor tortib bolasini qutqarishga shoshilibdi. Jarlikka tushish qiyin bo‘libdi. Bechora jonivorni tepaga olib ko‘tarib chiqish esa undanda mashaqqatli kechibdi. Bor kuchi bilan qilgan harakatlari bekor ketibdi-yu, ammo donishmand kurashdan to‘xtamabdi, tirandi, tirmashdi, qiynalibdi, oqibat qo‘zichoqni qutqarishni uddasidan chiqibdi.

Suhbatdosh “do‘sti”ga qilgan va’dasini bajarish, qo‘zichoqni qutqarish uchun

[9] Платон. Диалоги. – М.: ООО “Изд.АСТ”, 2001 г, – С. 57.

[10] Платон. Диалоги. – М.: ООО “Изд.АСТ”, 2001г, – С. 151.

[11] Гоббс Т. Сочинения. Т. 2. – М., 1989. – С. 79.

[12] Прядеин В.П. Комплексное исследование ответственности как системного качества личности. / Автореф. Дисс. доктора психологических наук. – Новосибирск: Уральский государственный педагогический университет, 1999. – С. 41.

shunday mehnat qildiki, natijada o‘zining tashvishlari unutilib ketdi…

Ayni paytda uning vujudini bir o‘y chaqmoqdek titratdi: “inson biror jiddiy yumush ila band bo‘lsa, uning zimmasiga mas’uliyatli vazifa yuklatilsa, kichik tashvishlar o‘zini ovora qilishga vaqt yetmaydi qoladi…”

Donishmand bu haqiqatni chopib borib, hukmdorga so‘zlab beradi va yechimini topganini aytdi.

– “Olampanoh, gar farzandingizni mahzunlik xolatidan chiqishini hoxlasangiz, unga mas’uliyatli vazifa buyuring. Butun vaqtini shu vazifaga band qiladigan mas’uliyat yuklang. Shahzodadagi muammolar sababi bekorchilik va o‘ziga nisbatan mas’uliyatsizligidir. Unga yuklangan mas’uliyat jiddiy va muhim bo‘lsa, o‘g‘lingiz shuncha tez hayotga qaytadi va yashashga intiladi”.

Mas’uliyat insonning bolalik davridan tarbiyalanib boriladi. Ota-onalar farzandlariga topshirilgan yumushni qanday bajarayotganini e’tibor bilan kuzatadilar (o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishi yoki bajarmasligi), ularga ko‘mak beradilar, bajargan ishlarining natijasi uchun javob berishga, har bir bajarilgan ish-harakat ma’lum oqibatlar keltirib chiqarishi haqida o‘ylashga va tahlil qilishga o‘rgatib boradilar. Bolalarda “mas’uliyat” tushunchasini shakllantirishda ota-onalarning shaxsiy namunasi ham muhim sanaladi. “Oiladagi turmush tarzi, axloqiy muhit, ota-onaning bir-biriga munosabati, hamda ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar, bolalarga dalda berish, ularni mustaqil ijobiy fikrlashga, o‘z-o‘zini nazorat qilishga o‘rgatib borish mas’uliyat tarbiyasining yanada muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi”.

Alloma Jaloliddin Rumiy hazratlari o‘gitlarining birida quyidagicha mulohaza yuritildi: “Sirtdan qaraganda shox mevaning o‘zidir, ammo aslida, shox meva uchun yaralgandir. Meva olish niyati bo‘lmaganda bog‘bon meva ekarmidi? Shunday bo‘lgach, meva daraxtdan paydo bo‘lgandek ko‘rinsa-da, aslida daraxt mevadan bino bo‘lgandir”. Bu jarayonda Rumiy hazratlari avlodlarning tarbiyasiga, ularning mas’uliyat bilan tarbiya qilishga ishora qiladi.

Mas’uliyat – kasbiy yoki ijtimoiy faoliyatni bajarish yoki muayyan xatti-harakatni amalga oshirish, shuningdek, jamiyat, davlat, ma’lum guruh yoki jamoa oldidagi burchini to‘liq anglash va javobgarlikni xis qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva N.J. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy mas’uliyatni shakllantirish pedagogik muammo sifatida. International scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337.

2. Арламов А.А. Методологические ориентиры воспитания личности гражданина России / А.А. Арламов // Педагогика. – 2010.

3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования//Высшее образование сегодня. 2003 № 5. – С. 34-42.

4. Равен Ж. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация. – М., 2002 – С. 258.

5. Стратегия модернизации сродержания общего образования: Материалы для разработки документов по обновлению общего образования. – М., 2001.

6. Ожегова С.И. Словарь русского языка. – М., 1990. – С. 916.

7. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Высш.шк., 1990. – С. 89-90.

8. Краткая философская энциклопедия. – М.: Прогресс; Энциклопедия, 1994.

Muxayyo MO‘MINOVA,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

PEDAGOGIK FAOLIYATDA TA’LIMIY MAQSADLARNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagogik faoliyat maqsadining tarbiyaviy vazifasi va mazmunini ijtimoiy hamda shaxsiy hodisa sifatida aks ettiruvchi ilmiy konsepsiyani ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammo ekanligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, pedagogik faoliyat maqsadining tarkibiy tuzilmasi, mohiyati va tarkibiy unsurlarining bir-birlarini taqozo etishiga yetarlicha e’tibor berilmaganligi, ta’lim va tarbiya mazmuni, shakllari va metodlariga tegishli bo‘lgan ham doimiy, ham o‘zgaruvchan komponentlarni aks ettirishi xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Pedagog, o‘qituvchi, o‘quvchi, ta’lim, tarbiya, maktab, muassasa, boshqaruv, tizim, maqsad, masala, faoliyat, tahlil, amaliyot.

В данной статье рассматривается актуальная педагогическая проблема разработки научного понятия, отражающего воспитательную задачу и содержание цели педагогической деятельности как социально-личностного явления. Также говорится о недостаточном внимании к взаимоисключающему характеру структуры, сущности и структурных элементов цели педагогической деятельности, отражающих как постоянные, так и переменные компоненты, относящиеся к содержанию, формам и методам обучения и воспитания.

Ключевые слова. Педагог, учитель, ученик, воспитание, обучение, школа, учреждение, управление, система, цель, проблема, деятельность, анализ, практика.

This article examines the actual pedagogical problem of developing a scientific concept reflecting the educational task and the content of the goal of pedagogical activity as a socio-personal phenomenon. There is also a lack of attention to the mutually exclusive nature of the structure, essence and structural elements of the purpose of pedagogical activity, reflecting both permanent and variable components related to the content, forms and methods of teaching and upbringing.

Key words. Teacher, teacher, student, upbringing, education, school, institution, management, system, goal, problem, activity, analysis, practice.

O‘tgan asrning 60-80-yillarida pedagogikada insonparvarlik g‘oyalari nazariy jihatdangina qo‘llanilgan bo‘lib, amalda esa avtoritar pedagogika asosiy o‘rinni egallagan.

Maqsad tarkibiy tuzilmasini o‘rganishda majmuaviy tadqiqotlarning yetarli emasligi shunga olib keldiki, bugungi kunda pedagogika fanida “Strategik maqsadlarni aniqlashda jamiyatning zamonaviy rivojlanishida ko‘zga tashlanuvchi muhim an’analarni inobatga olish shartmi?”, “O‘quv-tarbiya jarayonining tashkiliy vazifalari qanday shakllantiriladi?” degan savollarga aniq va asoslangan javob berish imkoniyati yo‘q. Bu kabi savollarga javob topishning qiyinligi jamiyat rivojlanishida ko‘zga tashlanuvchi muhim an’analarning xilma-xilligi, ularning barqaror xususiyatga ega emasligi bilan belgilanadi.

O‘zgaruvchan tarkibiy unsurlarni nafaqat olimlar, tadqiqotchilar, shu bilan birga UO‘TMning amaliyotchi-o‘qituvchilari yordamida aniqlash mumkin. Maqsadlarni belgilashda asosiy unsurlarning shaxs hayoti, harakatlari, ideallari va qiziqishlariga ta’sir etuvchi hamda hal qiluvchi rolni o‘ynovchi ehtiyojlarni bilishi lozim.

Pedagogik tizim beqarorlik xususiyatiga ega emas va beqaror rivojlanmaydi. Boshqaruv tufayli undagi o‘zgarishlar tartibli kechadi. Pedagogik tizimning asosiy un-

surlari bo‘lgan ta’lim va tarbiya boshqariladigan Strategik maqsadlar mazmunini ifodalaydi va natijalarni belgilaydi.

Maqsadlar turiga ko‘ra, boshlang‘ich, oraliq va yakuniy maqsadlarga bo‘linadi. Boshlang‘ich maqsad – amalga oshirilishi kutilayotgan faoliyat obrazi, fikran tasavvur qilinadigan ideal holat bo‘lib, u tahlil (analiz) va sintezning birligi va alohidaligi, modellashtirish, bashoratlash yordamida hosil bo‘lgan tasavvur va tafakkurdan tashkil topadi. Boshlang‘ich maqsadga o‘quv yili natijalarining tahlili misol bo‘la oladi.

Oraliq maqsad natijasiga maqsadni taxmin qilish vositalaridan farqlanuvchi, moddiy va real kuchga ega maqsadni amalga oshirish vositalari bilan erishiladi. Aynan shu jihatiga ko‘ra oraliq maqsad boshlang‘ich maqsadni yakuniy maqsadga aylantiradi. Oraliq maqsadning mazmunida rahbar faoliyatidagi barcha boshqaruv vazifalari: pedagogik tahlil, rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat hamda yo‘naltirishning ko‘rinishlari mavjud. Bu holat maqsadni taxmin qilish faoliyati mazmunining boyishini ta’minlovchi oraliq maqsadining universalligi to‘g‘risidagi xulosalarni tasdiqlaydi. Ya’ni:

1. Oraliq maqsadni amalga oshirish jarayonida boshlang‘ich maqsadning ko‘chishi (transformatsiyasi) ro‘y beradi, ya’ni maqsadni taxmin qilish jarayonida alohida, o‘rganilmagan omillari ta’sirida ularning ayrim unsurlari yangilari bilan almashadi. Natijada butunlik saqlanib qolgan holda oraliq maqsad asta-sekin o‘zining dastlabki xarakterini yo‘qotib boradi. Bu holat boshlang‘ich maqsadning yakuniy maqsad bilan “muvofiq kelmasligi”ni ifodalaydi.

2. Oraliq maqsad oldindan yakuniy maqsadga erishishga yo‘naltirilgan barcha o‘ziga xos vositalarning anglanmasligi bilan belgilanadi. Oldindan inobatga olinmagan vositalar va foydalanilayotgan vositalar sifati aynan oraliq maqsadni amalga oshirish jarayonini o‘zida aks ettiradi.

3. Oraliq maqsadning muvaffaqiyati ko‘plab xilma xil sharoitlar, obyektiv omillar hamda zarur vositalarning to‘g‘ri tanlanishi bilangina emas, maqsadni taxmin qilish va uni amalga oshirish vakolatiga ega shaxs imkoniyatlariga ham bog‘liq. Bu holat hal qiluvchi xususiyatga ega bo‘lishi mumkin va samarali natijani ta’minlaydi. Qayd etilgan xususiyat bir xil sharoitda ishlayotgan ta’lim muassasalariga taalluqli bo‘lsa-da, biroq muayyan maqsadga erishishda turli natijalar ko‘zga tashlanadi.

4. Boshlang‘ich maqsad uning amalga oshishi jarayonida qayta qurilsa, oraliq maqsad yanada muhim ahamiyatga ega va shu qadar o‘zaro aloqador bo‘lib, boshlang‘ich maqsaddan boshlangan bosqichli harakatni yakuniy maqsadga o‘tkazadi hamda bu jarayonning dinamik o‘sishini ta’minlaydi.

Maqsadni amalga oshirishga ta’sir etuvchi omillarning tabiati turlicha bo‘lib, ular boshlang‘ich faoliyatning muhim unsurlardan birini tashkil qiladi. Omillar maqsadni amalga oshirishga ta’sir ko‘rsatish bilan birga maqsadni taxmin qilishga yo‘naltirilgan rahbar faoliyatida muhim rol o‘ynaydi.

Omillarning tasnifiy asosini tashkil etuvchi ikki belgisiga tayangan holda ularning tartibini quyidagicha ifodalash mumkin:

– harakat yo‘nalishi bo‘yicha (tajrijiy va inqilobiy, qurilmaviy va qayta qurilmaviy, yaratuvchi va buzuvchi, tashqi va ichki, kuchli va kuchsiz, vaqtinchalik va doimiy, ijobiy va salbiy);

– boshqaruv darajasi va ularga rahbar tomonidan ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha (obyektiv va subyektiv, sharoit omillari va sabab omillari, tavakkallik va noaniqlik, ruxsat etilganlik va cheklanganlik, tasodifiy va zaruriy, hisobga olingan va hisobga olinmagan, rejali va rejasiz).

Tadqiqotni olib borishda maqsadning davomiyligi muammosi ham tahlil etildi.

Omillar munosabati va ular maqsadining davomiyligi ta’minlanganda sabab-oqibat aloqalari tizimli yondashuvni yo‘naltiradi. Maqsadni amalga oshirish jarayonida bir omilning boshqa ikkinchi omil bilan o‘zaro harakati tabiiy bo‘lib, ular maqsad davomiyligini bir necha taxminda ifodalasa-da, biroq natija yagona bo‘ladi. Maqsadni taxmin qilish jarayonida maqsad davomiyligini baholash ishonchli sharoitda rahbar tomonidan amalga oshiriluvchi faoliyatning murakkab ko‘rinishidir. Tavakkalchilik va noaniqlik omili boshqaruv subyektlarining barcha faoliyatida doimiy mavjud bo‘ladi. Natija asosida u yoki bu omilning ta’sirini yanada ko‘proq aniqlash mumkin.

Bizning nazarimizda, maqsadning davomiyligi: umumiy va xususiy, bevosita va bilvosita, kutilgan va tasodif, ijobiy va salbiy hamda boshqalardan iborat bo‘lishi mumkin.

Joriy maqsadlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish rahbarga kelgusida uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan mas’uliyat yuklaydi. Qo‘lga kiritilgan natija kelgusi o‘zaro harakatda ham hisobga olingan, ham tasodifiy omillar sifatida oldindan ko‘rish, ogohlantirish va bartaraf etish mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Maqsadning natijalanishida barcha omillar birgalikda namoyon bo‘ladi. Shu bois bir-birlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan omillar nafaqat yakuniy maqsadda, balki oraliq maqsadlarning o‘zgarishiga olib keluvchi faoliyat jarayonida ham aks etadi.

Maqsadlar oqibatida omillargina emas, shu bilan birga har bir omilning o‘ziga xos mazmuni ham namoyon bo‘ladi. Favqulotda vaziyatlarda to‘satdan shakllangan maqsadlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Taxmin qilingan va noaniqlik omillar ta’sirining yuzaga kelishida vaqt hal qiluvchi o‘lchov sanaladi. Bunday vaziyatlarda ommaviy zo‘riqishni bartaraf etish hamda intizom buzilishi (masalan, mashg‘ulotlarni ommaviy qoldirish, darslardan ketib qolish, pedagog va o‘quvchilar hamda ularning ota-onalari o‘rtasida turli ziddiyatlarning yuzaga kelishi va boshqalarning oldini olish talab etiladi. Ayni vaziyatda rahbar tezkor va aniq harakat qilishi zarur.

Shuningdek, quyidagi ikki sababga ko‘ra maqsad “noto‘g‘ri” yakunlanishi ham mumkin:

– boshlang‘ich bosqichda maqsadni amalga oshirish uchun vositalardan foydalanishda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘yish;

– keyingi bosqichlarda sust faoliyat ko‘rsatish.

Joriy va istiqbol maqsadlarni amalga oshirishda yutuqlarga erishish uchun subyekt va obyektlarning vazifalari, vaqti va vositalarini aniq belgilash, puxta o‘ylangan va asoslangan reja hamda dasturlarni tuzish maqsadga muvofiqdir. Maqsadlarni amalga oshirish jarayonida ko‘rilgan zarur choralar asosida reja va dasturlar mazmunan boyitiladi hamda to‘g‘ri yo‘naltiriladi.

Reja va dasturlarni to‘g‘rilash hamda yo‘naltirish ularni amalga oshirish jarayonida zaruriyat yuzasidan bajariladi. Ma’lumki, tasodifiy maqsadlar va favqulotda vaziyatlar rejalashtirilmaydi, shuning uchun tasodifiy maqsadlarni amalga oshirish jarayonida boshqaruv subyektlarining xatti-harakatlari qanday bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Shunga ko‘ra, strategik maqsad ko‘p ma’noli tushuncha sifatida e’tirof etiladi. Zamonaviy bosqichda pedagogik tadqiqotlarning xarakterli xususiyati maqsadning bosqichli tavsifi, istalgan obrazning moddiy natijada aks etishini ta’minlash holatlari sanaladi.

Pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari ta’lim muassasasining maqsadini aniqlash bilan belgilanadi. Ta’lim muassasasining maqsadi esa shaxsning har tomonlama rivojlanishi sanaladi.

Ta’lim va tarbiya maqsadlarini aniqlash muammolarining tadqiq etilishi maqsadlarn-

ing taxmin qilinishi o‘quvchi shaxsi kamoloti darajasini bashoratlash bilan birga amalga oshirilishi zarurligi haqidagi tezisni shakllantiradi.

Maqsadni aniqlashtirishning pozitsiyalaridan biri maqsad va vositalar, maqsadni taxmin qilish hamda maqsadni amalga oshirish dialektikasini aniqlashdan iborat bo‘lib, qolganlari strategik maqsadning tarkibiy tuzilmasiga tegishlidir.

Ta’lim va tarbiyada maqsadlar turli iyerarxik darajalarda ifodalanadi. Ko‘p darajalilik pedagogik amaliyotda ta’lim va tarbiya jarayonida bir xilda ifoda etilmay, ta’lim nazariyasi va amaliyotiga ko‘proq mos keladi.

Maqsadni taxmin qilishning zamonaviy nazariyasi va amaliyoti tarbiyada umumiy maqsadlarning jarayon mazmuni hamda tashkil etilishidagi qarama-qarshiliklar, ijtimoiy subyektlar, shuningdek, muayyan shaxsning ehtiyojlari bilan kelishuvi to‘g‘risida guvohlik beradi.

Shunday qilib, ta’lim maqsadlari o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, ularda muayyan faoliyat ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga imkon beruvchi ta’lim jarayonini aks ettiradi. Tarbiyaviy maqsadlar o‘quvchilarda ta’lim olish natijasida shakllanadigan sifatlarning o‘ziga xosligini belgilaydi va ularning natijasi shaxsning atrof-muhitga, o‘ziga hamda subyektlarga munosabatlarini shakllantirishdan iborat. Ta’lim-tarbiya maqsadlarining to‘g‘ri va aniq belgilanishi pedagogik jarayonning samaradorligini ta’minlashga yordam beradi.

Shunday ekan, UO‘TM faoliyatini tashkil etish va boshqarishda ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun zarur hisoblangan motivlar va motivlashtirishning ahamiyatini, umumiy ehtiyojlarni va mavjud imkoniyatlarni, subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni hamda umumiy manfaatlarni, shuningdek, strategik maqsadlarni o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda boshqaruv faoliyatining bosh mezoni hisoblanayotgan boshqaruv maqsadlarini shakllantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turg‘unov S.T. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Ped.f.d. ...diss. – T., 2007. – 26 b.

2. Ахлидинов Р.Ш. Социально-педагогические основи управления качеством общего среднего образования (на матер. национ. Программи по подготов. кадров): Автореф. дисс. ... д. пед. наук. – Т., 2002. – С. 14.

3. Якунин В.А. Обучение как процесс управления. – Л.:Изд–во ЛГУ.1978. – С. 160.

4. Карнеги Д. Как перестать беспокоиться и начать жить / Пер. с англ. – М.: Русская тройка, Комета, 1989. – С. 160.

5. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti: O‘quv qo‘llanma. – T.: Voris, 2006. – 96 b.

6. Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Yo. Menejment: Darslik. – T.: O‘qituvchi, 2001. – 203 b.

7. Internet resurslari: Общественные науки в Узбекистане https://core.ac.uk/download/162464783.pdf.

Dilorom ASQAROVA,
Namangan davlat universiteti, "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi dotsenti

BO'LAJAK TARBIYACHILARNI BADIIY ASARLARNI SAXNALASHTIRISHGA O'RGATISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatrlarini tayyorlash va tomoshalar ko'rsatish mazmuni, bosqichlari, bolalar dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishida turli o'yinlar va teatrlashtirilgan tadbirlarning ahamiyati, to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Teatr, stol teatr, soya teatri, barmoq teatri, qo'g'irchoq – qo'lqop, paxmoq teatri, arqonli, temirli, cho'pli, leska, ingichka sim, teatrlashtirilgan tasavvur, so'z boyligi.

В данной статье описаны содержание и этапы подготовки кукольных театров и показа спектаклей в организациях дошкольного образования, значение различных игр и театрализованных мероприятий во всестороннем развитии мировоззрения детей.

Ключевые слова. Театр, настольный театр, театр теней, пальчиковый театр, марионетка-перчатка, театр пуха, верёвочный, металлический, палочный, леска, тонкая проволока, театральное воображение, лексика.

This article describes the content and stages of preparing puppet theaters and showing performances in preschool education organizations, the importance of various games and theatrical events in the comprehensive development of the worldview of children.

Key words. Theater, table theater, shadow theater, finger theater, puppet-glove, fluff theater, rope, metal, stick, fishing line, thin wire, theatrical imagination, vocabulary.

O'zbekistonda ta'lim tizmining poydevori bo'lgan maktabgacha ta'lim bolalarni har tomonlama barkamol shakllantirishning dastlabki bo'g'ini sanaladi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama puxta tayyorlash davlat va jamiyat, oila hamda ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Teatr bola uchun katta ahamiyatga ega, bolalar u bilan uchrashuvni sabrsizlik bilan kutadi. Teatr mo'jiza yaratadi: quvontiradi, o'rgatadi, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularning xulqini korrektsiyalaydi, emotsional namoyon bo'lishiga ko'maklashadi, bolalarning nutqi, notiqlik qobiliyatlarini rivojlantiradi, o'ziga ishonchini oshiradi, omma oldida chiqish ko'nikmalarini egallashida yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatrlarini tayyorlash va tomoshalar ko'rsatish mazmunini bosqichma-bosqich amalga oshirish ijobiy imkoniyat beradi.

Birinchi bosqich:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatrini tayyorlashda jihozlar, ya'ni quyidagi moddiy ta'minot amalga oshiriladi:

– manba tanlash (ertak tanlash). Tanlangan ertak bolaning yoshiga mos kelishi;

– musiqa tanlash;

– qo'g'irchoq teatrini ko'rsatish rejasini tuzish.

Ikkinchi bosqich:

– ko‘zlagan maqsadga erishishda ertak mazmuniga ko‘ra qahramonlarni tanlash va so‘zlarini yod oldirish;

– qo‘g‘irchoqlarni yasash va kiyintirish;

– tarbiyachi bilan hamkorlikda she’rlarni yod olish.

Uchinchi bosqich:

– tarbiyachi va bolalar bilan hamkorlikda teatr turiga ko‘ra ertakni sahnalashtirish;

– qo‘g‘irchoq teatrini namoyish etish, bolalarni qiziqishlari va ularga yoqqan qahramonlar haqidagi fikrlarini aniqlash.

Qo‘g‘irchoq teatrining 5 ta turi mavjud:

1. Soyali qo‘g‘irchoq teatri;
2. Qo‘l qo‘g‘irchoq teatri;
3. Stol qo‘g‘irchoq teatri;
4. Marionetka qo‘g‘irchoq teatri;
5. Barmoqli qo‘g‘irchoq teatri;

Soyali qo‘g‘irchoq teatri 2 xil bo‘ladi: oq va qora. 1) “Oq” teatr uchun qora doskaga gazlamalar tortilgan bo‘ladi. Orqasiga yopishtiruvchi qoa‘oz yopishtiriladi. 2) “Qora” teatr uchun qora rangli shirma tanlanadi. Qo‘g‘irchoq teatri qahramonlari cho‘pga qoqiladi ular qora rangda bo‘ladi orqadan chiroq yoqib turiladi.

Qo‘l qo‘g‘irchoq teatrida qo‘g‘irchoqlar, ya’ni ertak qahramonlari qo‘lga kiygizilgan bo‘ladi. Qahramonlar shirma orqasida ko‘rsatiladi.

Stol qo‘g‘irchoq teatri 4 xili bo‘ladi:

– qo‘g‘ozdan yasaladi;

– kartondan yasaladi;

– taxtadan yasaladi;

– plastmassadan yasaladi.

Bu teatr stol ustida ko‘rsatiladi. Bu teatr turi maktabgacha ta’lim muassasalari uchun qulaydir.

Marionetka qo‘g‘irchoq teatri 3 xil bo‘ladi: arqonli, temirli, cho‘pli.

Bu teatr turida qo‘g‘irchoqlarning qo‘l va oyoqlari leska, ingichka sim yoki arqon bilan boa‘langan holda teatr o‘tkaziladi.

Barmoqli qo‘g‘irchoq teatrida qo‘g‘irchoqlar barmoqlarga kiygizilib qo‘g‘irchoq teatri ko‘rsatiladi. Teatr bolalarga xursandchilik va quvonch baxsh etish bilan birga katta tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Maktabgacha ta’lim muassasalarida katta spektakllarni qo‘yish mumkin emas. Kichik sahnali, kichik ertak asosida o‘zlarining o‘yinchoqlari yordamida qo‘yish mumkin. Bu kichik ko‘rinishlarning har biri ham bolalarda katta taassurot uya‘otadi va bayram ertaklariga ko‘tarinki rux baxsh etadi. Har qanday badiiy asar qo‘g‘irchoq teatri orqali ko‘rsatilsa, bolalar uchun yanada tushunarli bo‘ladi.

Qo‘g‘irchoqlar turlari:

– qo‘lqopli qo‘g‘irchoq turi;

– trossli qo‘g‘irchoq turi (simli);

– iplar yordamida (marionetka) boshqaradigan qo‘g‘irchoq turi;

– ochiq usulda boshqariladigan (planshetli) qo‘g‘irchoq turi;

– soyasi tushirilib o‘ynatiladigan qo‘g‘irchoq turi;

– niqob (maska) bilan ishlanadigan qo‘g‘irchoq;

– qo‘g‘irchoqlarni boshqarishda qo‘l harakati.

Qo‘g‘irchoq teatri aktyori uchun eng zarur bo‘lgan yo‘nalish bu uning qo‘l harakatchanligidir. Haqiqatdan ham inson xatti-harakatining eng faol ijrochisi bo‘lgan qo‘l

qo‘g‘irchoq teatrida o‘zining mo‘jizakorligi, sehrgarlik kuchini yanada yaqqol namoyon qiladi. Dramaturg asaridagi qiyofalar musavvir va qo‘g‘irchoq ustasining ijodiy ko‘magida dunyoga kelgan qahramonlar qo‘g‘irchoq teatri aktyori qo‘li bilan jonlanib, mantiqli, maqsadli xatti-harakatga moyil qilinadi. Bu o‘z o‘rnida qo‘g‘irchoq teatri aktyoridan qo‘llarining naqadar harakatchan, chiniqqan, chidamli bo‘lishini taqozo etadi. Shuning uchun qo‘g‘irchoqlarni katta mahorat bilan boshqarib, turli mantiqli xatti-harakatlar sodir qilish bilan birga, qo‘l yalang‘och holda, qo‘lqopli holatda yoki dumaloqcha kiygan holatda turli harakatlarni amalga oshirib, turfa obrazlar yaratadi va boy imkoniyatlarini namoyon etadi. Demak, qo‘g‘irchoq teatri aktyorning qo‘l harakatchanligi cheksiz imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak.

Sahnada bajarilayotgan harakat uch xil holatda bo‘ladi:

1. Jismoniy harakat bajariladigan ishning tashqi holati (kiyinish, gul taqdim qilish, o‘sma qo‘yish va boshqalar). Bu harakat asosan psixik harakatni amalga oshirish uchun moslama sifatida xizmat qiladi.

2. Psixik harakat inson ongiga, ruhiga, holatiga ta’sir qilib, uni o‘zgartirishga olib keladi (tushuntirish, maqtash, rad etish, kulish va h.k.).

3. So‘zli harakat – so‘z bu fikr bayoni. So‘zni sahnada aniq maqsadga erishmoq uchun aytiladi. So‘z inson ruhiyatiga, ya’ni intellektiga, tasavvuriga va his-tuyg‘ulariga har tomonlama ta’sir qilish kuchiga ega.

Jismoniy, psixik va so‘zli xatti-harakatlarning barchasi sahnada bir maqsadga erishish uchun yo‘naltiriladi.

Qo‘g‘irchoq teatrida qo‘g‘irchoqboz jonsiz o‘yinchoqqa jon baxsh etadi. Qo‘g‘irchoqboz soatlab oyna oldida mashq qilib, obrazni jonlashtirishga harakat qiladi. Shuning uchun qo‘g‘irchoqboz jismoniy sog‘lom, qo‘l va barmoqlari abjir, epchil bo‘lishi kerak. Chunki qo‘g‘irchoqbozning har bir qo‘l harakati qahramon fikrini ifodalab berishi kerak. Qo‘g‘irchoqboz har xil holatda, tizzalab o‘tirgan holatda, yotgan holda to‘siq ortida rol ijro etishi mumkin.

Ishtirokchilarning bo‘yiga moslab to‘siq yaratish kerak. To‘siq qanday balandlikda bo‘lishidan qat’i nazar, uning ustki qismiga biriktirilgan taxta (reyka) qo‘g‘irchoq uchun taxminiy yuradigan maydon hisoblanadi. Aktyor sahnada qanday yursa, qo‘g‘irchoq ham shartli maydonda xuddi shunday yurishi kerak, ya’ni reykadan pastga tushib ham, chiqib ham ketmasligi kerak. To‘siqdan qo‘g‘irchoqni uchdan ikki qismi tomoshabinga aniq ko‘rinishi shart. Sahna ichkarisiga uzoqlashgani sari qo‘g‘irchoqni balandroq ko‘tarish kerak, chunki to‘siqdan uzoqlashganda qo‘g‘irchoq tomoshabinga kichrayib ko‘rinadi.

Qo‘g‘irchoq teatri dekoratsiyalari ixcham bo‘lishi kerak. To‘siqda jihozlar qancha kam bo‘lsa shuncha yaxshi, chunki qo‘g‘irchoqlar harakati va ijrochilari uchun erkinlik va osonlik yaratiladi.

Qo‘g‘irchoq spektaklini musiqasiz tasavvur qilish qiyin, musiqa parda ochilganda, yopilganda, ko‘rinish o‘rtasida, sahna o‘zgarishidagi bo‘shliqlarni to‘ldirib turadi, spektaklni mukammalashtiradi.

Qo‘g‘irchoq teatri turlari:

– stol teatr;

– soya teatri;

– barmoq teatri;

– qo‘g‘irchoq – qo‘lqop.

Paxmoq teatrining tuzilishi va jihozlari. Ma’lumki, bolalarning dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishda turli o‘yinlar va teatrlashtirilgan tadbirlarning ahamiyati

kattadir. Bunda stol ustida o‘ynaladigan qo‘g‘irchoq o‘yinchoqlar teatridan keng foydaniladi. Paxmoq teatrining o‘ziga hos tomoni shundaki, kichkintoylar, asosan, ertak qahramonlarining aynan o‘zini ko‘radilar. Personajlar paxmoq ekranga yopishtiriladi. Ekran tayyorlash uchun balandligi 40, uzunligi 60 sm.li qalin karton yoki faner ustiga paxmoq gazlamasi yaxshilab yopishtiriladi. Bolalar uchun mo‘ljallangan paxmoq teatri ertak ishtirokchilari, personajlar, dekoratsiyalar, ertak matni, boshlovchi ertakchi bobo yoki momolardan iborat bo‘ladi. Paxmoq teatri uchun personajlar quyidagicha tayyorlanadi: personajlar karton qog‘ozdan qirqib olinadi va rangli bo‘yoqda, guashda bo‘yaladi.Tayyor bo‘lgan personajlar ertak matni bilan birga papkaga solib qo‘yiladi.

Quticha qo‘g‘irchoq. Qo‘g‘irchoqning bosh qismi uchun turli-tuman qutichalarni moslashtirish mumkin. Masalan: qaymoqdan, sutdan bo‘shagan kubik, silindr shaklidagi idishlar. Asosiysi unga bolaning qo‘li sig‘ishi kerak. Bolani o‘zi xohlayotgan mavzuga mos qutichalarni to‘plab qo‘yishga o‘rgatish kerak, detallarini esa, turli ashyolardan qirqish va yelimlash mumkin. Buning uchun bolalarga jihozlash uslubini ko‘rsatish kerak. Bolalar bilan shunday o‘yinchoqlar rasmlarini ko‘rib chiqish yasashning ikki varianti mavjud: figuraning butun yoki bosh qismini aks ettirish.

Bunda bolalar qo‘lga matodan yubka kiyib, mustaqil tika oladilar. Qo‘l barmoqlari qutticha ichiga berkitilgan. Bunday qo‘g‘irchoqlardan gapiruvchi qo‘g‘irchoq qilish mumkin. Bolalarga og‘zini qilish uchun tuynukcha qirqishga yordam berish kerak. Qutichaning ichidan tuynuk oldini ko‘rsatkich barmoq bilan qimirlatsa, go‘yoki qo‘g‘irchoq gapirayotganday tuyuladi.

Sakrovchi o‘yinchoq. Bunday teatr qahramonlarini yasash uchun dumaloq rezina kerak bo‘ladi. Qog‘oz bo‘laklaridan quyuq massa hosil qilish, rezina esa shu quyuq massa ichida qolishi kerak. Bu quyqadan har-xil qahramonlarning bosh qismini yasash mumkin. O‘yinchoqni yasashda qog‘oz, turli mato, paralon, sim, kleyonka kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.

2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi Qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.

3. Караменко Ю.Г. “Куколной театр-дошколъникам” М. Просвешений. O‘quv qo‘llanma/ – 1982 y.

4. Rahima Movlonova. Marhamat Satbayeva. ‘‘O‘quv ustaxonasida amaliy mashg‘ulot’’ – T.: “Ilm Ziyo” – 2010 y.

5. Aziza Murodova, Gulnoza Murodova. “O‘yinchoqlar yasash san’ati”. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti – T., 2008 y.

6. Nurmatova M.Sh., Xasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi. “Sho‘lpon” – T:. – 2010 y.

7. Nurmatova M.Sh., Xasanova Sh.T., D.Azimova. Ustahonada amaliy mashg‘ulot. “Musiqa” – T:. – 2010 y.

8. Elektron ta’lim resurslari / 1. www. tdpu. uz 2.www. pedagog. uz

Jaxongir BEGIJONOV,
Andijon davlat universiteti “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

BADIIY KULOLCHILIK MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mashg‘ulotlarning faol shakllari ma’ruza-dialog, muammoli ma’ruza, maslahat, suhbat, referat, ekskursiya, ishbilarmonlik o‘yini, munozara, davra suhbati, konferensiya turlari yoritilgan. Shuningdek mashg‘ulotlarni o‘tkazishning faol usullari: ko‘rgazmali qurollar, o‘z-o‘zini tarbiyalash darslari, muammoli ta’lim, amaliy topshiriq, muammoli topshiriq, muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, dialog, munozaralar haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Mashg‘ulot, ko‘rgazmali qurollar, o‘z-o‘zini tarbiyalash darslari, muammoli ta’lim, amaliy topshiriq, muammoli topshiriq, muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, dialog, munozara, polemik.

В данной статье рассматриваются активные формы обучения лекция-диалог, проблемная лекция, консультация, беседа, реферат, экскурсия, деловая игра, дискуссия, круглый стол, виды конференций. Также дается информация об активных методах проведения занятий: наглядных пособиях, уроках самообразования, проблемном обучении, практическом задании, проблемном задании, анализе конкретных ситуаций, диалоге, дискуссиях.

Ключевые слова. Тренинг, наглядные пособия, уроки самообразования, проблемное обучение, практическое задание, проблемное задание, анализ конкретных ситуаций, диалог, дискуссия, полемика.

This article discusses the active forms of learning lecture-dialogue, problem lecture, consultation, conversation, abstract, excursion, business game, discussion, round table, types of conferences. Information is also provided on active methods of conducting classes: visual aids, self-education lessons, problem-based learning, practical assignment, problem assignment, analysis of specific situations, dialogue, discussions.

Key words. Training, visual aids, self-education lessons, problem-based learning, practical assignment, problem assignment, analysis of specific situations, dialogue, discussion, polemic.

Pedagogikada ta’lim shakllari – bu mashg‘ulot turlari. Ular o‘quv jarayonini talabalarning ehtiyojlari va o‘quv-kognitiv faoliyat doirasida qo‘yilgan vazifalarga muvofiq tashkil etish imkonini beradi. Maqsadga erishish uchun mos shaklni tanlashga alohida e’tibor berish kerak, chunki u asosan jarayonning samaradorligini belgilaydi.

O‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishning shakllari va usullari – bu quyidagi rag‘batlantiruvchi ta’sir yo‘llari va usullaridir:

– aqliy faoliyatga;

– ta’lim sifatini oshirish yo‘llarini topishda kreativ yondashuvni ko‘rsatish;

– olingan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish.

Mashg‘ulotlarni o‘tkazishning shakllari va usullaridan unumli foydalanishning zaruriy sharti o‘qituvchining yuqori nazariy tayyorgarligi va uslubiy mahoratidir.

Shakllar va usullar bir-biri bilan bog‘liq. Bir tomondan, usullar yordamida shakllar aniq tarkib bilan to‘ldiriladi, boshqa tomondan, shakllar usullarni tanlashga ta’sir qiladi.

Darslarni o‘tkazish usullari quyidagilarga bo‘linadi:

Bilim, ko‘nikma, malakalarni egallash manbasiga ko‘ra:

– og‘zaki;
– vizual;
– amaliy.

Talabalarning faolligi va mustaqilligi darajasiga ko‘ra:
– tushuntirish va illyustrativ;
– axborot;
– qisman-qidiruv tizimlari;
– muammoli;
– tadqiqot.

Mashg‘ulotning shakli – bu ta’lim muassasasi o‘quv tizimi, ichki tuzilishi, uni o‘tkazishning ma’lum tartibi. Mashg‘ulotlarning faol shakllari – bu o‘rganilayotgan mavzu mazmunini to‘g‘ri tushunishga qaratilgan muammolarni jamoatchilik muhokamasi, tinglovchilarning faol o‘zaro aloqasi, ular o‘rtasida fikr almashish uchun mo‘ljallangan o‘quv jarayonini tashkil etish.

Mashg‘ulotlarning faol shakllari: ma’ruza-dialog, muammoli ma’ruza, maslahat, suhbat, referat, ekskursiya, ishbilarmonlik o‘yini, munozara, davra suhbati, konferensiya.

Mashg‘ulotlarni o‘tkazishning faol usullari: ko‘rgazmali qurollar, o‘z-o‘zini tarbiyalash darslari, muammoli ta’lim, amaliy topshiriq, muammoli topshiriq, muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, dialog, munozara, polemik.

Mashg‘ulotlarning faol shakllari quyidagilardan iborat:

Ma’ruza – bu ommaviy nutqning bir turi bo‘lib, uning davomida ma’ruzachi tinglovchilar bilan jonli aloqada bo‘lib, ma’lum bir mavzu, hodisa haqidagi g‘oyalar tizimini ochib beradi, tinglovchilarga muammoni tushunishga va ma’lum bir xulosaga kelishga yordam beradi.

Eng ko‘p ishlatiladigan ma’ruza turlari: ma’ruza-dialog, muammoli ma’ruza.

Ma’ruzaga quyidagi eng muhim talablar qo‘yiladi: ilmiy, yuqori nazariy daraja, hayot bilan bog‘liqlik, ravshanlik, tushunarlilik, ilmiy dalillar.

Konsultatsiya (maslahat) – bu o‘qituvchining murakkab va dolzarb nazariy savol, muammoni tushuntirishi; nazariyani, muammoni samarali mustaqil o‘rganish uchun zarur shart.

Maslahat turlari: shaxsiy, guruhli, sharhli, alohida masalalar bo‘yicha.

Suhbatlashish – bu mavzu bo‘yicha maxsus tashkil etilgan suhbat. Uning maqsadi o‘rganilayotgan muammoni yaxshiroq tushunish uchun fikr almashish orqali yordam berishdir.

Suhbatlashishning asosiy vazifalari: mashg‘ulotda – o‘z-o‘zini tarbiyalashda yordam berish, olingan bilimlarni amalda qo‘llash usullari bilan tanishish bajariladi, bilimlarni sinashda – tavsiya etilgan adabiyotlar o‘qilganmi? Amaliy topshiriq bajarildimi? Talaba olgan bilimlarini amalda qanday qo‘llashni biladimi? Kabi savollariga javob olinadi.

Konferensiya dolzarb nazariy va ilmiy-amaliy muammolarni jamoaviy o‘rganish va muhokama qilish shaklidir.

Konferensiyalar turlari va ularda ko‘rib chiqiladigan masalalar quyidagilardir:

– nazariy konferensiya – o‘qitish va tarbiyalash nazariyasining dolzarb muammolari;

– ilmiy-uslubiy – psixologik-pedagogik muammolar; o‘qitish va tarbiyalash metodikasi masalalari, ishning eng samarali shakl va usullaridan amaliy foydalanish; pedagogik tajribani umumlashtirish va ta’lim va tarbiya masalalari, pedagogika fanining

so‘nggi yutuqlari;

– ilmiy-amaliy – ishning mazmuni, shakllari va usullarini tahlil qilish; muayyan ta’lim muassasasida tarbiyaviy ishlarning dolzarb masalalarini ko‘rib chiqish.

Konferensiyada sinfda muhokama qilinganda eng yaxshi deb topilgan ilmiy ishlar (loyihalar), tezislar, ma’ruzalar mualliflarini nutq so‘zlash uchun jalb qilish tavsiya etiladi.

Davra suhbati fan, nazariya va amaliyotning dolzarb masalalarini jamoaviy muhokama qilish shaklidir. Ishtirokchilarni taklif etilganlarning tarkibi, muhokama qilinishi kerak bo‘lgan masalalar bilan oldindan tanishtirish kerak, shunda ular suhbatda ishtirok etishlari mumkin.

Bahs – bu munozarali masalani ommaviy og‘zaki muhokama qilish, unda ushbu masala bo‘yicha hisobotlar va, qoida tariqasida, raqiblarning nutqlari eshitiladi. Bahs mavzusi: o‘tkir nazariy muammolar, dolzarb masalalar, axloqiy muammolar, davriy nashrlardagi o‘tkir maqolalar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Muhokama qilinadigan masalalarning matni haqida yaxshilab o‘ylab ko‘rish, ularga muammoli xarakter berish va ishtirokchilarni ular bilan oldindan tanishtirish muhimdir.

Yakuniy so‘zda ishtirokchilarning e’tiborini munozara o‘z ishtirokchilariga bergan qimmatli va foydali narsalarga qaratib, natijalarni umumlashtirish kerak.

Ishbilarmonlik o‘yini – bu muayyan amaliy vaziyatlarni simulyasiya qiladigan faoliyat shakli, o‘quv jarayonini faollashtirish vositalaridan biri. Ishbilarmonlik o‘yinlari turlari va ular erishadigan maqsadlar: muayyan ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish; talabalar tomonidan olingan bilim va ko‘nikmalarni baholash; yangi yoki ma’lum bir faoliyatning ma’lum usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish.

Ishbilarmonlik o‘yinini tayyorlash va o‘tkazish elementlari:

1. Taqlid obyekti yoki o‘yin obyekti.
2. Maqsad, vazifalar.
3. Natijalar doirasi.
4. O‘yinchilarning rollari, funksiyalari.
5. Qoidalari, o‘yin shartlari.
6. O‘yin va rol o‘ynash hamkorlikning natijalari.
7. Hujjatli qo‘llab-quvvatlash.
8. Reytinglari.

Ekskursiya – vizual o‘rganish, tarbiyaviy ishlarning eng samarali shakllaridan biridir. Kursni, mavzuni o‘rgangandan so‘ng ekskursiyalarni o‘tkazish tavsiya etiladi.

Mavzuni o‘rganishdan oldin ekskursiyalar o‘tkazish mumkin. Ular talabalarni sinfda ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan masalalarga yo‘naltiradilar. Ekskursiyaga borishdan oldin talabalar aniq o‘quv vazifalarini qo‘yishlari, ularni ekskursiya rejasi bilan tanishtirishlari kerak.

Ko‘rgazmali qurollar – o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan ko‘rgazmali qurollar, texnik o‘quv qo‘llanmalari idrok samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Ko‘rgazmali qurollarning turlari: tabiiy-ishlab chiqarish ob’ektlari.

Vizual: 1) majoziy – fotosurat, rasm, plakat; 2) shartli-sxematik – xarita, diagramma, sxema, jadval.

O‘qitishning texnik vositalari: 1) ommaviy axborot vositalari – televidenie, kino; 2) o‘qitishning mahalliy texnik vositalari: ekran, ovoz, ekran-ovoz.

Ko‘rgazmali qurollardan quyidagicha to‘g‘ri foydalanish lozim:

– muammoni o‘rganish vaqtini 20-25 foizga qisqartirish;

– ko‘rib chiqilayotgan muammoni tushunishni 25 foizga yaxshilash;

– o‘quv materialini yodlash darajasini 35 foizga oshirish.

Mashg‘ulot uchun ko‘rgazmali qurollar oldindan tanlanadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi nafaqat vizualizatsiya vositalarini namoyish etadi, balki ularning mazmunini tushuntiradi, tafsilotlarga e’tibor qaratadi.

Ko‘rgazmali qurollar o‘qituvchini almashtirmaydi, faqat uning nutqini to‘ldiradi. Amaldagi ko‘rgazmali qurollar soniga nisbatan mutanosiblik tuyg‘usini kuzatish kerak, ular bilan haddan tashqari qiziqish yangi materialni idrok etishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Muammoli ta’lim – bu talabalar bilimlarni tayyor shaklda emas, balki mustaqil faoliyat natijasida, ta’lim muammolarini hal qilish natijasida oladigan usullar tizimi. Bu kognitiv vazifalarni mustaqil hal qilish uchun harakatlar tizimini o‘rgatishga yordam beradi.

Muammoli ta’lim darajalari:

1. O‘qituvchi muammoni qo‘yadi va shakllantiradi, talabalarni mustaqil ravishda uning echimini izlashga yo‘naltiradi.

2. O‘qituvchi faqat muammoni nomlaydi va talabalar o‘zlari uni shakllantiradilar va echimini topadi.

3. Talabalar muammoni mustaqil ravishda anglaydilar va shakllantiradilar, uni hal qilish yo‘llarini o‘rganadilar.

Muammoli ta’limni tashkil qilish usullari:

1. O‘quv materialining muammoli taqdimoti.

2. Qidiruv suhbati, uning davomida talabalar o‘qituvchi rahbarligida ta’lim muammolarini hal qilishadi.

3. Qidiruv xarakterining mustaqil ishi.

Muammoli ta’limning ajralmas sharti – olingan bilimlarni amaliy faoliyatga kiritish; olingan bilimlarni muayyan sharoitlarda qo‘llashni o‘rganish. Muammoli vazifalarning maqsadi haqiqiy muammolarni nazariy tushunish, ularni amalda hal qilish yo‘llarini izlash bo‘lishi kerak.

Dialog – bu ma’lum bir fikr yoki qarashlar tizimini isbotlash maqsadida ikki yoki undan ortiq odamlar o‘rtasida suhbat, intervyu, fikr almashish. Dialog – bu fikrlarni oshkor qilishning dogmatik bo‘lmagan usuli; bahs, munozara shakli; birgalikda aks ettirish shakli.

Mashg‘ulotlarni o‘tkazish usuli sifatida dialogning xususiyatlari quyidagilardir: rejasiz muloqot; so‘roq gaplarning ko‘pligi; kontekstuallik (dialog qismlarining bir-biri bilan semantik aloqasi); fikrlar, dalillarni taqdim etishning aniqlanmagan, erkin shakli; suhbatdoshlarning nusxalari; vaziyatlilik (ko‘rib chiqilayotgan vaziyatga munosabat).

Munozara – bu turli masalalarni muhokama qilish, kognitiv faoliyatni rivojlantirishning samarali usullaridan biri. Munozaraning vazifalari: turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash orqali haqiqatni aniqlash; o‘z g‘oyalari, qarashlari, pozitsiyalarini asoslash va himoya qilish; nizo jarayonida qarama-qarshiliklarni hal qilish; ilmiy qarashlarni rivojlantirish.

Muhokama – munozarali masalani jamoaviy muhokama qilish, ularni hal qilish yo‘llarini topish; o‘quv jarayonini faollashtirish usullaridan biri.

Muhokama mavzusi: bilim va jaholat, to‘liq va to‘liq bo‘lmagan bilimlar, ilmiy va kundalik bilimlar, bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyati va qobiliyatsizligi o‘rtasidagi qarama-qarshilikning aksi sifatida yuzaga keladigan muammolar.

Muhokama qoidalari: o‘z fikrlarini aniq shakllantirish; mohiyat bo‘yicha bahs; haqiqatni o‘rnatish istagi; raqib nuqtayi nazarini hurmat qilish; kamtarlik va o‘zini tanqid qilish; o‘zini tutish. Muhokama uchun mavzu talabalarning qiziqishlari va talablarini

hisobga olgan holda tanlanishi kerak.

Muayyan vaziyatlarni tahlil qilish – dolzarb muammolarni o‘rganish, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi aloqani mustahkamlashning faol usullaridan biridir.

Vaziyat turlari: vaziyatlar-illyustratsiyalar; vaziyatlar-mashqlar; vaziyatlar-baholash; muammoli vaziyatlar.

Vaziyatlarning mazmuni: rivojlanish, o‘zgarish bosqichidagi hodisalar yoki jarayonlar; yuzaga kelish, rivojlanish manbalari va sabablari, har qanday faktlar, hodisalarning me’yoridan chetga chiqish; ko‘rib chiqilayotgan vaziyatlarda ishtirok etadigan muayyan shaxslarning xatti-harakatlari yoki harakatlari.

Amaliy vazifa – bu olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ish turi. Vazifalar shakllari: shaxsiy va jamoaviy.

Xalq ijodiyoti an’analari talabaning estetik g‘oyalarini shakllantirish, shuningdek, uning maxsus qobiliyatlarini rivojlantirish uchun asos bo‘lishi kerak. O‘qituvchining vazifalaridan biri bu qobiliyatlarni, xususan, kreativlikni tan olish, ularni to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltirish, tanlangan material – loyni qayta ishlash uchun bilim va ko‘nikmalar asoslarini berishdir. Talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish samarali bo‘lishi uchun ushbu materialning o‘ziga xos xususiyatlarini (loy) va uni qayta ishlash usullarini batafsil o‘rganish kerak bo‘ladi.

Kulolchilik mahsulotlarini sanoat ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyasi murakkab uskunalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bizning eksperimental ishimizning vazifalaridan biri ommaviy materiallar, asbob-uskunalar va asboblardan foydalangan holda loyni qayta ishlash texnikasini, shuningdek, o‘quv jarayonida kulolchilik mahsulotlarini tayyorlashning oddiy usullarini ishlab chiqishdir.

Xom ashyo va materiallar. Kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi eng muhim nuqtalardan biri – bu xom ashyo – loyni tayyorlashdir. Rassom g‘oyasining muvaffaqiyati va mahsulot sifati loyning qanchalik ehtiyotkorlik bilan tayyorlanishiga bog‘liq. Shuning uchun xom ashyo va materiallarni tanlash va tayyorlashga bo‘lgan talab oshadi. Xom ashyoni tanlash bir necha bosqichlardan iborat.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, tabiiy xom ashyoning xususiyatlari va uni qayta ishlash texnologiyasi, asbob-uskunalar va jihozlarga ishonchli egalik qilish g‘oyalarni samarali amalga oshirishga yordam beradi va natija kreativ kompetensiyani rivojlantirish bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. – T.: Fan, 1977. – 149 b.

2. Egamov X. Bo‘yoqlar bilan ishlash. – T.: O‘qituvchi, 1981. – 56 b.

3. Ergashev Q. Yoshlarning ma’naviy tarbiyasi. – T.: Ma’naviyat, 1999. – 40 b.

4. Xolmatov B. Naqqoshlik. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 64 b.

5. Xudayberganov. K. YOzuvlarga yashiringan tarix. Xiva: Xorazm, 1996. – 72 b.

6. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993. – 224 b.

7. Qosimov Q. Naqqoshlik: Badiiy shakl to‘garagi mashg‘ulotlarining mazmuni va metodikasi. (To‘garak rahbarlari uchun qo‘ll.) – T.: O‘qituvchi, 1982. – 72 b.

8. G‘ulomov K. Naqqoshlik. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 96 b.

9. Haqqulov A. Ta’mir san’ati. – T.: Mehnat, 1991. – 100 b.

Irodahon HASANOVA,
Namangan davlat universiteti, "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi doktoranti

BOLA SHAXSINI RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK DIOGNOSTIKANING O'RNI

Annotatsiya

Inson jismoniy rivojlanishini diagnoz qilishi ancha oson kechadi, buning uchun ayrim mashqlar bajarilgach, uning natijasiga binoan xulosa chiqarish mumkin, lekin ruhiy, ma'naviy, ijtimoiy rivojlanishni tashxis qilish mashaqqatli faoliyatning mahsuli hisoblanadi. Ushbu maqolada diagnoz qilish usullaridan foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Tashxislash, aqliy rivojlanish, Kern-Irasek, "Grafik diktant", yo'riqnoma, suhbat, kuzatish, ko'nikma, tayyorgarlik, diagnoz qilish, yondashish, omil.

Гораздо проще диагностировать физическое развитие человека, для чего, выполнив определенные упражнения, можно сделать выводы по его результатам, но диагностика психического, духовного, социального развития является продуктом кропотливой деятельности. В этой статье рассматривается использование методов диагностики.

Ключевые слова. Диагностика, умственное развитие, Керн-Ирасек, "Графический диктант", инструктаж, беседа, наблюдение, умение, подготовка, диагностика, подход, фактор.

It is much easier to diagnose human physical development, for this, when certain exercises are performed, it is possible to draw conclusions according to its result, but the diagnosis of mental, spiritual, social development is a product of strenuous activity. This article reflects on the use of diagnosis techniques.

Key words. Diagnosis, mental development, Kern-Irasek, "Graphic dictation", instruction, conversation, observation, skill, preparation, diagnosis, approach, factor.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiya olishi masalasi davlat darajasidagi dolzarb masalaga aylandi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar dasturulamal bo'lmoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi, Prezidentimiz tomonidan Maktabgacha ta'lim tizimi boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlari", "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi", O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Inson jismoniy rivojlanishini diagnoz qilish ancha oson kechadi, buning uchun ayrim mashqlar bajarilgach, uning natijasiga binoan xulosa chiqarish mumkin. Lekin ruhiy, ma'naviy, ijtimoiy rivojlanishni tashxis qilish mashaqqatli faoliyatning mahsuli hisoblanadi. Bu maqsadda qo'llanayotgan metodikalar muayyan darajada murakkab bo'lib, har doim ham to'g'ri natija beraveradi, deb xulosa chiqarish, shoshilinch qaror

qabul qilish noxush oqibatlarga olib keladi. Pedagogik amaliyotda pedagog-psixologlar va o‘qituvchilar shaxsning alohida sifatlarini o‘rganadilar, lekin olingan natijalarga asoslangan holda, rivojlanishning barcha tarkiblariga umumiy baho berishga har doim ham musharraf bo‘lavermaydilar. Chunki tajriba uzluksizligini ta’minlash integrativ yondashishni taqozo etadi, ko‘p omillik tahlilgina uning yechimiga ijobiy ta’sir etadi, xolos.

Diagnostika (yunon tilida “dia” – shaffof, “gnosiss” – bilim degan ma’noni bildiradi) – o‘rganilayotgan obyekt yoki jarayon to‘g‘risida aniq ma’lumot olishning umumiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Diagnostikaning ahamiyatini meditsina nuqtayi nazaridan qarasak, kasallik belgilari va ularni kelib chiqish sabablari to‘g‘ri aniqlansa, davolanish natijasida bemor tuzalib ketishining kafolati oshadi. Xato tashxis esa faqat shifokorlarning aqliy harakatini yo‘qqa chiqaribgina qolmay, balki kasalning tuzalish imkoniyatini ham susaytirishi mumkin. Tana a’zolari salomatligi to‘g‘risida aytilgan ushbu fikrlar ruhiy sog‘liqqa ham bevosita aloqadordir.

Ta’lim oluvchilarning shaxsiy-xarakterologik sifatlarini aniqlashning, hech bo‘lmaganda oddiy metodikasini egallash, uni tatbiq etish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim unsurlaridan biridir. Oliy va o‘rta maxsus o‘quv maskanlari o‘qituvchilari ko‘pincha o‘quvchi-yoshlarning aqliy qobiliyatlarini o‘rganishga e’tibor qaratadilar, ammo ularning tarbiyalanganlik darajalarini va xulqiy nuqsonlarini korreksiyalash muammolarining uzluksiz ta’lim tizimida yagona uzviylik va yaxlitlik nuqtayi nazaridan talqin qilishga, uning yechimlarini topishga o‘rinishmaydi. O‘quvchilar va bolalarning aqliy rivojlanishlari ko‘p jihatdan mustaqil fikrlashga, umumiy tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liq. Ularning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish, zarur bo‘lsa xulqiy nuqsonlarini bartaraf etish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir.

Ijtimoiy pedagogik tashxis – pedagogik omillarning samaradorligini oshirish maqsadida shaxsga axloqiy, intellektual, estetik, jismoniy, sotsiologik, ekologik va ijtimoiy-psixologik ta’sir ko‘rsatish haqidagi axborotlarning majmui. Yoshlar jamoasidagi har bir shaxsning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish uchun avvalambor “tarbiya” va “tarbiyalanganlik” atamasining tarkibiy qismlari, mezonlari nimalar bilan belgilanishini tushunish zarur.

Shaxsning o‘zi, o‘z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilish orqali hosil bo‘lgan obraz – ‘‘Men’’ obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi insonning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilaydi va barkamollik mezonlari bo‘lib hisoblanadi.

Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida inson kamolotida tarbiyaning o‘rnini alohida ta’kidlab, “Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin, bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo‘ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o‘ssa, nasihatni qulog‘iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil bir rasvoi odam bo‘lib chiqadi”, - deb ta’kidlaydi. Shunday ekan, bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyot muammolarini tadqiq qilish va yechimini topishda pedagogik tashxis hamda korreksiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogikada ilgari yetarli darajada e’tibor berilmagan yo‘nalish –pedagogik tashxis shaxsning ma’naviy qiyofasini sotsiokorreksiyalash, xususan, o‘qish va xulq-atvordagi nuqsonlarni bartaraf etish masalalari bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega

bo‘lib borishi bilan belgilanadi va u quyidagilarda o‘z aksini topadi:

1. Mafkuraviy tizimning o‘zgarishi, ijtimoiy yangilanish tarbiyalanganlikka yangicha yondashish, qarash, munosabat, mezon, talab, mohiyat, mazmun, shakl, atribut taqozo etishi.

2. Milliylik bilan diniylikning uyg‘unlikka ega ekanligi, millatlararo munosabatlardagi bag‘rikenglik tarbiyalanganlik fenomenologiyasi ko‘lamini yanada kengaytirishni talab qilishi.

3. Bilimdonlik va tarbiyalanganlik zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol yondashuv asosida talqin qilinishiga ijtimoiy zarurat tug‘ilishi.

4. Pedagogik tadqiqotlarda psixologik nazariya va amaliy-ilmiy apparatni qo‘llanilishi, muhitga muvofiqlantirilishi tendensiyasi kuchayishi.

5. Test, testologiya (prinsiplari, funksiyalari, parametrlari, interpretatsiyasi) hamda matematik statistika imkoniyatlaridan foydalanilishi, diagnostika, korreksiya turkumlari tatbiqiyligi namoyish etilishi.

6. Xulq-atvorda og‘ish, ya’ni deviant holati ko‘lami kengayishi va uni bartaraf qilish ehtiyoji umumbashariy ahamiyat kasb etishi kabilar.

Yoshlar jamoasida pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya ishlari metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirilganda jamiyatning har bir aozosi ongiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirishda, mafkuraviy immunitet hosil qilishda, ularning o‘zligini anglashda, vatanparvarlik va fidoiylik tuyg‘ularini, millatlararo totuvlikni, diniy bag‘rikenglikni, tolerantlikni shakllantirishda hamda komil insonga xos bo‘lgan fazilatlarni: sofdillik, to‘g‘riso‘zlik, adolatparvarlik, saxovatlilik, or-nomuslik, tantilik sifatlarini tarkib toptirishda ijobiy samaralarga erishish mumkin.

Pedagogik tashxisning jamiyatimizdagi yosh avlod ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishdagi ahamiyatini ilmiy asoslab berish, ularning ma’naviy qiyofasi, ularni sotsiokorreksiya qilish yo‘llari va qonuniyatlari, intellektual salohiyati orasidagi aloqadorlikni aniqlash, mavjud ma’naviy-ma’rifiy ishlarning bugungi holatidan kelib chiqqan holda uning ta’lim bosqichlariaro uzviylik va uzluksizligini ta’minlaydigan metodikani yaratish dolzarb muammo hisoblanadi.

Agar:

– bolalarning tarbiyalanganlik darajasini tashxislaydigan va xulqiy nuqsonlarini korreksiyalaydigan mavjud metodikalar chuqur tahlil etilib, ulardan amalda foydalanish tizimi ishlab chiqilganda;

– yoshlar uchun yaxlit uzluksiz tarbiya tizimini ta’minlaydigan metodik majmualar yaratilganda;

– turli tarbiyaviy tadbirlar (suhbatlar, kechalar, treninglar, sport-shoulari, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi bellashuvlar) uyushtirilib, ularning imkoniyati, qiziqishlari, kamolot bosqichlari, jinsiy tafovutlari inobatga olingan holda turli jamiyat, klub va to‘garaklarga jalb qilinganlarida;

– ularning intellektual rivojlanishlari va qobiliyatlari, oila, mahalla, guruh va o‘quv tashkilotdagi pedagogik-psixologik muhit atroflicha o‘rganilganda, oliy va o‘rta ta’lim maktabi bilan oila hamkorligi rivojlantirilganda yoshlarning bilim olish va tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqini korreksiyalash jarayoni samarali kechishi mumkin.

“Pedagogik diagnostika” atamasi ilk bor 1968-yili nemis olimi Karlxayns Ingenkamp tomonidan fanga kiritildi.

Pedagogik, psixologik, sotsiologik adabiyotlar tahlili tashxislashga turli qarashlar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu pedagog shaxsining diagnostikasi (o‘zini-o‘zi tashxislash),

ota-onalar, pedagoglar tomonidan o‘quvchilar jamoasini tashxislash; ma’muriyat, mutasaddi mutaxassislar va ta’lim bo‘limlari uslubiyotchilari tomonidan o‘quv dargohining faoliyatini tashxislash va hokazolar bo‘lishi mumkin.

“O‘zining maqsadi, vazifalari, tatbiq qilish sohasi bo‘yicha pedagogik diagnostika hamisha mustaqil yo‘nalish bo‘lgan. Ammo hanuzgacha pedagogik diagnostikani mavhum va turli bahs-munozaralarga sabab bo‘luvchi yo‘nalish, uni “dastur sifatidagina qabul qilish mumkin”, – deb hisoblaydigan olimlar ham yo‘q emas. Shu sababli bugungi kunda “pedagogik diagnostika” atamasining bir necha talqinlari mavjud bo‘lib, ular mazmun-mohiyatiga ko‘ra xilma-xildir.

Bir qator tadqiqotchi olimlar pedagogik diagnostikani: “Pedagogik faoliyatni optimallashtirishda, qulaylashtirishda zarur bo‘lgan axborotni qo‘lga kiritish jarayoni” deb ta’kidlaydilar.

Ya. Yirasek, A. Kern yoshlarning bilim olishga moyilliklarini aniqlashga yo‘naltiruvchi testlari, D.B. Elkoninning “Grafik diktant”i, A.L. Vengerning “Nuqtalar bo‘yicha chizish”, I. Shvansarning “Aqliy rivojlanishni diagnostika qilish”, V.V. Xolmovskayaning “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning qobiliyatlarini tashxislash” kabi metodikalari mashhurdir.

Rus olimi V.I. Zverev: “Pedagogik diagnostika – bu turli pedagogik vaziyatlarni o‘rganish, aniqlash, ta’lim tizimi qatnashchilarining xilma-xil qobiliyatlari darajasini bilishdan iborat jarayon”, - degan fikrni ilgari suradi. Boshqa rus olimasi L. Denyakina: “Pedagogik diagnostika – bu pedagogning o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashxislashda individual-malakaviy sifatlarini belgilovchi, shaxsning ijodiy taraqqiy topishida ko‘makchi, pedagogik jamoaning muvaffaqiyatini oshiruvchi faoliyatdir”, - deb yozadi.

Barcha tavsiflarni umumlashtirib, quyidagicha fikr bildirishni joiz deb o‘ylaymiz: pedagogik diagnostika – pedagog shaxsining va u bilan muloqotga kirishuvchilarning pedagogik tizim natijalarini tahlil qilish, kafolatlash va tavsiyalar berish jarayoni.

Pedagogik diagnostika: birinchidan, individual ta’lim jarayonini qulaylashtirishi, ikkinchidan, jamiyat talabidan kelib chiqqan holda, ta’lim-tarbiya natijalarini to‘g‘ri aniqlashni taminlashi, kafolatlashi, uchinchidan, o‘ziga xos ta’lim yo‘nalishi va mutaxassislikni oqilona tanlashga yordam berishi kerak. Pedagogik diagnostika yordamida ma’naviy-ma’rifiy jarayon tahlil qilinadi va ta’lim-tarbiya natijalari aniqlanadi.

Tashxislashda nafaqat ta’lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o‘zgarish dinamikasini ham nazarda tutish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.

2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.

3. Kayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. TDPU nashriyoti. 2017 y.

4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq – T., 1994. – 89 b.

5. Qodirova F. Maktabgacha pedagogika. darslik. 2019 y. – T.: Tafakkur nashriyoti.

6. Asqarova D.Q. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi. o‘quv qo‘llanma. – Namangan. 2020.

Jasur ABDURAXMONOV,
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi

O‘QUV JARAYONI SAMARADORLIGININING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari insoniyatning ta’lim sohasidagi barcha yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan va har doim sivilizatsiyaning qirralaridan biri bo‘lib, umuman jamiyatning rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib kelgan. Maqolada o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish nazariy asoslari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlari. Ilm, fan, taraqqiyot, texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, pedagogik jarayon, ta’lim, o‘qitish, uslub, talaba, o‘qituvchi, shaxs, subyekt, obyekt.

Современные образовательные технологии воплотили в себе все достижения человечества в области образования и всегда были одним из краев цивилизации и неразрывно связаны с этапами развития общества в целом. Об этом и говорится в статье, в частности о теоретических основах повышения эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова. Наука, знания, развитие, технологии, педагогические технологии, педагогический процесс, образование, преподавание, стиль, студент, преподаватель, личность, субъект, объект.

Modern educational technologies have embodied all the achievements of mankind in the field of education and have always been one of the edges of civilization and are inextricably linked with the stages of development of society as a whole. This is what the article says, in particular about the theoretical foundations of improving the effectiveness of the educational process.

Key words. Science, knowledge, development, technologies, pedagogical technologies, pedagogical process, education, teaching, style, student, teacher, personality, subject, object.

Oliy ta’limda o‘quv jarayoni o‘ziga xos murakkabligi bilan ajralib turganligi sababli, ulardan samarali foydalanish uchun eng maqbul, ilmiy asoslangan sharoitlarni aniqlash, tasdiqlangan davlat ta’lim standartlari asosida yangi ta’lim texnologiyalarini yaratish uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalarini tahlil qilish dolzarb vazifaga aylanadi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari insoniyatning ta’lim sohasidagi barcha yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan va har doim sivilizatsiyaning qirralaridan biri bo‘lib, umuman jamiyatning rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib kelgan. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining elementlarini buyuk mutafakkirlar va olimlarning nutqlarida uchratish mumkin. Masalan, qadimgi yunon faylasufi Suqrot o‘z nutqlarida savol-javob usulidan foydalangan. Bu usul haqiqatni bilishga yordam bergan. Qadimgi yunon pedagogi M.F. Kvintilian o‘qituvchilarga har bir talabaga diqqat va diqqat bilan yondashishni maslahat bergan.

O‘rta asrlar Sharqning buyuk alloma va mutafakkirlari bebaho va ulkan pedagogik meros qoldirganlar. O‘z asarlarida ta’lim va tarbiyaning usullari, vositalari, metodlari va tashkiliy shakllarini ko‘rsatib berdilar.Ularning bebaho qimmatli maslahatlari shundan iboratki, X asrga kelib, ular insonni ongli faoliyatda munosabatlarning subyekti deb hisoblab, ‘‘shaxs’’ tushunchasini asoslab berishdi. Ular insonning ma’naviy, jismoniy va intellektual mohiyatining birligi sifatida yaxlit ko‘rinishini shakllantirdilar. Buyuk alloma

Al Buxoriy ‘‘Hadis’’ kitobida ‘‘Bolaga rahm-shafqat ko‘rsatish, uni o‘pish va quchoqlash lozimligi haqida’’gi bobida bolalarni erkin tarbiyalash masalalarini yoritib bergan. Zamonaviy shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarida o‘qituvchi va talabaning munosabati tenglik va yuksak insoniy qadriyatlarga asoslaydi. Bu qadriyatlar Al Buxoriyning ‘‘Hadis’’ kitobining ‘‘Xayrixoh so‘zli kishi haqida’’gi, ‘‘Qo‘pollik va so‘kish haromligi haqida’’gi boblarida yoritib bergan. Ushbu kitobda qo‘pol munosabat odam o‘ldirilishi bilan tenglashtirilgan.

Abu Ali Ibn Sino talabada shaxsni ko‘rgan, uni ta’lim jarayonida subyekt deb hisoblagan. U bilim olishning: kuzatish, tajriba, amaliyot kabi usullariga alohida urg‘u bergan. Ibn Sino fikricha, o‘rganish insonning qobiliyati va iste’dodini hisobga olib amalga oshishi kerak. Uning aytishicha, biror hunar o‘rgatish uchun o‘qituvchi har bir talabaning individual qobiliyati va iste’dodini bilishi kerak, shundan keyingina talaba o‘zini hayot vositalari bilan ta’minlay oladi.

Beruniy esa talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va samaradorligiga, kuzatish, amaliy va tajriba ishlari kabi usullarga alohida e’tibor bergan. Umar Xayyom uchun talabada mustaqil fikrlashni rivojlantirish ustuvor vazifa edi. M. Ulug‘bek ta’limning amaliy yo‘nalishi muhim ahamiyatga ega, deb hisoblagan.

G‘ijduvoniy va Bahovuddin Naqshband esa ‘‘Naqshbandiya’’ ta’limotining asosi sifatida yoshlar tomonidan ma’lum bir hunarni majburiy egallash talablarini qo‘ygan. Ular zamonaviy bilim va ishlarni parallel ravishda egallash tarafdorlari edilar. Amalda bu tamoyil zamonaviy individual ta’lim uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Navoiy har bir talabaning individual ta’lim olish qobiliyatini aniqlashga, indiviual ta’limni tashkil etishga alohida ahamiyat bergan. U shunday deb yozgan edi: ‘‘Odamlar tabiatan teng bo‘lishi mumkin, lekin ularga turli fazilatlar beriladi’’.

O‘rta asrlarda ta’limning rivojlanishiga gumanistlar – italiyalik Vittorino di-Feltre, fransuz Rable, angliyalik Tomas Mor qarashlari va asarlari ta’sir ko‘rsatdi. Ular gumanistik ta’lim, mustaqil fikrlashni, ijodkorlikni, faollikni rivojlantirish, ko‘rgazmali qurollardan keng foydalanish, nazariy ta’limni ish bilan uyg‘unlashtirish tarafdorlari edilar.

Pedagogika fanining rivojlanishidagi alohida bosqichi XVII asr edi. Birinchi navbatida Chexiya pedagogi Y.A.Komenskiy nomi bilan bog‘liq. Uning «Buyuk didaktika» ilmiy asari mohiyatan pedagogikaning fan sifatida shakllanishiga asos bo‘ldi. Komenskiy ommaviy ta’lim va tarbiya tizimi nazariyasini yaratgan.

Binobarin, mutaxassis tayyorlash tizimi zamonaviy axborot oqimini o‘zlashtirishga imkoniyat yaratishi, ilmiy-tadqiqot faoliyati, individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnik axborot, o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan ijodiy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi kerak. Intensiv ilmiy-texnika taraqqiyoti davridagi o‘quv va ilmiy adabiyotlar mutaxassislar tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq, kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligi ortib borayotgani bilan ajralib turadigan zamonaviy sharoitda mutaxassisning professionalligi mazmunidan kelib chiqqan holda ushbu muammoni hal qilishda tizimli yondashuv zarur.

Bunday sharoitda talabalarda original va nostandart fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o‘z ustida tizimli, puxta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish talab etiladi.

Zamonaviy mutaxassislar quyidagilar bilan: tanqidiy fikrlash, bilimlarning harakatchanligi, ijodkorlik va kasbiy faoliyatda moslashuvchanlikning doimiy o‘zgaruvchan sharoitlariga tez moslashuvini shakllantirishga qaratilgan kunikmalarga tavsiflanishi kerak. Mutaxassis muayyan kasbiy vazifalarni bajarganda samarali mustaqil ishlarni tashkil etishda ushbu fazilatlarga ega bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, ijodiy yondashuv va tashabbus zarur o‘quv va uslubiy materiallar majmuasi bilan ta’minlangan

(L.S.Vigotskiy, I.D. Nikulin, Sotsiologning ish kitobi). Bu yerda shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quv-uslubiy materiallar majmuasining o'zi mutaxassisning ishlab chiqarish va kasbiy faoliyatining o'zgaruvchan sharoitlariga tez moslashish, mustaqil samarali o'zlashtirish imkoniyati kabi talablarga javob berishi kerak.

Bunday sharoitda faqat zamonaviy pedagogik texnologiyalar davlat ta'lim standartlari darajasida kadrlar tayyorlashni kafolatlaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyada eng muhimi takomillashgan o'quv maqsadlarini shakllantirishdir. Ular o'lchanadigan va baholangan bo'lishi kerak. Shu maqsadda amerikalik olim-o'qituvchi B. Blumning pedagogik texnologiyasi ko'pincha qo'llaniladi (I.L.Bim, chet tilida davlat ta'lim standarti loyihasi). B. Blumning taksonomiyasi uchun o'quv maqsadlarining asosiy toifalari: bilim, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholashdir.

Ta'lim maqsadlarini kategoriyalar bo'yicha farqlash pedagogik texnologiyada ''o'lchash vositalari'' bo'lib xizmat qiladigan diagnostik testlarni tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

An'anaviy pedagogika ta'lim maqsadlarini belgilashda noaniqlik va shuning uchun kutilgan o'quv natijalarining yetishmasligi bilan tavsiflanadi. Ushbu holatda qo'llaniladigan ta'lim maqsadlari aniq o'lchanmaydi. Pedagogik texnologiya o'quv materialining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlaydi, o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydi.

Jamiyat taraqqiyoti nafaqat ta'lim tizimining uzluksiz rivojlanishini, balki ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismi sifatida ta'limni takomillashtirishni ham talab etadi.

Jadal ilmiy-texnik taraqqiyotning tobora ortib borayotgan talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash insonning barcha potensial imkoniyatlarini amalga oshirgandagina amalga oshirilishi mumkin.

Bu talablar ramziy va ko'rgazmali axborot imkoniyatlaridan to'liq foydalanadigan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini yaratishga olib keldi.

Mashg'ulotlarning samaradorligi talabaning ta'lim jarayonidagi o'rniga, o'qituvchining unga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Bu munosabatlar asta-sekin rivojlanmoqda. Ta'lim va o'qitish metodlarining rivojlanishi bilan talabaning ta'lim jarayonidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi.

Qadimgi Arab qo'lyozmasida yozilgan: ''Bolaning ko'zlari uning orqasida''. ya'ni, Sharqda qadim zamonlarda talabaga nisbatan jismoniy jazo qo'llanilgan. Sinf-dars tizimi davrida avtoritar o'qitish texnologiyasi ustunlik qilgan. Ta'limning bu tizimi bilan faqat o'qituvchi ta'lim jarayonida ''subyekt'', talaba esa faqat ''obyekt'' hisoblanardi, chunki u hali to'liq shakllangan shaxs emas, deb hisoblanilgan. Intensiv ilmiy-texnik taraqqiyot davrida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari shakllanib bormoqda. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarida talaba shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishi, tabiiy qobiliyatlarning to'la ro'yobga chiqishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi (I.L.Bim, I.V.Blauberg). Ushbu ta'lim texnologiyalarida o'qituvchi va talaba ta'lim jarayonining ''subyekti'' sifatida ishtirok etadilar. Ya'ni pedagogik jarayonda o'qituvchi-talaba munosabatlari tenglik, demokratiya va erkin tarbiya tamoyillariga asoslanadi.

2021-2022 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasidagi barcha oliy ta'lim tashkilotlari Kredit-modul ta'lim tizimiga o'tdi. Bu o'tish jarayonida, kredit nima, modul nima, ta'lim sifatiga qanday ta'sir ko'rsatadi kabi savollarga biz javob topishimiz darkor.

Modul-qism degani, fanlarni qism-qismlarga o'qitish degan ma'noni anglatadi. Talabalar fanni o'zlashtirish uchun fan bloklarga, qismlarga, bo'linmalarga bo'linib o'qitilishini nazarga tutiladi. Bu yerda biz modulli texnologiyalardan foydalanamiz.

Birinchidan, modulli ta’lim texnologiyasi eng yaxshi inson miya idrok tizimiga moslashgan.

Modulli ta’lim asoslari bosh miya po‘stlog‘ini modulli tashkil etishga asoslanadi.

Ikkinchidan, modulli o‘qitish faoliyatga asoslangan yondashuvga asoslanadi. Oliy ta’limdagi o‘quv jarayoni esa – mutaxassislarni tayyorlashda professional faoliyatiga asoslanadi.

Rasman modulli ta’lim tizimi ilk bor 1972-yilda Tokioda bo‘lib o‘tgan Yuneskoning Jahon konferensiyasida taklif etilgan. Modulli texnologiya funksional tizimlarning umumiy nazariyasidan, tafakkur neyrofiziologiyasidan va pedagogik psixologiyadan kelib chiqadi.

Modulli o‘qitishning zamonaviy nazariyasi va amaliyotida yondashuvning ikki turi ajratiladi: subyekt-faoliyat yondashuvi va tizim-faoliyat yondashuvi. Ushbu yondashuvlar asosida mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha bir qator tushunchalar ishlab chiqildi. Barcha tushunchalar faoliyatga asoslangan yondashuvga asoslanadi, bu nuqtayi nazardan o‘quv jarayoni umuman yoki muayyan o‘quv intizomi (fanlar) doirasida talaba tomonidan modulli ta’lim dasturining mazmuniga muvofiq kasbiy faoliyat elementlarini izchil o‘zlashtirishga qaratilgan.

Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil ishlariga alohida o‘rin berilmoqda. Bunda, o‘quv-uslubiy adabiyotlar bilimlarni shakllantirishda ishtirok etish bilan birga, ko‘nikmalarni egallashga ham xizmat qilishi lozimligi ta’kidlanadi.

Modulli o‘qitish ushbu talablarga to‘liq javob beradi, o‘quv materialini individual va mustaqil ishlab chiqishni ta’minlaydi.

Mavjud bo‘lgan o‘quv jarayonining tashkil etilishi mustaqil ish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam bermaydi. O‘z navbatida, bu holat shaxsiy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish istagini kamaytiradi. Xorijiy tadqiqotchilarga ko‘ra, oliy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri rivojlanayotgan talabalar vazifasi mustaqil fikrlash, maqsadlar uchun intilish, rivojlanayotgan qobiliyat, individual va guruh ishi bo‘lishi kerak.

Modulli o‘qitishning mohiyati talabaning individual modullardan tuzilgan individual modulli dasturni ishlab chiqish bo‘yicha nisbatan mustaqil ishidan iborat. Har bir modul to‘liq professional harakat bo‘lib, uning rivojlanishi operatsiyalar – qadamlar orqali o‘tadi. Maxsus fanlarning modulli dasturi asosida mutaxassislarni tayyorlashda o‘qitishning ayrim metodlari ishida ketma-ket keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Виготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 1977 – . 246.

2. Зимняя И.А. Ключевие компетенси – новая парадигма результата современного образования. //http://www.eidos.ru/journal/2006/0505.htm

3. Гершунский, Б.С. Россия, образование и будушие, 1993

4. Наин А.Й. Проблема систематизатси научной терминологи педагогики М.: Сибирский педагогический журнал, 2005 г., – . 246.

5. Зеер Э.Ф. Личностно-ориентированное профессионалное образование / Э.Ф. Зеер ; Урал гос. проф. ун-т. – Экатеринбург, 1998. – . 125.

6. Зимняя И.А. Педагогическая психология : учебник для Вузов / И.А. Зимняя. - 2-э изд. доп., испр. и перераб. – М.: Логос, 2000. – . 384.

7. Лернер Й.Л. Дидактические основий методов обучения / ‘.Л.Лернер. – М.: Педагогика, 1981.– . 186.

Furqat MAVLONOV,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, "Pedagogika va umumiy psixologiya" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

HARBIY XIZMATCHILARNI TAYYORLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada harbiy pedagogik jarayonda qo'llaniladigan harbiy xizmatchilar tayyorlash texnologiyalarining asosiy xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim shakllarini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish, metodologik reja va o'quv dasturlarini maqsadli yo'naltirish tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. Harbiy ta'lim, zamonaviy metodlar, modul tizimi, harbiy xizmatchi, masofaviy ta'lim, bosqich, uslub.

В статье раскрыты основные особенности технологий подготовки военнослужащих, применяемых в военно-педагогическом процессе. Также проанализировано обогащение форм обучения в военно-учебных заведениях современными технологиями, методический план и целевая направленность учебных программ.

Ключевые слова. Военное образование, современные методы, модульная система, военнослужащий, дистанционное обучение, этап, методика.

The article reveals the main features of the technologies for training military personnel used in the military pedagogical process. Also, the military educational muasasas analyzed the enrichment of forms of education with modern technologies, the methodological plan and the targeted orientation of training programs.

Key words. Military education, modern methods, modular system, military personnel, distance education, stage, style.

Pedagogik texnologiyaning mohiyatini tushunishning asosiy pozitsiyalaridan biri uning metodologiyadan tub farqini asoslashdir. O'qitishning uslubiy tizimi versiyasidagi texnologiya va metodologiya o'qituvchining rejalashtirilgan o'quv jarayonini maqsadi, dizayni, amalga oshirish, tashxislash, tuzatish va keyinchalik takrorlash bo'yicha harakatlarining ketma-ketligidir.

Shu bilan birga, ularning o'xshashligiga qaramay, ular sifat jihatidan kamaytirilmaydi. Texnologiya va metodologiya bir-birini to'ldiradi. Agar metodologiya o'qituvchi va talaba harakatlarining algoritmi bo'lsa, unda texnologiya bir qator bosqichma-bosqich harakatlarni nazarda tutadigan ssenariy bo'lib, loyihalash metodologiyasi bilan bog'liq holda shakl va vositalarni o'zgartiradi.

Harbiy pedagogikada harbiy xizmatchilarni tayyorlashning turli texnologiyalarini loyihalash va joriy etish bo'yicha katta tajriba to'plangan. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilarni tayyorlash texnologiyalari ko'p hollarda reproduktiv bo'lib, oliy harbiy maktab didaktikasining ilmiy va amaliy asoslarini rivojlantirishning klassik darajasini aks ettiradi. Assotsiativ-refleks konsepsiyasi va aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga, shuningdek, harbiy xizmatchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish usullariga asoslangan o'qitishning tushuntirish-illyustrativ va axborot texnologiyalari keng tarqaldi.

larni to‘g‘ri talqin etmaslik va ko‘r-ko‘rona buzilish holatlari takrorlanaverar ekan, tizimda natijadorlikka erishish mushkul. 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarga muvofiq “aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta’lim sifatini ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish hamda kambag‘allikni qisqartirish”[1] ekan, mazkur jarayonda mamlakat va millat ertasi tarbiyachilarining boshchilari – maktab direktorlarining huquqiy bilimlarini rivojlantirishga va o‘qitish metodikasini takomillashtirishga jiddiy ehtiyoj seziladi. Yangi qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar ta’limni modernizatsiya qilishni talab etadi. Bugungi kunda maktab direktorlarining faoliyatida yuzaga kelayotgan ba’zi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari rahbarlarning huquqiy ongi va huquqiy kompetentligining yetarli darajada oshirishni talab etmoqda.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi mamlakatlari boshqaruvida va ta’lim beruvchilarning ehtiyojlari, talablariga asoslangan holda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida qonun ustuvorligini ta’minlash, rahbar kadrlarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan turli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlari faoliyatida huquqiy (mehnat huquqi) savodxonligini rivojlantirish orqali muassasada rahbar kadrlarning boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar va islohotlar samaradorligini ta’minlash “xalq ta’limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etishga bog‘liq”[2].

Maktab direktorlarining huquqiy savodxonligi va kompetentligini rivojlantirish orqali ta’lim muassasasida sog‘lom psixologik muhit, ichki va tashqi ta’sirlardan, ma’muriy-buyruqbozlikdan himoyalanishga va eng muhimi, umumiy o‘rta ta’limni samarali boshqarishga erishiladi.

Respublika tasarrufidagi maktabgacha va maktab ta’limi tizimida faoliyat yuritayotgan maktab direktorlari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik va mehnat huquqiga oid qonun buzilish holatlari, xususan, jinoiy, ma’muriy va mehnat huquqiga doir qonunbuzarliklar o‘rganildi va tahlil qilindi. Mehnat huquqiga doir huquqbuzarlik statistikasi 2022-yil holatiga ko‘ra, 11 216 nafarni tashkil etdi[3]. Bu juda yuqori ko‘rsatkich. Bunday huquqbuzarliklar sababi tahlil qilinganda bugungi kunda yuzaga kelayotgan ko‘plab nizolarning sababi yuqori turuvchi organlarning maktab va maktab direktori faoliyatiga noqonuniy aralashuvi. Maktab direktori ta’lim tashkilotini boshqaruvchisi sifatida o‘zining vakolati doirasida huquq va majburiyatlarga ega. Ammo ayrim yuqori turuvchi vakolatli organlarning soha faoliyatiga noqonuniy aralashuvi tizimda faoliyat yurituvchi rahbar kadrlarni obro‘sizlantirish, huquqlarini poymol qilish va boshqaruv faoliyatida o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik hamda nokreativlikni keltirib chiqaradi. Bugungi sohaga doir islohotlarning maqsadi, ta’lim sifati va samaradorligiga erishish bo‘lib, eng avvalo, maktab direktorlarini boshqaruvchi sifatida va pedagog sifatida nufuzi, mavqye-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF–27-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.03.2023 yil, 06/23/27/0121-son. URL.: https://lex.uz/docs/6396146.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 5-sentyabrdagi PF–5538-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 yil, 06/18/5538/1840-son. URL.: https://lex.uz/docs/3893445.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2022-yil 18-yanvardagi ¹1/00-03/18-444-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan xatiga ilova.

yi oshirilmas ekan ta'lim sifati samaradorligiga erishish qiyin. Davlat mustaqilligining o'tgan yillari mobaynida pedagoglarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda nufuzini oshirishga doir qator narmativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini oshirish hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etildi. Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ–637-son (23.09.2020 y.) Qonunning 45-moddasida pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari ko'rsatib o'tilgan: pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek, o'z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi[4].

Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi.

Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatishga, shuningdek, ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmasligi qat'iy belgilangan hamda sohaviy qonunda pedagog xodimlarning quyidagi huquqlari normalangan:

– o'z sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish;

– o'quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish;

– o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek, tegishli o'quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko'rsatish;

– zamonaviy pedagogik shakllarni, o'qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanish;

– kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish.

Garchand, ushbu muhim huquqlar qonun hujjatlarida keltirib o'tilgan bo'lsa-da, amalda o'z haq-huquqlarini yoki ishlashi uchun munosib sharoitni talab qilishi amalda bugungi davr nuqtayi nazaridan aytganda talabga javob beradimi, yo'qmi? - degan haqli savol tug'iladi. Bu borada sohaga doir ishlab chiqilgan qonun va qarorlar mutasaddi rahbarlar tomonidan ijroga yo'naltirilishi yoki qonunlarga itoat, hurmat va qadriyat sifatida qarashda aynan rahbar kadrlarning o'zi o'rnak, namuna bo'lishi zaruratga aylanmoqda. Rahbar va xodim o'rtasidagi mehnat munosabatlarida, xodimlarni ishga qabul qilish va u bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qilish ish beruvchi tomonidan amalga oshirilishi, mehnat faoliyatiga munosib sharoit yaratish va tartibga solishda mehnat to'g'risidagi qonunchilikda shunday normalar belgilangan. Jumladan, Mehnat kodeksining "Pedagog xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari" deb nomlangan 501-moddasida quyidagilar nazarda tutilgan[5]:

Ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlariga haftasiga o'ttiz olti soatdan ortiq bo'lmagan ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligi belgilanadi va yillik uzaytirilgan mehnat ta'tili beriladi. Pedagog xodimlar ish vaqtining aniq davomiyligi va yillik uzaytirilgan mehnat ta'tilining davomiyligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomoni-

[4] // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 yil, 03/20/637/1313-son. URL.: https://lex.uz/docs/5013007.

[5] // O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (501-modda) (30.04.2023 y.) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022 yil, 02/22/798/0972-son. URL.: https://lex.uz/docs/6257288.

dan Ijtimoiy-mehnat masalalari bo‘yicha Respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Ta’lim tashkilotlari mehnatga haq to‘lash uchun mavjud mablag‘lar doirasida mustaqil ravishda lavozim maoshlariga tabaqalashtirilgan ustamalar belgilashga hamda mehnatga haq to‘lash va uni rag‘batlantirishning turli shakllarini qo‘llashga haqli ekanligi mazkur qonun hujjatlarida pedagoglarning nufuzi va mavqeyini oshirish hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish aniq belgilangan. Yuqorida keltirib o‘tilgan qonun hujjatlarida, pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishga to‘sqinlik qilish ta’qiqlansa-da kundalik faoliyatda mahalliy hokimliklar tomonidan faoliyatga noqonuniy aralashuv holatlari ko‘plab kuzatilmoqda. Ushbu mahalliy hokimlik rahbarlari shaxs sifatida rahbar sifatida, boshqaruv nuqtayi-nazaridan maktab direktori, kasbiy faoliyatini inobatga olganda pedagog xodimlarning xizmat vazifalariga to‘sqinlik qilishi, maktab direktorlari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri bekor qilishga haqli emas va bu holatni mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga zid deyish mumkin. Shu o‘rinda maktab direktorlarining huquqiy savodxon yoki o‘z haq-huquqlarini talab qilish bilan cheklanmasdan boshqaruv faoliyatini qonun talablariga muvofiq tashkil etish va noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etmaslik huquqiy bilim va ko‘nikmalarini amaliy faoliyatida qo‘llay olishning yangicha mexanizmlarini ishlab chiqishga zarurat tug‘ilmoqda. Shu o‘rinda maktab direktorlari va barcha pedagog xodimlarning o‘z faoliyatlarni qonun doirasida mustaqil olib borishlari uchun huquqiy kompetensiyaga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiq. Bugungi kunda ta’lim sifati va samaradorligiga erishishda maktab direktorining huquq va manfaatlari ham kafolatlanishi zarur. Ana shunda pedagog xodimlar va butun keng jamoatchilikning maktab, ta’lim sifati va pedagog xodimlarga bo‘lgan qarashlari batamom o‘zgaradi. Xorijiy mamlakatlar tendensiyasida, xususan, rivojlangan Singapurda maktab direktorlari juda qadrlanishi kuzatildi. Ta’lim vazirligining yuqori martabali rahbarlari sifatida e’tirof etiladi. Singapurda ikki asosiy qadriyat mavjud bo‘lib, asosiy yetakchilik va rivojlanishni boshqaradi. Birinchidan, ularni rivojlantirish uchun katta mablag‘ sarflanadi. Kasbiy o‘sish va xalqaro o‘quv safarlari to‘liq moliyalashtiriladi va direktorlar barcha mashg‘ulotlar, jumladan, uzoqroq o‘quv mashg‘ulotlari uchun to‘liq maosh oladilar. Ikkinchidan, direktorlarga qarorlar qabul qilishda yuqori darajadagi avtonomiyalar beriladi, chunki ularning rivojlanishiga yo‘naltirilgan investitsiyalar asosida ular katta professional tajriba, chuqur va keng bilim bazasiga ega bo‘ladilar[6]. O‘rganishlar jarayonida nodavlat ta’lim muassasalarining maktab direktorlari va pedagog xodimlarning faoliyati va ta’lim sifati samaradorligi davlat ta’lim muassasalariga nisbatan yuqori ekanini quyidagi holatlarda:

– tahlil qilinganda boshqaruv faoliyatini qonunchilikka muvofiq mustaqil tashkil etilishi;

– yuqori turuvchi tashkilotlarning noqonuniy aralashuviga yo‘l qo‘yilmasligi;

– boshqaruv va pedagogik faoliyatni kreativ olib borishda munosib mehnat sharoitlarining yaratilganligi;

– mehnat faoliyati samaradorligini rag‘batlantirishning innovatsion usullaridan oqilona foydalanilganligi;

– ichki mehnat tartib qoidalariga qat’iy amal qilishi yaqqol kuzatildi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, nodavlat maktablarning ish tajribalarini davlat umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshqaruv faoliyatiga tatbiq etish, yuqori turuvchi mahalliy hokimliklarning faoliyatga noqonuniy aralashuvini cheklash, vakolat ramkasini qaytadan

[6] https://ncee.org/quick-read/shaping-strong-principals-in-singapore-success-by-design.

ko‘rib chiqish hamda mehnat va barcha huquqiy munosabatlarga doir normativ-huquqiy hujjatlarni qadriyat sifatida o‘zlashtirib, ustuvorlik berish tartibini ishlab chiqish, sohada faoliyat yurituvchi rahbarlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda tuman adliya bo‘limlarining mas’uliyatini va tashabbuskorligini oshirish maqsadga muvofiq. Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish jarayonida maktab direktorlarining (mehnat huquqiga doir) huquqiy kompetentligini aniqlash mezoni va ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi va ayrim hududlarda amaliyotga tatbiq etildi. Mazkur baholash mezonlarini huquq sohasininig ayrim (moliyaviy huquq, iqtisodiy, ma’muriy va bola huquqlariga doir) ko‘rsatkichlari ishlab chiqilib, barcha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatiga tatbiq etishga ehtiyoj mavjudligi kuzatilmoqda. Maktab direktorlarining huquqiy (mehnat huquqi) kompetentligini takomillashtirishda normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlashning natijador faoliyatiga qaratilgan raqamlashtirish jarayoni, ya’ni inson omilisiz maktabda ish yuritish tartibi va hujjatlarni o‘rganishni o‘zlashtirish, tahlil qila olish va ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash, qog‘ozvozlikdan voz kechish va vaqt rejimiga amal qilish, mehnatga oid huquqbuzarliklarning tizimli sodir etilishini oldini olishga, shaffof va adolatli boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (30.04.2023 y.) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y. 03/23/837/0241-son. URL.:https://lex.uz/docs/6445145.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ–637-son (23.09.2020 y.) Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y. 03/20/637/1313-son. URL.: https://lex.uz/docs/5013007.

3. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (30.04.2023 y.) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022 y. 02/22/798/0972-son. URL.: https://lex.uz/docs/6257288.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 11-maydagi PF–134-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022 y. 06/22/134/0407-son. URL.: https://lex.uz/en/docs/6008663.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF–27-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.03.2023 y. 06/23/27/0121-son. URL.: https://lex.uz/docs/6396146.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 2017-yil 15-martdagi 140-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y. 11-son, 167-modda. URL.: https://lex.uz/docs/3137130.

Gulnoza SIDDIQOVA,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

O‘QUVCHIIARNING MUSIQIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRSHDA DIDAKTIK OMILLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkomol inson qilib voyaga yetkazishda musiqiy kompetentlikni shakllantirish, didaktik o‘yinlar orqali musiqaviy estetik tasavvurlarni boyitib, dunyoqarashini kengaytirish haqida ko‘rsatmalar jamlangan.

Kalit so‘zlar. Kompetentlik, janr, ritm, tembr, dinamika, kompetensiya, transpositsiya, tonlik, ijro.

В данной статье обобщены указания по обогащению музыкально-эстетического воображения и расширению мировоззрения посредством дидактических игр, формированию музыкальной компетентности в целях превращения молодого поколения в зрелую во всех отношениях личность.

Ключевые слова. Компетентность, жанр, ритм, тембр, динамика, компетентность, транспозиция, тональность, исполнение.

This article summarizes instructions on how to enrich the musical aesthetic imagination and broaden the worldview through didactic games, forming musical competence in making the young generation a mature person in all respects.

Key words. Competence, genre, rhythm, timbre, dynamics, competence, transposition, tonality, performance.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkomol inson qilib voyaga yetkazishda nafosat tarbiyasining ahamiyati benihoyat kattadir. Nafosat tarbiyasi mazmunan serqirra bo‘lib, ularning ichida musiqa tarbiyasi eng asosiy o‘rinni egallaydi. Shu bois ta’lim-tarbiya oldidagi maqsad, musiqa o‘qituvchisidan pedagogik faoliyatini zamonaviy tashkil etish va ijodkorlik faoliyatini oshirib, hayotiy misollar bilan boyitib borishni va o‘quvchi ongiga yetkazib berishni talab etadi.

Xalq pedagogikasi o‘sib, rivojlanib borayotgan bir davrda o‘quvchilarda musiqiy kompetentlikni shakllantirish kuylash, tinglash va ijodkorlik faoliyati bilan bir qatorda musiqa savodini o‘rgatish juda muhim. Ayniqsa, xalq musiqiy namunalarini o‘rganish, atoqli san’atkorlar ijodidan dars jarayonida keng foydalanish har bir musiqa o‘qituvchisi oldiga alohida ma’suliyat yuklaydi. Bugungi kunda musiqa mashg‘ulotlari o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va ruhiyatiga mos ravishda tanlanishi, musiqa janrlari, musiqa nazariyasi tarixi va boshqalar yuzasidan suhbatlar, munozaralar uyushtirish, muommoli vaziyatlar yaratish notaga qarab kuylash, cholg‘u asboblarni chalish, musiqaga ritmik jo‘r bo‘lish, musiqali topishmoqlarni qamrab olib, mazmun jihatdan bolalarni qiziqtira olish kerak.

Musiqa repertuari o‘quvchilarda jonajon Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatni e’zozlash, do‘stlik, hamjihatlik rahm-shavqat kabi xislar musiqiy obrazlar orqali idrok etishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Bolalarda turli xarakterdagi musiqalarga qiziqish va ta’sirchanlikni tarbiyalash, musiqiy idrokni rivojlantirish, o‘zbek xalqining mumtoz kuylariga muhabbat uyg‘otish,

musiqiy taassurotlarni boyitish, tovushlar baland-pastligi, ritm, tembr, dinamikasini ajrata olish, turli janrlar, marsh, ashula, raqsga oid qobiliyatini rivojlantirish musiqa darsining asosiy vazifalaridir.

Dars jarayonida ijrochilik malakalarini shakllantirishda quyidagi xolatlarga rioya qilish zarur: tovushni to‘g‘ri ohangli ijro etish, musiqa ostida ritmik harakatlarni ifodali bajara olish, cholg‘u asboblarni tovush tembiriga ko‘ra ajrata bilish, bolalar cholg‘u asboblarda chalishni o‘rgatish, o‘tirib kuylaganda qo‘llarni tizzalar ustiga qo‘yish, turib kuylaganda esa qo‘llar ikki yonga erkin tushirish, gavda va boshni zo‘riqtirmasdan to‘g‘ri tutish, nafas olishda ko‘krak-yelkalarni ko‘tarmasdan, shovqinsiz nafas olish kerak.

Ushbu xolatlarga to‘liq rioya etilganda bolalardagi musiqiy kompetentlik uyg‘unlashadi va jamoa bo‘lib kuylash kompetensiyasi to‘liq shakillanib boradi.

O‘quvchilarga dasturdagi ashulalarni kuylatishda, albatta ovozlarni sozlash uchun o‘rgatilgan, asarini qaysi tonlikda yozilganligini aniqlab, tovushlarni kuylatish lozim. Undan keyingina yangi ashulani o‘rgatishga o‘tish kerak.

Ovoz va eshitish qobilyatlarni rivojlantirish uchun bir yoki ikkita mashqlar kuylattiriladi, primar tovushlardan boshlab, bolalarni turli ohanglardan, oddiy chaqiriq-javoblardan tayyorgarliksiz kuy yaratishga undash: biror kichik kuylarni boshlab, davomini kuylab berishga undash ham samarali natija beradi.

Bolalarni kuylatishda quyidagi metodik ko‘rsatmalarga amal qilish zarur:

1. Baqirib, kuchanib ashula aytishga yo‘l qo‘yilmasin, bolalarning o‘ziga xos tiniq ovozda aytishlariga erishilsin.

2. Yuqori tissiturada, ovozning ashula aytishga qulay bo‘lagi, uzoq va ko‘p ayttirilmasin.

Z. Bolalar ovoziga noqulay tonliklarda ayttirilmasin.

4. Dars davomida beto‘xtov ashula ayttirilmasin.

5. Noqulay tonlikdagi ashulalarni qulay tonlikka transpazitsiya ko‘chirish va ijro imkoniyatiga moslashtirish zarur.

Bolalarni ikki ovozga ajratgandan keyin, ularni guruhlarga bo‘lish ham qo‘l keladi. Har bir ovoz guruhning alohida kuylanishi o‘quvchilarni ko‘p ovozlikka tayyorlab boradi va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi o‘sadi, mustaqillik xissi paydo bo‘ladi.

Darsni sifatli va samarli o‘tishi uchun musiqa mavzuga oid ko‘rgazmali qurollar va didaktik o‘yinlardan foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Jumladan: “O‘ylab top”, “Chalib ber”, “Men ijrochiman”, “Men derijyor”, “Men qaysi asbobni chalyapman”, “Ovozidan top” kabi didaktik o‘yinlar shular jumlasidandir.

O‘quvchilarni musiqiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishda nota savodxonligi bilan birga, milliy cholg‘u asboblarimiz bilan tanishtirish, ularning tovush tembrlarini anglab, idrok etish ham juda muhim.

Amaliy faoliyatlar jarayonida milliy cholg‘ulardan keng foydalanish o‘yin faoliyatlarida cholg‘u tovushlarini og‘izda immitatsiya qilib hosil etish, ijrochilik usullarini qo‘l xarakatlari bilan ifodalash, bunda cholg‘u asboblari shiqqildoq, doirachalar, surnaychalar, dutor, rubob va boshqalardan keng foydalanish, ovozini eshittirish, har xil pantomimik xarakatlar orqali asboblarni nomlarini topish ham mumkin.

Musiqa o‘qituvchisi o‘yin o‘tkazishdan oldin tanlangan o‘yin mavzuga mosligi, nomi, maqsadi, qoidasi va bolalar faolligini oshirishga qaratilganligiga alohida e’tibor qaratmog‘i lozim.

Yuqorida tavsiya etilgan o‘yinlardan “Ovozidan top” o‘yinini o‘tkazish quyidagicha bo‘ladi:

– O‘yinning nomi: “Ovozidan top”.

– O‘yinni maqsadi: bolalarni milliy musiqa asboblari haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O‘yinning qoidasi: o‘qituvchi bolalarga musiqa asboblarining surnay, doiracha, nay, rubob, nog‘ora kabi cholg‘ularni ovozlarini eshittiradi. Bolalar tinglaydilar va qaysi milliy cholg‘u asbobi ovozi yangrayotganligini topadilar, guruhlarini aniqlaydilar.

O‘quvchilardagi musiqiy faollikni oshirishda darsdan tashqari tashkiliy to‘garaklar, maktablarda o‘tkaziladigan turli mavzudagi tadbirlar, kechalar, tabiat qo‘ynida o‘tkaziladigan sayru-sayohatlar, bayramlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarni musiqa vositasi orqali estetik tarbiyalashda maktab va oila hamkorligi juda muhim. Ota-onalar farzandlarni kichik yoshidanoq musiqaviy qobliyatlarini shakllantirishga e’tibor bilan qarashlari, ya’ni radio va televizor orqali beriladigan bolalar uchun kontsertlarga jalb qilish, turli bayram va to‘ylarda milliy cholg‘u asboblari haqida tushuncha berish, milliy kuylarni tinglash, ertaklar asosidagi ashulalarni ijro etish, xalq o‘yinlaridagi aytishuv va qo‘shiqlarni farqlash kabilar orqali musiqaviy estetik tasavvurlarni rivojlantirib, boyitib borishlari lozim. Bu esa o‘sib kelayotgan yosh avlodni musiqa ijodi namunalari bilan birga estetik ruhda tarbiyalaydi, milliy kuy-qo‘shiqlarga bo‘lgan e’tiborni kuchaytiradi va musiqiy kompetentlikni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova D.A. Musiqiy pedagogik mahorat asoslari o‘quv qo‘llanma. – T., 2008 y.
2. Sharipova G. Musiqa o‘qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni. 2000 y.
3. Fayziyev O. O‘quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirish. – T., 1992 y.
4. Sharipova G. Musiqa va uni o‘qitish metodikasi. – T.: Turon-Istiqbol, 2006 y.

Go'zal NAZIROVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti kafedra mudiri

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINI TAYYORLASH KONSEPSIYASI VA UNI AMALGA OSHIRISH MAZMUNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash konsepsiyasining mazmuni va mohiyati hamda amalga oshirish mexanizmlari bayon etilgan. Konsepsiyani amalga oshirish mazmuni oliy ta'lim muassasalarining maktabgacha ta'lim tayyorlov yo'nalishlarida har bir o'quv bosqichlari bo'yicha tahlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini tayyorlashning innovatsion tizimini va tarbiyachining asosiy kompetentliklari tarkibi aniqlangan.

Kalit so'zlar. Kasbiy tayyorlash, ahloqiy sifatlar, pedagogik faoliyat, kasbiy ko'nikmalar, pedagogik kreativlik.

В данной статье изложены содержание и сущность концепции подготовки будущих педагогов в высших учебных заведениях, а также механизмы ее реализации. Содержание реализации концепции проанализировано по каждому этапу обучения в дошкольных подготовительных направлениях высших учебных заведений. Также определены инновационная система подготовки воспитателей будущей дошкольной образовательной организации и структура основных компетенций воспитателя.

Ключевые слова. Профессиональная подготовка, нравственные качества, педагогическая деятельность, профессиональные навыки, педагогический креатив.

This article describes the content and essence of the concept of training future educators in higher education institutions, as well as the mechanisms of implementation. The content of the implementation of the concept was analyzed in the preparatory directions of preschool education of higher educational institutions by each stage of study. Also, an innovative system for training educators of the future preschool organization and the composition of the main competencies of the educator has been identified.

Key words. Professional training, moral qualities, pedagogical activity, professional skills, pedagogical creativity.

Hozirgi globallashuv sharoitida maktabgacha ta'limning eng yaxshi mahalliy an'analarini qayta tiklash va saqlash tendensiyalarini e'tiborga olgan holda mavjud pedagogik tizimni takomillashtirishning maqbul usullarini izlash dolzarb vazifaga aylandi. Yosh avlodni tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining ijodiy salohiyati va kasbiy imkoniyatlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'limning insonparvarlik paradigmasini bo'lajak tarbiyachining shaxsga yo'naltirilgan tayyorgarligisiz amalga oshirish mumkin emas. Ushbu tayyorgarlikning asosiy yo'nalishlari, bizningcha, talabaning kasbiy-shaxsiy va individual-ijodiy rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirishini ta'minlashdir. Shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasalarida ta'lim nafaqat talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash, balki ularning hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri sifatida qaraladi, buning uchun bo'lajak mutaxassis shaxsini shakllantirishda o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini bilish va o'z-o'zini takomillashti-

rish uchun barcha sharoitlarni yaratish zarur.

Biz tomonimizdan bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini tayyorlash konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu konsepsiya oliy ta’lim muassasalarida o‘qish yillari davomida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Uning g‘oyasi maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy va shaxsiy shakllanishi, individual ijodiy rivojlanishi va o‘zini o‘zi rivojlantirishni amalga oshirishdan iborat.

Konsepsiyani oliy ta’lim muassasasining ta’lim jarayoniga tatbiq etish tizimi o‘qish davrlari (kurslari), mexanizmlari (holatlar, harakat, hodisani belgilaydigan jarayonlar ketma-ketligi), ko‘rsatkichlari (uni amalga oshirishning rivojlanishi, borishi, holati bo‘yicha ma’lumotlar) va natijalar (faoliyat, ish, natija yakunida olingan) kabi elemantlardan iborat.

1- 2-kurslarda asosiy e’tibor bo‘lajak tarbiyachi shaxsining kasbiy-pedagogik yo‘nalishini shakllantirish va kelajakdagi faoliyatiga ijobiy motivatsion-qiymatli munosabatni rivojlantirish, zarur kasbiy va shaxsiy fazilatlarni (empatiya, xushmuomalalik, mulohaza yuritish va boshqalar) shakllantirishga qaratiladi.

Ma’lumki, tarbiyachining kasbiy va shaxsiy rivojlanishi o‘z-o‘zini bilish jarayonidan boshlanadi va faqat o‘zini doimo biladigan, o‘zini boshqarishni biladigan tarbiyachigina tarbiyalanuvchiga yordam berishi mumkin. Bunga o‘z qobiliyatlarini diagnostika qilish va o‘z-o‘zini diagnostika qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun individual dasturlarni tayyorlash bilan bog‘liq turli xil vazifalar yordam beradi.

Ixtisoslik fanlari bo‘yicha darslarda vazifalar tizimi keng qo‘llaniladi. Yuqorida belgilangan vazifalarni hal qilish bo‘yicha ishlarning muhim qismi talabalar bilan sinfdan tashqari ish: an’anaviy moslashish yig‘inlarini o‘tkazish hisoblanadi. Bularning barchasi talabaning yangi ijtimoiy roli, insonni ezgu faoliyat bilan bog‘laydigan kelajakdagi kasbi bilan tezroq tanishish imkonini beradi. Turli uchrashuvlarni tashkil etish, muzeylarga, teatrlarga, ko‘rgazmalarga tashrif buyurish, ijodiy kechalar o‘tkazish bo‘lajak tarbiyachining alohida qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu bosqichda o‘qituvchilar talabalarning mustaqil bilish faoliyati ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e’tibor berishadi, chunki doimiy ravishda o‘sib borayotgan axborot oqimi ta’lim mazmunini kengaytiradi va mutaxassisdan yuqori bilish madaniyatni talab qiladi. O‘z ta’limi rivojlanayotgan makon va muhitni o‘rganishga alohida e’tibor beriladi, uning tarkibiy qismlari aniqlanadi. Talabalar mavjudlik va samaradorlikni tan olish, ta’lim sohasini baholash va loyihalash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Jarayonning muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari talabalarning kasb tanlashdan qoniqish darajasini oshirish, unda tarbiyachining ideal qiyofasini yaratish, uning shaxsiy xususiyatlaridan dastlabki xabardorlik va ularning ushbu nufuzga erishish imkoniyatlari, kasbiy bilim va ko‘nikmalarini keyingi o‘rganish va darajalarini oshirishga intilish; ekologik muvozanatli makon va uni shakllantirish mexanizmlarini to‘liq tushunishdan iborat.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarini tayyorlash jarayonining natijalari shakllangan kasbiy bilimlar, ularni belgilangan maqsadlarga javob beradigan holda bolalar bilan ishlashni tashkil etishda amaliy ko‘nikmalar sohasiga izchil va maqsadli o‘tkazish; kasbiy faoliyat uchun malakalarning mavjudligi hisoblanadi.

3 kursda maktabgacha ta’lim mazmuni va texnologiyalari, uni boshqarish asoslari, kollej tarbiyachisi faoliyatiga qo‘yiladigan talablar va boshqalar haqidagi g‘oyalarni boyitish vazifalari hal etiladi. Ushbu bosqichning o‘ziga xosligi tarbiyachi, metodist va o‘qituvchining ushbu kasblarga qo‘yiladigan me’yoriy talablar doirasidagi funksional vazifalari, shuningdek, talabani shaxs sifatida yanada takomillashtirishdan iborat.

“Maktabgacha pedagogika”, “Bolalar psixologiyasi”, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kabi fanlar tayyorgarlik fanlarini o‘rganish jarayonida belgilangan vazifalarni amalga

oshirishni davom ettiradi. Talabalarning pedagogik tafakkurini rivojlantirishga, muammoli vaziyatlarni oldindan ko‘ra bilish va yechimini loyihalash qobiliyatiga (loyihalash va prognostika ko‘nikmalariga) katta e’tibor beriladi. Talabalarning faoliyati reproduktiv-evristik xususiyatga ega bo‘lib, bu texnologiyalardan foydalanish, pedagogik muammolarni hal qilish, muammoli modulli o‘qitish texnologiyalari, akmeologik texnologiyalar, shuningdek, faol shakllar, o‘quv jarayonini tashkil etish (ishbilarmonlik o‘yinlari, treninglar) asta-sekin ijodiylikka o‘tishni ta’minlaydi. Talabalar maktabgacha ta’lim tashkilotlari va pedagogika kollejlari negizida pedagogik amaliyotni o‘tash jarayonida o‘quv va kasbiy faoliyatga jalb qilinadi.

3-kursda Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmlari talabalarni chuqur nazariy tayyorlashdan tashqari, bilim olish jarayonini o‘quv, o‘quv ilmiy-tadqiqot, ilmiy-tadqiqot faoliyatining ijodiy turlari bilan to‘ldirishni o‘z ichiga oladi. Buning uchun doimiy va kompleks ta’lim faoliyatini maqsadli nazorat qilish asosida talabalarning ijodiy salohiyatini faollashtirishga yordam beradigan texnologiyalar faol qo‘llaniladi.

Jarayonning ishlash ko‘rsatkichlari kasbiy-pedagogik kompetentlik mazmunini birgalikda beradigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan bog‘liq.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim xodimlarini tayyorlashda malakaning ekstrafunksional va ko‘p funksional guruhlari darajasida shaxsiy va ijtimoiy asosiy malakalarga muhim o‘rin beriladi.

Biz bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarini tayyorlashning innovatsion tizimini yo‘naltirilishi kerak bo‘lgan asosiy kompetentliklar tarkibini aniqladik, ular:

– tashkilotchilik – o‘z faoliyatini o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z maqsadlarni qo‘yish, oqilona va tizimli bo‘lishni samarali natija bilan boshqarish qobiliyati;

– tadbirkorlik – kasbiy ishtiyoq, tashabbuskorlik va mustaqillik, samaradorlik ko‘rsatish qobiliyati;

– ijtimoiy-kasbiy mobillik – plastika, o‘rganish qobiliyati, moslashuvchanlik kabi fazilatlarga asoslangan kasbni tez o‘zgartirish (qayta tayyorlash), yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashishga tayyorlik va qobiliyat;

– mehnat jamoasida muloqot qilish va hamkorlik qilish, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda to‘g‘ri ifodalash, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan darajada ma’lumotlarni yetkazish, tinglash va eshitish qobiliyatida namoyon bo‘ladigan muloqot ko‘nikmalari va hamkorlik qilish, odamlar bilan muloqot qilish ko‘nikmasi; boshqa odamlar bilan hamkorlikda ishlash, jamoaviy ruhni va o‘zaro yordamni saqlab qolish qobiliyati;

– ijodkorlik – original g‘oyalarni yaratish qobiliyati, ijodkor bo‘lish;

– estetik sezgirlik – haqiqatda go‘zallikni ko‘rish va his qilish, badiiy qimmatli narsalarni yaratish qobiliyati;

– qo‘l mahorati – rivojlangan sensorimotor apparat sifatida (ko‘z, muvofiqlashtirish, barmoqlarning taktil sezgirligi va boshqalar);

– maxsus kompetentlik – mutaxassislik bo‘yicha kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini va bilim boyligini doimiy ravishda to‘ldirish va ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini tavsiflaydi.

Bugungi kunga qadar “asosiy kompetentlik” tushunchasining bir ma’noli va umumiy qabul qilingan ta’rifi tasdiqlanmagan va uni yanada aniqlashtirish kerak. Hozirgi vaqtda biz malakani mutaxassisning integratsiyalashgan kasbiy tavsifi, jumladan, ijtimoiy-kasbiy kompetentlik, kasbiy jihatdan muhim sifatlar, asosiy malakalar va ijtimoiy-kasbiy kompetensiyalarni tushunamiz.

Kasbiy jihatdan muhim sifatlar deganda shaxsning kasbiy faoliyat talab qiladigan psixologik xususiyatlari, sifatlari va qobiliyatlari tushuniladi. Psixologik tavsif tarkibi mas’u-

liyat, qaror qabul qilish qobiliyati, korporativlik, mustaqillik va boshqa fazilatlarni o‘z ichiga oladi, ular asosiy malaka va ijtimoiy-kasbiy kompetensiyalarni tashkil qiladi.

Kompetensiyalar ta’lim maqsadiga erishishning muhim pedagogik shartidir, chunki ular tufayli talabalar subyektiv tajribaning faol tashuvchilari sifatida harakat qilishadi. Kompetensiyani ma’lum miqdordagi bilim va ko‘nikmalar bilan aniqlash mumkin emas, chunki uning namoyon bo‘lishida sharoitlar muhim rol o‘ynaydi. Talaba yoshlarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar majmuasiga ega bo‘lish, olingan bilim va tajribani ma’lum bir vaziyatda safarbar qila bilishni anglatadi. Kompetensiya bir vaqtning o‘zida ma’lum bir faoliyat sharoitlariga moslashtirilgan bilim, ko‘nikma va xulq-atvor munosabatlarini safarbar qilishni chambarchas bog‘laydi.

Quyidagi tamoyillarga rioya qilingan taqdirda umumiy kompetensiyalarni samarali rivojlantirish mumkin:

a) bola dastlab bilish subyektiga aylanmaydi;

b) ta’lim – bu o‘rganish va o‘z-o‘zini tarbiyalash kabi ikki komponentning birligi;

c) maxsus tashkil etilgan mashg‘ulotlar ta’siridan oldin to‘planadigan subyektiv tajribaning faol tashuvchisi sifatida talabaning individualligi, o‘z-o‘zini baholashi va o‘ziga xosligining ustuvorligi;

g) o‘quv jarayonini loyihalash o‘qitishni o‘rgatishda o‘rnatilgan ijtimoiy ahamiyatga ega standartlarni (namunalarni) o‘zgartirish (o‘tkazish) bo‘yicha individual faoliyat sifatida takrorlash imkoniyatini nazarda tutadi;

d) talabaning shaxs sifatida rivojlanishi nafaqat me’yoriy faoliyatni o‘zlashtirish, balki subyektiv tajribani doimiy boyitish, o‘zgartirish orqali ham sodir bo‘ladi;

y) ta’limning asosiy natijasi tegishli bilim va ko‘nikmalarni egallash asosida bilish qobiliyatlarini shakllantirish bo‘lishi kerak.

Umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik maqsadlarining o‘ziga xosligi shundan iboratki, ular o‘qituvchining xatti-harakatlari shaklida emas, balki uning ma’lum ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish jarayonida olg‘a siljishi va rivojlanishining ta’siri nuqtayi nazaridan shakllanadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi nima bilan shug‘ullanmasin, pirovardida talabada o‘z faoliyatini mustaqil boshqarish, o‘zini subyekt sifatida boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi va shakllantiradi.

Talaba o‘z faoliyati uchun tegishli me’yoriy-huquqiy bazani shakllantirgan taqdirda bunga erishish mumkin, xususan:

a) asosiy tushuncha – atrofdagi voqelikni bilish va tushunishni shakllantirish;

b) hissiy-qadriyatli asos (shaxsning tashqi dunyo va boshqa odamlarga munosabatini shakllantirish);

v) operativ asos – atrofdagi voqelik obyektlari bilan harakat qilish qobiliyatini shakllantirish.

Konsepsiyaga muvofiq 3-kursda talabalarning natijalari: tanlangan kasbga barqaror ijobiy munosabatni shakllantirish, individual funksional vazifalarni o‘zlashtirish, pedagogik refleksiyani rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojning paydo bo‘lishi; davlat talablariga javob beradigan maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish muhitini loyihalash, yaratish va amalga oshirishda faol ishtirok etish qobiliyati.

4-kursda asosiy ish bo‘lajak tarbiyachining kasbiy muammolarni hal qilishda insonparvarlik pozitsiyasini yangilashga, talabalar tajribasini maktabgacha ta’lim tashkilotlarining innovatsion faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan boyitishga, o‘z faoliyatining natijasi uchun kasbiy mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan.

Pedagogik faoliyatning individual uslubini rivojlantirish, talabalarning ijodiy faolligi va tashabbusini kuchaytirishga katta e’tibor beriladi.

Pedagogik sharoitlar maktabgacha ta'lim mutaxassisini tayyorlash konsepsiyasini amalga oshirishga yordam beradi:

– kasbiy tayyorgarlik mazmunini zamonaviy dasturiy metodik ta'minotining mavjudligi, talabalarning o'quv fanlari bo'yicha mustaqil faoliyatini tashkil etish imkonini beruvchi blok-modul dasturlarini yaratish;

– professor-o'qituvchilar tarkibining yuqori kasbiy mahorati. Oliy ta'lim tashkiloti o'qituvchisining ajralmas fazilatlari uning yuqori darajadagi bilimi va mahorati, ijodkorligi va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo'lgan ehtiyoji bo'lishi kerak. Agar o'qituvchi o'z ilmiy-tadqiqot ishini olib borsa, fanning zamonaviy muammolaridan xabardor bo'lsa, nafaqat metodik qo'llanmalar, balki ilmiy maqolalar, monografiyalar ham nashr etsa, uning o'qitish sifati sezilarli darajada yuqori, mazmunli bo'ladi;

– pedagoglar tomonidan maktabgacha ta'limning dolzarb masalalari bo'yicha mualliflik kurslari, o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish va joriy etish, ularning mavzulari va mazmunini doimiy ravishda yangilab borish, mualliflik seminarlarini o'tkazish;

– maktabgacha ta'lim mazmuni va texnologiyalari sohasida innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish uchun asos sifatida tajriba-sinov maydonlarini kengaytirish;

– maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashni ta'minlovchi yetakchi kafedralar bilan kasbiy hamkorlik va ijodiy hamkorlik.

Talabalar tarbiyachidan maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarigacha bajaradigan kasbiy faoliyatning barcha turlarini bajarishlari uchun keng pedagogik amaliyotga ega bo'lgan ma'ruza, amaliy, seminariya, laboratoriya shakllaridagi zamonaviy mashg'ulotlarga nazariy va amaliy tayyorgarlikni o'z ichiga olgan kompleks oliy ta'lim mashg'ulotlari.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotining zamonaviy faoliyati, uning doimiy ravishda oshib borayotgan sifatini ta'minlash uchun faqat oliy ta'lim tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanish va takomillashtirishga qodir yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash zarur. Zamonaviy maktabgacha ta'lim uchun kadrlar tayyorlash uzluksiz jarayon sifatida aniq maqsadlarga ega bo'lishi kerak va bunda bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlash ustuvor o'rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraximova D.A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruxda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: dis. ped. fan. nom. / D.A. Abduraximova; O'zR Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T., 1998. – 165 b.

2. Абдукаримов Х. Профессиональное воспитание личности учителя в процессе непрерывного педагогического образования: Автореф. дисс. … докт. пед. наук. – Т., 1997. – С. 46.

3. Бабанский Ю.К. Избранные педагогические труды / Сост. М.Ю. Бабанский. – М.: Педагогика, 1989. – С. 560.

4. Дьяченко М.И., Кандыбович Л.А., Погомаренко В.А. Готовность к деятельности в напряженной ситуации: психологический аспект. – 1985. – С. 206.

5. Кузьмина Н.В. Понятие "педагогическая система" и критерии ее оценки // Методы системного педагогического исследования. – Л., 1980. – С. 16-17.

6. Николаенко С.А. Системный анализ профессиональной готовности будущего учителя к педагогической деятельности: Дисс.к.псих.н. – Киев, 1985. – С. 194.

7. Raximov B.X. Bo'lajak o'qituvchida kasbiy-madaniy munosabatlarning shakllanishi: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2004. – 160 b.

Sayyora QOZAQOVA,
Namangan davlat universiteti, “Maktabgacha ta’lim”
metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI HIKOYA TUZISHGA O‘RGATISH ORQALI BOG‘LANISHLI NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari maktab o‘quv dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi uchun, ularda suhbat qurish, o‘z fikrlarini izchil ifodalash va muayyan mavzu bo‘yicha qisqa matn tuzish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish kerakligi, shu sababli ham maktabgacha katta yoshdagi bolalarni hikoya tuzishga o‘rgatish orqali bog‘lanishli nutqini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Nutq, monolog nutq, bog‘lanishli nutq, hikoya, ijodiy hikoya, tasviriy hikoya, syujetli hikoya.

В данной статье особо подчеркивается, что для успешного освоения школьной программы воспитанниками дошкольной образовательной организации необходимо развивать у них такие навыки, как построение беседы, последовательное выражение своих мыслей и составление короткого текста на определенную тему, поэтому важно развивать связную речь, обучая детей старшего дошкольного возраста составлению рассказа.

Ключевые слова. Речь, монологическая речь, связная речь, рассказ, творческий рассказ, описательный рассказ, сюжетный рассказ.

This article emphasizes that for the successful development of the school curriculum by pupils of a preschool educational organization, it is necessary to develop skills such as building a conversation, consistently expressing their thoughts and composing a short text on a specific topic, therefore it is important to develop coherent speech by teaching older preschool children how to compose a story.

Key words. Speech, monologue speech, coherent speech, story, creative story, descriptive story, plot story.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri nutq va og‘zaki muloqotni rivojlantirishdir. Ona tilini bilish nafaqat gapni to‘g‘ri tuzish, balki har qanday vodea yoki hodisalar ketma-ketligi haqida gapira olish qobiliyatidir. Bu izchil nutq bolaga ijtimoiy va shaxsiy salohiyatni to‘liq ro‘yobga chiqarishga imkon beradi, chunki izchil nutq odamlar o‘rtasidagi muloqot va o‘zaro ta’sirning asosi bo‘lib, ularsiz shaxsning normal aqliy rivojlanishi va faoliyati mumkin emas. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari maktab o‘quv dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi uchun, ularda, masalan, suhbat qurish, o‘z fikrlarini izchil ifodalash va muayyan mavzu bo‘yicha qisqa matn tuzish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish kerak. Shunday qilib, matn bilan malakali ishlash qobiliyati inson uchun asosiy ko‘nikmalardan biridir. Shunga asoslanib, hozirgi vaqtda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari oldida maktabgacha yoshdagi bolalarda izchil nutqni shakllantirishning asosiy vazifasi turibdi, bu esa o‘z navbatida matnni idrok etish, uni takrorlash va o‘z hikoyalarini yaratish qobiliyatini nazarda tutadi. Shu sababli ham maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog’lanishli nutqini rivojlantirish uchun ularni hikoya tuzishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

Muvofiq nutqni rivojlantirish masalalari har doim ham dolzarb bo‘lib kelgan va ko‘plab tadqiqotchilar uning muammolari bilan shug‘ullanishgan: L.S. Vygotskiy, S.L. Rubins-

hteyn, F.A. Soxin, V.V. Gerbova, E.P. Korotkova, V.I. Loginova va boshqalar. Ularning ta'kidlashicha, maktabgacha katta yoshda bolaning eng muhim aqliy jarayonlari eng jadal rivojlanadi, ular orasida kognitiv jarayonlar asosiy o'rinni egallaydi. Ular izchil nutqni yanada shakllantirishga va maktabda muvaffaqiyatli o'qishga hissa qo'shadilar. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda izchil nutqni shakllantirishning uslubiy asoslarining amaliy jihati yetarlicha ochilmaganligi sababli, qobiliyatlarni shakllantirishning psixologik shartlariga oid ko'plab nuqtayi nazarlar tez o'zgarib turadi,

E.A. Flerina o'z tadqiqotlarida jonli so'z bilan ishlashga katta ahamiyat bergan. U o'z tadqiqotlarida bolalarning ertak aytib berishlari fikrlash va nutq qobiliyatlarini rivojlantiradi, deb hisoblagan. U hikoyadagi silliq, izchil nutq orqali bola uni mantiqiy va bog'lanishli qurishini ta'kidlab o'tgan. Tarbiyachi hikoya qilish uchun matn tanlashda aniq ko'rsatmalar bergan taqdirdagina, ya'ni ma'lum bir mavzu, yagona syujet chizig'i, sodda, ammo jarangdor, ritmik, rang-barang til kabilarga ega bo'ladi. Shunday vaziyatdagina hikoya tuzish va uni qayta aytib berish bolaga qiyinchilik tug'dirmaydi.

A.M. Leushina maktabgacha yoshdagi bolalarda izchil nutqni shakllantirish muammosini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan bo'lib, u bolalarga ijodiy hikoya qilishni o'rgatish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqqan. Katta maktabgacha yoshda, olimning fikriga ko'ra, bolalar ifoda rejasini tuzishda ishtirok etishlari va ijodiy fikrni rag'batlantirish uchun fikrni boshqarishlari mumkin. Uning ta'kidlashicha, bolaning hissiyligi ifodali til vositalaridan ongli ravishda foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Ammo buning uchun maxsus ish olib borish va bolani so'zda ma'lum bir badiiy mazmunni ifodalash usullari bilan qurollantirish kerak bo'ladi.

L.A. Penevskaya bog'lanishli nutqqa o'rgatish vositasi sifatida hikoya tuzish va uni qayta hikoya qilishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotida bolalar hikoyalarida ijodkorlikni faollashtirishga e'tibor qaratdi. Muvaffaqiyatli nutqning asosiy fazilatlari orasida u tashkiliylikni ta'minlaydigan va nutqning ta'sirchanligi uchun zarur shart bo'lgan bayon qilishning ma'nosini tushunishga imkon beradigan izchillikni ajratib ko'rsatadi.

Shuningdek, hikoya qilishga o'rgatish masalalari olimlar tomonidan turli yo'nalishlarda o'rganilgan: qayta hikoya qilishga o'rgatish metodikasi R.I. Gabova, E.F. Lukina tomonidan, ijodiy hikoya qilishga o'rgatish A.M. Borodich, E.P.K orotkova, N.A. Orlanova tomonidan, bog'langan nutqning turli tomonlari N.F. Vinogradova, L.V. Voroshnina, N.I. Kuzina va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Hozirgi vaqtda nutqni aloqa va madaniyat vositasi sifatida o'zlashtirish, faol so'z boyligini boyitish, izchil, grammatik jihatdan to'g'ri dialogik va monolog nutqni rivojlantirish, tovush va intonatsiya madaniyatini rivojlantirish, fonemik eshitish vazifalari "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida aks ettirilgan. Amalda, bog'lanishli nutqni rivojlantirish vazifalarini faqat ma'lum bir yosh davrining yetakchi faoliyatini hisobga olgan holda amalga oshirish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalikda asosiy faoliyat o'yindir, shuning uchun bog'lanishli nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlarni rejalashtirishda o'yinga asoslangan mashq, topshiriq va boshqalar turlaridan foydalanish mumkin.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda bog'lanishli monologik nutq yaxshilana boradi. Ular kattalarning yordamisiz qisqa ertak, hikoya, animatsion filmning ma'nosini yetkazishi va o'zlari guvohi bo'lgan biror bir voqea yoki hodisalarni so'zlab berishlari mumkin. O'zining bayonoti to'g'ri tushunilishini ta'minlashga intilib, maktabgacha tarbiyachi o'z hikoyasining tafsilotlarini katta zavq bilan tushuntiradi va uning alohida qismlarini ataylab takrorlaydi. U nafaqat bir necha kun oldin sodir bo'lgan voqealar haqida, balki ancha oldin sodir bo'lgan voqealar haqida ham gapirishga qodir (masalan, yozgi uyda quyosh botgani, butun oila birgalikda baliq tutgani, suvda suzgani, qushlarning uchganini tomosha qilgani haqida gapiradi).

Shuningdek, bu yoshda bola agar u unga tanish bo‘lgan narsalarni ko‘rsatsa, rasmning ma’nosini mustaqil ravishda aniqlay oladi. Ammo rasm asosida hikoya tuzayotganda u ko‘pincha diqqatini asosan asosiy tafsilotlarga qaratadi va ko‘pincha ikkinchi darajali, unchalik muhim bo‘lmagan narsalarni tashlab yuboradi.

Kattaroq maktabgacha yoshda artikulyar apparatlarning mushaklari yaxshi mustahkamlanadi va bolalar o‘z ona tilidagi barcha tovushlarni istisnosiz to‘g‘ri talaffuz qiladilar. Tengdoshlar va katta yoshlilar bilan muloqot qilishda bolalar o‘rtacha ovoz balandligidan foydalanadilar, lekin kerak bo‘lganda ular balandroq gapirishga tayyor bo‘ladilar, ya’ni tinglovchiga masofani va nutqning tabiatini hisobga olgan holda nutq hajmini solishtirishlari mumkin. Kundalik muloqotda bolalar o‘rtacha sur’atdan foydalanadilar, lekin takrorlashda ularning nutqi ko‘pincha uzoq ikkilanishlar va pauzalar tufayli sekinlashadi. Ammo, kino tomosha qilish yoki ertak o‘qish taassurotiga ega bo‘lgan bola nutq jarayonida har doim ham o‘z nutqini boshqara olmaydi va odatdagidan balandroq va tezroq gapiradi. Nutqning ravshanligi va tushunarliligi bolaning qanchalik tez gapirishiga bog’liq. Tez gapiradigan bolalar yomon gapiradilar. Shunday qilib, hayotning oltinchi yilining oxiriga kelib, bolalar nutq rivojlanishining ancha yuqori darajasiga erishadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining ifodaliligini oshirishda va bog‘lanishli nutqini rivojlantirishda teatr va o‘yin faoliyatining o‘rni beqiyosdir. Teatr va o‘yin bolalarning hissiy muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradir, nutqning boshqa ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Qayta hikoya qilish, ijodiy hikoya qilish, dramatizatsiya o‘yinlari orqali bolalar jumlalarni to‘g‘ri tuzishni, kerakli intonatsiyadan foydalanishni, rolli muloqot ko‘rinishlarini o‘rganadilar. Bu yerda bolalar ilgari olingan nutq qobiliyatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ammo bunday ish faqat 5-7 yoshli o‘quvchilarning izchil nutqini rivojlantirish bo‘yicha ishlarning umumiy tizimiga bir nechta sohalarda kiritilgan taqdirdagina samarali bo‘ladi. Ularga guruhda rivojlanayotgan subyekt-makon muhitini yaratish; o‘yin mashqlari, eskizlar va teatr va o‘yin faoliyatining vazifalari siklini tashkil etish; turli shakllarda o‘quv faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish; dam olishni tashkil etish; o‘quvchilarning oilalari bilan o‘zaro munosabatlarni tashkil etish kabilar kiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya dasturida bolalarni hikoya tuzish va uni qayta hikoya qilishga o‘rgatish bo‘yicha har bir yosh guruhlariga ish vazifalari va mazmuni belgilab berilgan. Kichik guruh bolalarini tanish hikoya va ertaklarni (tarbiyachining savollari va kitobdagi rasmlar yordamida, keyinchalik mustaqil) so‘zlab berishga o‘rgatiladi, o‘yinchoq, buyum va rasm mazmuni bo‘yicha hikoyani (3-4 gapdan iborat) takrorlash ko‘nikmasi tarbiyalanadi, tanish eaklardan olingan parchalarni sahnalashtirishda qatnashishga o‘rgatiladi. O‘rta guruhlarda hikoya qilishga o‘rgatish vazifalari va ularning mazmuni ancha murakkablashadi. Ushbu guruh bolalari birinchi yarim yillikda tanish hikoya va ertaklarni mustaqil holda qayta hikoya qilishga, asar qahramonlarining suhbatini ifodali so‘zlab berishga o‘rgatiladi. Mashg‘ulotlarda birinchi marta o‘qib berilgan kichik ertak va hikoyalarning mazmunini qayta hikoya qilishga, o‘rtoqlari hikoya qilayotganda e’tibor bilan tinglashga, o‘yinchoqlar, turli buyumlar va yil fasllarini tavsiflovchi (avval tarbiyachining savollari, so‘ngra namuna va reja asosida) hikoya tuzishga o‘rgatiladi. Ikkinchi yarim yillikda bolalarga tanish ertak va hikoyalarni tinglashni, ularda ishtirok etuvchi personajlarning gaplarini, o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishni, asar mazmunini hikoya qilayotgan o‘rtoqlarining nutqini diqqat bilan eshitishni, asar matnini buzib hikoya qilgan joylarini payqashni o‘rgatish davom ettiriladi. Maktabga tayyorlov guruhlari uchun “Nutq o‘stirish bo‘limida o‘quvchilarni badiiy adabiyotni hikoya qilib berishga o‘rgatish yuzasidan olib boriladigan ishlar, ularning mazmuni quyidagicha belgilangan: Birinchi yarim

yillik badiiy asarlarni qayta hikoya qilish malakasini o‘stirish. Adabiy asarlarni mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy, ifodali hikoya qilishga o‘rgatish. Tarbiyachi qayta hikoya qilishni o‘rgatayotganda bolalar diqqatini, ayniqsa, ertakning boshlanmasi, takrorlanib kelayotgan parchalarga, xulosa qismiga: hikoyalardagi qahramonlarning o‘zaro nutqi kabilarga qaratishi lozim. Bolalar asar voqealarini so‘zlayotganda ovoz ohangining xilma-xil turini (so‘roq, his-hayajon, hayratlanish, iltimos) qo‘llay bilishlariga erishish. Bolalarga o‘yinchoqlar va buyumlar haqida hikoya tuzishni o‘rgatayotganda o‘yinchoqlarni ta’riflab berishga, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatuvchi belgilarni (rangi, shakli, qandau o‘unalishi va boshqalar) aniq so‘zlar orqali ifodalashga o‘rgatish; ijodiy hikoya qilishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyachi tomonidan belgilangan hikoya yoki ertakni nihoyasiga yetkazishga, qisqa, lo‘nda jumlalar tuzishga, tasviriy vositalardan foydalanishga o‘rgatish; bolalarning shaxsiy tajribalari va tarbiyachi taklif etgan hayotiy mavzular asosida mantiqiy rivojlanib boruvchi hikoya yoki ertak tuzish qobiliyatlarini rivojlantirish: “Quvonchli kun”, “Xafa bo‘lgan kunim”, “Mehmonda”, “Bizning oila”, “Eng yaqin o‘rtog’im”, “Dam olish kuni”, “Dadamga qarashdim”, “Qo‘g‘irchoq teatriga bordim” va boshqalar; bolalarni tuzayotgan hikoya yoki ertaklarida ishtirok etuvchi qahramonlarning ruhiy kechinmalarini bilishga o‘rgatish; “Birinchi qor”, “Yaxmalakda”, “Yangi yil bayrami”, “Qorbobo”, “Men sevgan fasl”, “Tashqarida qor, uyimizda bahor”, “Xola-xola o‘ynadik”, “Kim oladi-yo, shuginani-yo” o‘yini, “Men onamga yordamchi”, “Ukamga mehribonman” va boshqalar. Bolalarga suratlar bo‘yicha hikoya tuzishni o‘rgatayotganda, avvalo, ularning mustaqil fikrlashlariga, suratda tasvirlangan voqealarga o‘z munosabatlarini bildirishlariga imkon yaratish kerak. Shu bilan birga, rasmda aks ettirilgan mavzuli voqeaga qarab ilgari nima bo‘lgani va keyin nima bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritishga undash, tabiat manzaralari aks ettirilgan suratga qarab, undagi go‘zallikni, nafislikni ifodalay oladigan tasviriy so‘zlar, o‘xshatish va sifatlashlar ishtirokida gap tuzishga o‘rgatib borish ham amalga oshiriladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hikoya tuzish jarayonida tarbiyalanuvchilarni tarbiyachi tomonidan belgilangan hikoya yoki ertakni nihoyasiga yetkazishga, qisqa, lo‘nda jumlalar tuzishga, tasviriy vositalardan foydalanishga o‘rgatib borish lozim. Bolalarning shaxsiy tajribalari va tarbiyachi taklif etgan hayotiy mavzular asosida mantiqiy rivojlanib boruvchi hikoya yoki ertak tuzish qobiliyatlarini rivojlantirish zarur. Shuningdek, bolalarga suratlar bo‘yicha hikoya tuzishni o‘rgatayotganda, avvalo, ularning mustaqil fikrlashlariga, suratda tasvirlangan voqealarga o‘z munosabatlarini bildirishlariga imkon yaratish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” (takomillashtirilgan ikkinchi nashri) Davlat o‘quv dasturi. – T., 2022.

2. Тихеева, Е.И. Развитие речи детей (раннего и до школьного возраста) – М.: Просвещение, 2003.

3. Галкина И.А. Индивидуальный подход в развитии связной монологической речи детей старшего дошкольного возраста // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. Серия: Педагогика, психология. 2013. № 2 (13). – С. 69-71.

4. Korotkova E.P. Maktabgacha yoshdagi bolalarni hikoya qilishga o‘rgatish. – M.: Ma’rifat, 1982. – 128 b.

Vinogradova N.F. Bolalar, kattalar va atrofdagi dunyo / – M.: Ta’lim, 1993. – 128 b.

5. Borodich A.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nutqni rivojlantirish usullari. – M .: Pedagogika, 1982. – 361 b.

6. Leushina A.M. Maktabgacha pedagogika. – L.: Uchpedgiz, 1945. – 363 b.

7. Flerina E.A. Maktabgacha yoshdagi bolaning estetik tarbiyasi – M.: APN RSFSR, 1961. – 334 p.

Ruxshona TUXTASINOVA,
Toshkent shahridagi Puchon universiteti (Janubiy Koriya)
magistratura bosqichi talabasi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINI BOSHQARUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarining boshqaruv jarayonini takomillashtirishda metodik g‘oyalar yoritilgan. Shuningdek, pedagogik ta’lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim tashkiloti, o‘quvchi, metod, pedagog, ko‘nikma.

В статье освещаются методические идеи по совершенствованию управленческого процесса общеобразовательных школ. Также изложена эффективная организация педагогических образовательных процессов на основе современных информационных технологий.

Ключевые слова. Общее среднее образование, ученик, метод, педагог, навыки.

The article covers methodological ideas in improving the management process of general secondary schools. It is also stated that the effective organization of pedagogical educational processes on the basis of modern information technology.

Key words. General secondary education, student, method, educator, skill.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadga erishish, talabalarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, mehnatkash, ishbilarmon, barkamol inson qilib o‘stirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, O‘zbekistonning istiqboli ko‘p jihatdan o‘qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Yaxshi o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, tamoyillar, umumlashtirilgan metodik g‘oyalar bayon etiladi, talabalarning yosh va individual xususiyatlarini e’tiborga olish ta’kidlanadi. Universitet hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xil, murakkabdir.

Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar ko‘p uchrab turadi. Bu esa o‘qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik va yuksak pedagogik mahorat hamda ijodkorlikni talab etadi. Biror kasbning haqiqiy ustasi bo‘lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma’lum jismoniy va ruhiy xislatlar, puxta tayyorgarlik, ayrim shaxsiy sifatlar bo‘lishi kerak. Pedagogika kasbini tanlagan kishi, avvalo, sog‘lom bo‘lishi, so‘zlarni to‘g‘ri va yaxshi talaffuz qila olishi, bosiq va asablari joyida bo‘lishi, boshqalar bilan muomalada o‘zini tuta olishi zarur. Shuningdek, o‘qituvchida talabalarni yoqtirish, ular bilan ishlashga mayli borlik, xushmuomalalik, kuzatuvchanlik, keng fikrlay olish, tashkilotchilik, o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjud bo‘lishi zarurdir.

Ta’limda zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

- fan sohalarini axborotlashtirishni;
- o‘quv faoliyatni intellektuallashtirishni;
- integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;
- ta’lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Pedagogik ta’lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

• masofaviy o‘quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarning birlashuvini;

• pedagoglar o‘rtasida vazifalarning taqsimlanishini;

• ta’lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonlariga joriy etilishi:

• talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;

• o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o‘zlashtirilishiga;

• o‘quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;

• interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;

• sun’iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish strategiyasini egallashiga;

• axborot jamiyati a’zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;

• o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo‘yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat’iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning International scientific-practical conference on the topic of “Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages” fundamental asoslarini hisobga olib, o‘quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta’minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o‘rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to‘ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko‘rgazmalilik, faollashtirish (o‘qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o‘qitish natijalarini o‘zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Metodik talablarga quyidagilar kiradi: aniq o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ma’lum bir fanning o‘ziga xosligini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari o‘zaro bog‘liqliligi, o‘zaro aloqadorliligi, turli tumanligi, amalga oshirilishi.

Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-perseptiv), tafakkur (tushunchaviy nazariy, ko‘rgazmali-amaliy), diqqati (qat’iyliligi, boshqaga ko‘chishi), motivatsiya (ishlashda faol shakllari, yuqori darajada ko‘rgazmalilik, o‘z vaqtida qayta aloqa yordamida o‘quvchilarning yuqori darajadagi motivatsiyalarini doimiy ravishda rag‘batlantirish), xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish (egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini hisobga olib, o‘quv fani mazmuni hamda o‘quv masalalari murakkablik darajasi talabalarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi, o‘quv materialini o‘zlashtirishda ortiqcha his-hayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta’sirlanishdan himoyalash) kiradi.

O‘quv jarayonida o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish O‘qituvchilarga:

• internet tarmog‘i yordamida u yoki bu o‘quv fanlardan to‘plangan tajriba va uslublarni boshqa kasbdoshlari bilan almashish;

• bir vaqtning o‘zida turli toifadagi talabalar uchun har xil o‘qitish uslublarini amalga oshirish orqali o‘quv jarayonini individuallashtirish;

• o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi nazorat topshiriqlaridan mashq sifatida foydalanish natijasida talabalarda fan bo‘yicha egallangan bilimlarni ko‘nikma va malaka darajasiga yetkazish;

• qo‘lda bajariladigan ishlarni kamaytirish hisobidan talabalarga yakka tartibda ishlash va o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini yaratish;

• bolalarni mustaqil bilim olish jarayonini samarali tashkil etish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

O‘qitishda o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish talabalarda:

• o‘z xohishlariga qarab o‘qish holatlarini tanlash;

• tayyorgarliklar va psixofizik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘zlariga mos o‘qish metodlari va bayon etish usullarini tanlash;

• oldin o‘rganilgan materiallarga qaytish, o‘qish jarayonini to‘xtatib qo‘yish va unga ixtiyoriy vaqtda murojaat qilish;

• turli jarayonlarning dinamikasini va mexanizmlarni o‘zaro ta’sirini kuzatish;

• o‘rganilayotgan obyektlarni boshqarish va ularning mos natijalarini ko‘rib borish;

• kompyuterda muloqot qilish psixologik xarakterdagi to‘siqlardan holi bo‘lishga (kulgu bo‘lmaslik, jur’at etmaslik, uyalmaslik kabilar) olib kelishi;

• tayyorgarlik darajalari yetarli bo‘lgunga qadar kompyuterdan sabr bilan foydalanish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ladilar.

O‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning ta’lim sohasidagi quyidagi afzalliklarini sanab o‘tish munkin:

• fanlarni o‘zlashtirilishni yaxshilanishi;

• tarmoq savodxonligini ortishi (Kompyuter va Internet bilan muloqot qilishdagi yangiliklar);

• o‘rganishga bo‘lgan munosabatni yaxshilanishi;

• mustaqil ta’lim va tadqiqotlar malakasini takomillashishi;

• amaliy malaka samaradorligini oshirish.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o‘qituvchining ijodkor bo‘lishini, o‘z fanini innovatsion yondoshuv asosida o‘qitishni, interaktiv usul va vositalardan unumli foydalanishi, fanning muhim muommolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini talabalarga yetkaza olishi va nihoyat talabalarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o‘rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o‘qituvchi avvalo axborot texnologiyalari malakalarini egallashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 bet.

2. Usmonov M.T. Information Security Policy. International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR) ISSN: 2643-9123 Vol. 5 Issue 1, January – 2021, Pages: 70-73.

3. Usmonov M.T. Information War. International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR) ISSN: 2643-9603 Vol. 5 Issue 1, January – 2021, Pages: 79-82.

4. Usmonov M.T. International and National Legal Base in the Field Of Information Security. International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR) ISSN: 2643-9123 Vol. 5 Issue 1, January – 2021, Pages: 7-14.

5. Usmonov M.T. Legal Legislative Basis for Detection of Information Crime. International Journal of Academic Engineering Research (IJAER) ISSN: 2643-9085 Vol. 5 Issue 1, January – 2021, Pages: 80-87.

Nigina JAMOLIDDINOVA,
Toshkent shahridagi Puchon universiteti (Janubiy Koriya)
magistratura bosqichi talabasi

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY MENEJMENTDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik kadrlarni boshqarish muammosi, boshqaruvni samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydigan pedagogik ko'nikmalar va boshqaruvchilik kompetensiyalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Boshqaruv tizimi, menejment, pedagog, metod, maktab, tadqqot, qonun

В статье рассматривается проблема управления педагогическими кадрами в общеобразовательных школах, педагогические навыки и управленческие компетенции, играющие важную роль в эффективной организации управления.

Ключевые слова. Система управления, менеджмент, педагог, метод, школа, исследования, право

The article will talk about the problem of managing pedagogical personnel in secondary schools, pedagogical skills and managerial competencies that play an important role in the effective organization of management.

Key words. Management system, management, educator, method, School, Research, law

Jahonda pedagogika sohasining axborot va innovatsion texnologiyalar asosida keng ko'lamda rivojlanishi ta'limni raqamlashtirishni, samaradorlikni tezkor diagnostika qilishga erishish, sifatni boshqarish paradigmasini zamon talablariga mos holda joriy etishga oid tadqiqotlarning tizimli amalga oshirilishini taqozo etmoqda. BMTning 2030-yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasida "ta'lim oluvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va o'rganishga qiziqishlarini kuchaytirish" kabi vazifalar o'z aksini topgan. Xususan, innovatsion ta'lim sharoitida umumiy urta ta'lim tizimida boshqaruvning modernazatsion mexanizmlarini rivojlantirish, menejmentning zamonaviy texnologiyalari orqali sifat va samaradorlikni monitoring qilishning intensiv baholash instrumentlari hamda strategiyalarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshlanadi. Maktab boshqaruv tizimini isloh etmasdan turib maktabdagi ta'lim muhitini o'zgartirib bo'lmaydi. Shu sababli hozirgi kunda maktablar boshqaruv tizimiga ilg'or xorijiy boshqaruv modellarini milliy manfaatlardan kelib chiqib qo'llash orqali zamonaviy maktab modelini yaratish mumkin. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning eng muhim yo'nalishi bu tizimni boshqarish modelini o'zgartirishdir. Bevosita maqsad ta'lim siyosatining barcha subyektlarining vakolatlari va vakolatlari, funksiyalari va majburiyatlari aniq taqsimlangan va muvofiqlashtirilgan holda optimal boshqaruv modelini ishlab chiqishdir.

Ta'lim tizimining ijtimoiy institut va ijtimoiy tizimning bir turi sifatida aniq belgilangan ta'rifini hisobga olgan holda, ularni boshqarish muammolarini hal qilish uchun ijtimoiy boshqaruvning umumiy yondashuvlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu konsepsiya doirasida menejment subyektning boshqaruv obyektiga ta'siri sifatida talqin qilinadi va ta'lim tizimining bir holatdan ikkinchi holatga maqsadli o'tish jara-

yonida jarayonlarni optimallashtirishni nazarda tutadi. Agar inson rivojlanmasa, u mavjud ko‘nikmalarini yo‘qotishni boshlaydi. Xuddi shunday, maktablar ham jadal sur’atlar bilan o‘zgarayotgan dunyoda o‘z o‘rinlarini saqlab qolish va rivojlantirish uchun maktab rahbari hamda uning pedagogik jamoasi zamonaviy kompetensiyalni o‘zlashtirishlari lozim.

Rahbar va pedagogik jamoada zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni yaratish, ularning davomiy malakasini oshirish maktab rivojlanishining zaruriy omilidir. Har bir tashkilotning rivojlanishi jamoaning malakasiga bog‘liq. Iqtidorli jamoani yaratishning ikki yo‘li bor – ko‘proq professional pedagog mutaxassislarni yollash yoki mavjud pedagoglarni asta-sekin o‘sishi uchun ularni rivojlantirishdir.

Pedagogik menejment ta’lim tizimi va jarayonlarini boshqarish fani sifatida pedagogikaning bir tarmog‘i bo‘lib, uning predmeti ta’lim sohasida va ta’lim muassasalarida boshqaruvni tashkil etishdir. Ta’lim tizimini boshqarish va boshqarishning manbalari sifatida menejment fanining zamonaviy yutuqlari, qonunchilik, maktab ishlarini tashkil etish amaliyoti, ta’lim sohasidagi boshqaruv tajribasi, tarixiy meros va hokazolar tashkil topadi.

Pedagogik menejment nazariya va amaliyot sifatida bir qator boshqa fanlar bilan bog‘liq: umumiy menejment nazariyasi, iqtisodiyot, ijtimoiy psixologiya, fiziologiya, maktab gigiyenasi va boshqalar. Ushbu sohadagi tadqiqotlarning dolzarbligi ta’limda menejmentga oid ko‘plab nashrlar bilan tasdiqlangan. Yu.A. Konarjevskiy, V.S. Lazarev, A.M. Moiseyev, A.A. Orlov, M.M. Potashnik, P.V. Suntsov, V.A. Slastenin, P.I. Tretyakov, K.M. Ushakov, R.X. Shakurov, T.I. Shamova va boshqalar kabi yetakchi mutaxassislar.

Ta’lim muassasalarini boshqarishning bir qancha funksiyalari mavjud. V.S. Lazarev ular orasida rejalashtirish, tashkil etish, yetakchilik va nazoratni ajratib turadi. Ushbu asosiy funksiyalarga V.A. Slastenin pedagogik tahlil, maqsadni belgilash, tartibga solishni qo‘shadi. Ushbu o‘qituvchilarning fikrlarini umumlashtirib, biz pedagogik jamoani boshqarishning quyidagi funksiyalarini ochib beramiz: tahlil qilish, maqsadni belgilash va rejalashtirish, tashkil etish, nazorat va tartibga solish.

Zamonaviy ma’noda pedagogik tahlil funktsiyasi maktab ichidagi boshqaruv nazariyasiga Yu.A. Konarjevskiy tomonidan kiritilgan va ishlab chiqilgan. Boshqaruv sikli tarkibida pedagogik tahlil alohida o‘rin tutadi: u ketma-ket o‘zaro bog‘liq bo‘lgan funksiyalardan iborat bo‘lgan har qanday boshqaruv siklidan boshlanadi va tugaydi. Pedagogik tahlilni boshqaruv faoliyatining umumiy zanjiridan chiqarib tashlash, rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tartibga solish funksiyalari o‘z rivojlanishida mantiqiy asos va to‘liqlikka ega bo‘lmaganda uning parchalanishiga olib keladi.

Boshqaruv faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan maktab rahbarlarining pedagogik tahlil metodologiyasini qanday o‘zlashtirganligi, aniqlangan faktlarni qanchalik chuqur o‘rganishi va eng xarakterli bog‘liqliklarni aniqlay olishi bilan belgilanadi. Maktab direktori faoliyatidagi o‘z vaqtida yoki professional bo‘lmagan tahlil maqsadni ishlab chiqish va vazifalarni shakllantirish bosqichida qabul qilingan qarorlarning noaniqlik va ba’zan asossizligiga olib keladi. Pedagogik yoki talabalar jamoasidagi ishlarning haqiqiy holatini bilmaslik pedagogik jarayonni tartibga solish va tuzatish jarayonida to‘g‘ri munosabatlar tizimini o‘rnatishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Pedagogik tahlilning asosiy maqsadi boshqaruv funktsiyasi sifatida, Yu.A. Konarjevskiy pedagogik jarayonning holati va rivojlanish tendentsiyalarini o‘rganish, uning natijalarini obyektiv baholash, so‘ngra boshqariladigan tizimni tartibga solish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu funksiya boshqaruv sikli tuzilmasida eng ko‘p vaqt tal-

ab qiladigan funksiyalardan biridir, chunki tahlil o‘rganilayotgan obyektdagi qismlarni yagona bir butunga taqsimlashni, tizimni tashkil etuvchi omillar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatishni o‘z ichiga oladi. Maktab ichidagi boshqaruv nazariyasi va amaliyotida Yu.A. Konarjevskiy va T.I. Shamova pedagogik tahlilning mazmuniga qarab asosiy turlarini aniqladi: parametrik, mavzuli, yakuniy.

Pedagogik boshqaruv tuzilmasi quyidagi darajalarni o‘z ichiga oladi: 1) pedagogik jamoa faoliyatini boshqarish; 2) o‘qituvchining faoliyatini boshqarish; 3) talaba faoliyatini boshqarish. Pedagogik voqelik – vertikal va gorizontal ravishda iyerarxik bog‘langan tizimlar yig‘indisidir (tizim – bu o‘rtasida ma’lum munosabatlar paydo bo‘ladigan elementlar to‘plami. Masalan, didaktik tizim umumiy pedagogik tizimning bir qismi bo‘lib, unda sodir bo‘layotgan jarayonlarni yaxshiroq tushunish uchun biz uni ajratib olamiz va nisbatan mustaqil deb hisoblaymiz. Pedagogik loyihalarni boshqarish alohida ajratilgan. Pedagogik loyihalar muayyan maqsad bilan amalga oshiriladigan faoliyatning nisbatan alohida sohalari (qismlari)dir. Masalan, maktab yoki universitet darajasida quyidagi pedagogik loyihalar bo‘lishi mumkin: o‘qituvchilarning ilmiy izlanishlari; talabalarning ilmiy izlanishlari; o‘quv mashg‘ulotlari; turli xil ta’lim faoliyati; loyihalarni nashr etish; qurilish loyihalari; talabalar va o‘qituvchilar almashinuvi; imtihon sessiyalari; bayramlar; dam olish faoliyati.

Mamlakatda dunyoning ilg‘or rivojlangan mamlakatlaridagi ta’lim tizimi o‘rganilib, milliy manfaatlarga to‘g‘ri kelgan tajribalar ta’lim tizimida qo‘llanila boshlandi. Shu sababli hozirgi mustaqil davlatning maktab ta’limini rivojlantirishda maktab boshqaruvini modernizatsiya qilish, maktab rahbarlarining eski kasbiy kompetensiyalari o‘rniga yangi zamonaviy kasbiy kompetensiyalar bilan almashtirish vaqti yetib keldi. Bu masalada O‘zbekiston zamonaviy, erkin fikrlovchi, ijodkor hamda har tomonlama rivojlangan menejerlarga ehtiyoj sezmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik kadrlarni boshqarish muammosi, birinchi navbatda, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida maktablarimizda yosh avlodni tarbiyalash samaradorligini oshirish bilan bog‘liq. Ta’lim va tarbiya masalasi har bir davrga xosdir. Bugungi kunda ham mustaqil davlatlar uchun raqobatbardosh mehnat resurslariga ehtiyoj yuqori. Ta’lim va tarbiya samaradorligiga maktabni boshqarish tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqaligina erishish mumkin. Maktab ijtimoiy tashkilot bo‘lib, u odamlarning (o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar) birgalikdagi faoliyati tizimi bo‘lganligi sababli, uni samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Моисеев А.М. Качество управления школой: Что это такое? Каким ему быть? Как его обеспечить? Библиотека журнала “Директор школы”. – М.: Сентябрь, 2001. – С. 160. (Moiseev A.M. School Management Quality: What is it? What should he be? How to provide it?)

2. Гришина И.В., Волков В.Н., Анализ особенностей управленческой деятельности руководителя школы в современных условиях. Научные сообщения. Научно-теоритический журнал. 2019. (Grishina I.V., Volkov V.N., Analysis of the features of the managerial activity of the head of the school in modern conditions).

3. Teaching creative thinking to secondary school students through independent education is a pressing issue S. Mirkhayitova, G. Shodiyeva, M. Irmatova ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10 (8), 26-31.

4. Pedagogical and Information Support of Improving the Management Process of General Secondary Schools in the Conditions of Modernization of Education (International journal on education volume 5, Issue 7 July 2022.

Fayyoza KENJAYEVA
Toshkent shahridagi Puchon universiteti (Janubiy Koriya)
magistratura bosqichi talabasi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK KREATIVLIK VA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida rahbarlik qilishning liderlik qilish madaniyati hamda pedagogik menejmentda kreativlik va kasbiy kompetensiyani shakllantirish bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Boshqaruv, kompetensiya, ta’lim tizmi, pedagogik mahorat, qonun va qaror.

В этой статье описывается культура лидерства в управлении образовательным учреждением, а также формирование креативности и профессиональной компетентности в педагогическом менеджменте.

Ключевые слова. Управление, компетенция, система образования, педагогические навыки, право и решение.

This article describes the culture of leadership of the educational institution and the formation of creativity and professional competence in pedagogical management.

Key words. Management, competence, educational range, pedagogical skill, law and decision.

Bugungi o‘quvchi-yoshlarda kreativlikni shakllantirish uchun pedagog namunaviy intellektga ega bo‘lishi, zamonaviy ta’lim-tarbiya qonuniyatlarini mukammal bilishi va shu asosda o‘z kasbi bilan bog‘liq ijodkorlik qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Hozirgi zamondagi yosh avlodni tarbiyalayotgan professor-o‘qituvchilarimiz o‘z shogirdlariga Vatanga sadoqat, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy maslahat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishi bilan bir qatorda mantiqiy fikrlashga odatlantirish va ijod qilishni o‘rgatishi lozim. Bo‘lajak pedagoglarga kreativlik bo‘yicha ijodiy faoliyat turlarini shakllantirish quyidagicha bo‘ladi.

Kommunikativ kompetensiya – o‘qituvchidan to‘laqonli muloqotchanlikni talab etadi. Har qanday vaziyatda ta’lim oluvchi va jamoa a’zolari bilan ijobiy munosabatda bo‘lishni taqozo etadi. Informatsion kompetensiya – o‘qituvchi o‘z fani va unga bog‘liq holda bo‘lgan barcha yangiliklardan xabardor bo‘lishi zarur. Shuning uchun ham pedagog axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Pedagogik takt va pedagogik etika mavzusi bo‘yicha talabalarga nazariy materiallar beriladi, seminar mashg‘ulotlarini bajarishlari uchun uslubiy maslahatlar beriladi. Talabalar o‘z ustilarida muntazam ishlab, berilgan seminar mavzusi topshiriqlarini turli axborot vositalaridan foydalanib bajarish hamda ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olishlari darajasiga yetishgan, ya’ni pedagogik kompetentliklar shakllanishi kerak.

Pedagog faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi hamda pedagogik takt va pedagogik etika mavzusini yoritishda o‘qituvchi faoliyatida muomala madaniyatining o‘ziga xos turlari, muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustu-

vorligi, pedagogik muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari va funksiyalari, pedagogik etikaning mohiyati va xususiyatlari hamda o‘qituvchi etikasida dilkashlik va pedagogik takt bo‘yicha bilimlar beradi. Bu bilimlar amaliy va seminar mashg‘ulotlari jarayonida mustahkamlanib boriladi. Mavzu yakunida talabaning bilimi testlar yoki boshqa topshiriqlar orqali tekshiriladi. Har bir modul bo‘yicha mavzular shu tarzda talabalarga yetkazilib, ularda shu fan bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari shakllantirib, bo‘lajak o‘qituvchi xislatlari tarbiyalanadi, pedagogik kompetentligi shakllantirib boradi.

Zamonaviy maktabni boshqarish murakkab, ko‘p komponentli tashkiliy tuzilishlarga ega bo‘lib, bunda asosiy maqsadga, ya’ni o‘quvchilarni bo‘lajak mustaqil hayotga tayyorlash, ularni mehnatga va murakkab ijtimoiy shart-sharoitlarga mustaqil ravishda tezroq moslashishlarini ta’minlashga erishishda ta’lim muassasasidagi barcha subyektlarning sa’y-harakatlarini shu maqsad yo‘lida birlashtirish, o‘zaro hamkorlik muhitini yaratish muhimdir.

Tadqiqotchi A. Nosirov rahbarlik menejmentida kompetensiyani muhimligini ta’kidlab o‘z fikrlarini bildiring boshqarishda qo‘yidagi qobiliyat kompetensiyalari:

1. Standart kompetensiya ushbu, ya’ni faoliyatga oid innovatsion vazifalarni belgilab olishi qobiliyatidir;

2. Asosiy kompetensiya – ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni belgilash olish qobiliyati;

3. Yetarli kompetensiya kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyati;

4. Kasbiy kompetensiya – pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarga ega bo‘lish, o‘z ustida ishlash o‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirishdan iborat, deb ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi Temurov D. – ta’lim muassasasi boshqaruviga oid bilimlarni o‘zlashtirishni amaliy faoliyatiga qo‘llash bo‘yicha qo‘yidagi tamoyillarni tavsiya qiladi:

1. Ong va faoliyat birligi. Ushbu tamoyil rahbarning ta’lim muassasasi boshqaruviga oid bilimlarni o‘zlashtirishni va amaliy faoliyatda qo‘llashi.

2. Ta’lim muassasasini boshqarishning ilmiy va g‘oyaviyligi. Mazkur tamoyil boshqaruvga yuksak g‘oyaviylik hamda ilmiy asoslangan quyidagi muvofiq boshqariladi.

3. Ta’lim muassasalarida boshqaruvning izchil va uzviylik .Ushbu tamoyil rahbarlar samaradorligining demokratik harakatda kasb etishini anglatadi .

4. Ta’lim muassasasida rahbar boshqaruvning gumanitar xususiyatlarga ega ekanligi. Mazkur tamoyil ijtimoiy faoliyat negizida umum-jamiyat manfaatlari bilan shaxsiy manfaatlar ifodalaydi.

5. Ta’lim muassasalarini boshqarishga har tomonlama (kompleks) tizimli yondashuv. Ushbu tamoyil o‘ziga ta’lim muassasa xodimlari bir ijtimoiy faoliyat birlashtiradi.

6. Ta’lim muassasalarini boshqarishning muayan aniq maqsadga yo‘naltirilganligi. Mazkur tamoyil ta’lim muassasasining ijtimoiy harakatdagi faoliyati yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda harakatlarning tashkil etishi bilan izohlanadi.

G. Kunts va S.O. Dannelning aniqlashicha, “agar bo‘ysunuvchilar rahbarlar tomonidan o‘rnatilgan tartib qoidalar va ehtiyojlarga ko‘ra boshqarilsa, ular o‘z imkoniyatlarining taxminan 60 yoki 65 foiz darajasida ishlashi mumkin, ya’ni o‘z ishida saqlanib qolish maqsadida, shunchaki o‘z majburiyatlarini qoniqarli darajada bajaradi, bo‘ysunuvchilarning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish uchun, rahbarlar liderlikni amalga oshirish bilan ularda tegishli mulohaza shakllantirishi zarur”. Rahbarlik – odamlarga maqsadli ta’sir o‘tkazishga qaratilgan, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq boshqaruvning tarkibiy qismidir. Saylab qo‘yilgan yoki tayinlangan rahbar qator funktsiyalarni bajaradi: jamoa faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, shu

faoliyatni rejalashtiradi, rag‘batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, uni nazorat qilishni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustdagi xalq ta’limi tizimi xodimlari bilan bo‘lgan telemuloqotda quyidagicha fikrlarni bildirganlar: “Hozirgi zamon o‘qituvchisining asosiy vazifalaridan biri – kasbiy kompetentligi va intellektual salohiyatining yuqoriligi, sadoqatliligi, g‘oyaviy e’tiqodligi va o‘z kasbini sevishidir. Bu fazilatlar pedagoglarni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi”.

Bugungi o‘quvchi-yoshlarda kreativlikni shakllantirish uchun bugungi pedagog namunaviy intellektga ega bo‘lishi, zamonaviy ta’lim-tarbiya qonuniyatlarini mukammal bilishi va shu asosda o‘z kasbi bilan bog‘liq ijodkorlik qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Bugungi professor-o‘qituvchi o‘z shogirdlariga Vatanga sadoqat, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy maslahat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishi bilan bir qatorda mantiqiy fikrlashga odatlantirish va ijod qilishni o‘rgatishi kerak bo‘ladi.

‘‘Pedagogik takt va pedagogik etika’’ mavzusi bo‘yicha talabalarga nazariy materiallar beriladi, seminar mashg‘ulotlarini bajarishlari uchun uslubiy maslahatlar beriladi. Talabalar o‘z ustilarida muntazam ishlab, berilgan seminar mavzusi topshiriqlarini turli axborot vositalaridan foydalanib bajarish hamda ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olishlari darajasiga yetishgan, ya’ni pedagogik kompetentliklar shakllanishi kerak.

“O‘qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi hamda pedagogik takt va pedagogik etika” mavzusini yoritishda o‘qituvchi faoliyatida muomala madaniyatining o‘ziga xos turlari, muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, pedagogik muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari va funksiyalari, pedagogik etikaning mohiyati va xususiyatlari hamda o‘qituvchi etikasida dilkashlik va pedagogik takt bo‘yicha bilimlar beradi. Bu bilimlar amaliy va seminar mashg‘ulotlari jarayonida mustahkamlanib boriladi. Mavzu yakunida talabaning bilimi testlar yoki boshqa topshiriqlar orqali tekshiriladi. Har bir modul bo‘yicha mavzular shu tarzda talabalarga yetkazilib, ularda shu fan bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari shakllantirib, bo‘lajak o‘qituvchi xislatlari tarbiyalanadi hamda pedagogik kompetentligi shakllantirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Kenjaboyev A, Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. Termiz 2022-yil. 100 b.

3. Kenjaboyev A.E. Pedagogik rahbarning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahorati. Zamonaviy ta’lim jur. 2020 № 10. – 83 b.

4. Kenjaboyev A.E. “Zamonaviy o‘qituvchining kasbiy kompetentligi va kreativligi – bugungi kun talabidir”. Xalq ta’limi jurnali. 2020-yil.

Jamshid XUDAYKULOV,
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi
metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

(Boshlang‘ich sinflar misolida)

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligi bilan bog‘liq amaliy ko‘nikmalar rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari yoritib berilgan. O‘quvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantirishning didaktik hususiyatlari tahlil qilingan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligi ko‘nikmalarini shakllantirish yuzasidan metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. O‘quvchi, o‘qituvchi, o‘qish samaradorligi, o‘qish savodxonligi, natija, faoliyat, homkorlik.

В статье освещаются педагогические особенности формирования практических навыков, связанных с грамотностью чтения, у учащихся начальных классов. Проанализированы дидактические особенности развития читательской грамотности учащихся. Даны методические рекомендации по формированию навыков чтения у учащихся начальных классов.

Ключевые слова. Ученик, учитель, эффективность чтения, грамотность чтения, результат, деятельность, сотрудничество.

Pedagogical features of development of practical skills related to reading literacy in elementary school students are highlighted in this article. The didactic features of the development of reading literacy among students were analyzed. Methodological recommendations on the formation of reading literacy skills in primary school students are given.

Key words. Student, teacher, reading efficiency, reading literacy, result, activity, cooperation.

Boshlang‘ich ta’lim ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Boshlang‘ich ta’limning o‘ziga xos jihatlari alohida ko‘rsatilib, bolaning samarali ta’lim va tarbiya olishida aynan ushbu bosqichning alohida o‘rni mavjudddir.

Kichik maktab yoshidagi bola 6-7 yoshdan boshlab 10-11 yosh atrofida bo‘lib, unga asosan 1-4-sinf o‘quvchilari, ya’ni boshlang‘ich ta’lim davri kiradi. Bu davrda bolalarda:

– maktabgacha davrdagi bola o‘quvchi maqomi darajasiga yetadi;

– barcha tana a’zolari rivojlanish bosqichida bo‘lib, lekin suyaklari hali to‘liq qotib ulgurmagan bo‘ladi;

– psixologik qo‘zg‘alish va tormozlanishi tez o‘zgaruvchan bo‘ladi;


– o‘yin faoliyatidan ko‘proq o‘qish faoliyatiga o‘tishi talab etiladi;

– maktabga borishga doir psixologik yo‘nalish olish ishlari amalga oshiriladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi darslarini tashkil etishda darslikda berilgan topshiriqlardan samarali foydalanishga alohida ahamiyat berish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni, eruditsiyani, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar berilgan. Bunday topshiriqlar bilan ishlashda o‘qituvchi ta’lim jarayonini mohirona tashkil qilishi kerak.

O‘qituvchilik san’ati bolalarni mulohazalar yuritish yo‘li bilan xulosaga, natijaga yetaklashdan iboratdir. Har safar, o‘quvchilar bilan o‘quv topshiriqlari bilan ishlashda taqqoslash va umumlashtirishga undash uchun qo‘yilgan savollar ularning aqlini zo‘riqtiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkuri ulardan o‘rganganlarining muhimini ajratish so‘ralganda yanada ijodiy ishlaydi. Muhim narsa o‘quvchilarning o‘zlari aytganlari orasidan qidiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy kamolotining asosi bo‘lgan tafakkur va faoliyatdagi mustaqilligining darajasi o‘quv topshiriqlarini bajarishda ham namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘quv topshiriqlari bilan ishlashini zamonaviy yondoshuvlar asosida turlicha tashkil etish mumkin. Eng muhimi o‘quv topshiriqlari bilan ishlashda bir xil yondoshuvga tayanib qolmaslik kerak. Bunday yondashuv o‘quvchini zeriktiradi, uning yangilikni o‘rganishga nisbattan bo‘lgan ishtiyoqini so‘ndiradi.



1-chizma. O‘quv topshiriqlarini tashkil etish shakllari

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv topshiriqlari bilan ishlash faoliyatini tashkil etishda pedagogik, psixologik va ilmiy-metodik asoslarga tayanib berilgan topshiriqlar o‘quvchilar shaxsiyatida ziyraklik va erkinlik tarkib topishiga ko‘maklashadi. Ularda aniqlik va batartiblik, mehnatsevarlik, qat’iyatni rivojlantirishga asos bo‘ladi. Faoliyatida duch kelgan qiyinchiliklarni engib o‘ta olish, boshlagan ishini oxiriga etkazish hamda o‘z xatti-harakatini nazorat qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quv topshiriqlar bilan ishlash yuzasidan metodik tavsiyalarimizni keltirib o‘tamiz.

O‘qituvchi topshiriq yuzasidan qo‘yilayotgan muammoni juftlikda, ya‘ni o‘qituvchi rahbarligida bajarish maqsadga muvofiq. Topshiriq yuzasidan o‘quvchilarning fikri tinglanadi. Barcha o‘quvchilarning fikrini tinglashga imkoniyat bo‘lmasada, o‘quvchilarning hech bo‘lmaganda o‘z o‘rtoqlarining fikrini eshitishlariga erishish ham muhim ahamiyatga ega. Albatta o‘qituvchi o‘quvchilarda shakllantiriladigan amaliy ko‘nikmalarni aniqlab olishda mavzuning hususiyatlarini, maqsadlarini va mazmuni anglab etish muhim hisoblanadi. Har bir mavzuni chuqur tahlil qilishi, mavzu orqali o‘quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalarni va talablarni darsning maqsadi va mazmunida aks ettirilishiga erishishi kerak. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslaridan o‘quvchilarda shakllantiriladigan ko‘nimalar, malaka talablari nimadan iborat ekanligini quydagi mavzu orqali ko‘rishimiz mumkin.

1-Sinf kun tartibi:

Nutqiy mavzuning g‘oyasi: o‘quvchilarda vaqt bilan bog‘liq umumiy tushuncha hosil

qilish, vaqtni qadrlash, to‘g‘ri taqsimlash, bolani bir kunlik rejasini tuza olishga o‘rgatish.

Tinglab tushunish: berilgan savolni tushunib tartibli javob bera oladi; eshitilgan gapdagi voqeani anglay oladi; uning qaysi hafta kuni, kunning qismida bajarilishini topa oladi.

Og‘zaki nutq: soat vaqtlarini to‘g‘ri talaffuz qila oladi; savollarga og‘zaki javob bera oladi; rasmga qarab o‘z kun tartibi haqida ayta oladi; diaologli matnni o‘qishda rolga kirisha oladi.

O‘qib tushunish: soatni ifodalovchi raqamli konstruksiyani to‘g‘ri o‘qiy oladi; (6:30, 12:00); matnda ifodalangan vaqt va faoliyat bog‘liqligini tushuna oladi; she’rning syujetini tushuna oladi; o‘xshatishlarni tushunish (umr – daryo); rasmlarda qanday amallar bajarilayotganini aniqlay oladi; dialogni o‘qib, tushuna oladi.

Yozma nutq: kun qismlarini yoza oladi; raqamlarni so‘z bilan ifodalay oladi; soat necha bo‘lganini yoza oladi; o‘xshatishlarni qatnashtirib gaplar tuza oladi; rasm asosida o‘z kun tartibini hodisalar ketma-ketligi asosida matn yoza oladi; daraxt, payvand kabi oxiri ikki undosh bilan tugovchi so‘zlarini to‘g‘ri ifodalay oladi; to‘qqiz, ukki kabi tarkibida ikkita bir xil undosh qatnashgan so‘zlarni to‘g‘ri yoza oladi; tavsiya mazmunidagi gaplar tuza oladi.

Lingvistik bilim: vaqtni ifodalovchi konstruksiyalar; vaqt bilan bog‘liq metaforalar; daraxt, payvand kabi oxiri ikki undosh bilan tugovchi so‘zlarining aytilishi va yozilishi, buyruq-istak maylidagi fe’l haqidagi ma’lumotlarni o‘zlashtira oladi.

Lug‘at boyligi: soat vaqtlarini ifodalovchi so‘zlar; kun davomidagi faoliyatlarni ifodalovchi so‘zlar (uyqudan turish, nonushta qilish, katta tanaffus kabi); kun qismlarini ifodalovchi so‘zlar (kunbotar, tush, tong, tun); 1dan 99gacha bo‘lgan raqamlar; vaqt bilan bog‘liq metaforalar (oltin, daryo).

Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi darslarini tashkil etishda darslikda berilgan topshiriqlardan samarali foydalanishga alohida ahamiyat berish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni, eruditsiyani, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar berilgan. Bunday topshiriqlar bilan ishlashda o‘qituvchi ta’lim jarayonini mohirona tashkil qilishi kerak.

O‘qituvchilik san’ati bolalarni mulohazalar yuritish yo‘li bilan xulosaga, natijaga yetaklashdan iboratdir. Har safar, o‘quvchilar bilan o‘quv topshiriqlari bilan ishlashda taqqoslash va umumlashtirishga undash uchun qo‘yilgan savollar ularning aqlini zo‘riqtiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkuri ulardan o‘rganganlarining muhimini ajratish so‘ralganda yanada ijodiy ishlaydi. Muhim narsa o‘quvchilarning o‘zlari aytganlari orasidan qidiriladi.

